8) *Belâ-yı İslam* hikâyesinin dilinden anlaşıldığına göre, Gaspıralı için "lisanî Türkçülük", öncelikle millî dilin omurgası olan sentaksın (söz dizininin) milli olmasından ibarettir;

9) Gaspıralı Arapça izafetlere neredeyse hiç yer vermemiştir;

10) Farsça izafetlerden hep uzak durmaya çalışmış, çağdaşlarına göre daha az Farsça tamlama kullanmıştır;

11) Rusçayı çok iyi bilmesine, ilk büyük eserlerini Rusça yazmasına ve en büyük eseri olan *Tercüman* gazetesini 1883-1905 yılları arasında 22-23 yıl boyunca Türkçe ile birlikte aynı zamanda Rusça da çıkarmasına rağmen, onun kullandığı Türk dilinde Rusçanın etkisi azdır;

12) Gaspıralı, Türkçe tamlamalara ağırlık vermiş, Türk dilindeki kelime grubu kalıplarının neredeyse tamamını kullanmıştır;

13) Gaspıralı'ya göre milli dil anlayışının temel ölçüsü, sadece millî (Türkçe) kelimelerin kullanılması değildir;

14) Ziya Gökalp'ın "Türkçeleşmiş, Türkçedir" umdesi Gaspıralı'ya göre de geçerlidir hatta Müslüman Türk halkları arasındaki dil ortaklığının temel ölçülerinden biri, aslen Türkçe olmayıp Türkçeleşmiş kelimelerdir;

15) Ortak Türkçeyi kelime yönünden zenginleştirmek için çeşitli coğrafyalarda kullanılmakta olan Türk lehçeleri arasında kelime alış-verişi olmalıdır;

16) İstanbul (Türkiye) Türkçesi, merkez bir dil (ortak Türkçenin esası) olmasına rağmen, ihtiyaç duyduğunda diğer Türk lehçelerinden sözcük alabilir;

17) Başka dillerin gramer kuralları Türkçeye asla uygulanamaz...

---

[59] Burada dile getirdiğimiz hususları başka bir çalışmamızda somut örneklerle açıklamayı düşünüyoruz. N. M.

7.10. Yapısı: Molla Abbas Fransevî'nin *Belâ-yı İslam* hikâyesi birçok yönden incelenmeği hak eden klasik bir eserdir. Hikâyenin edebî yönünün yanında tarihî gerçekleri ihtiva etmesi; psikolojik söylem boyutu; teolojik tarafı; sosyolojik boyutu; hukuk ve insan hakları yönü; canlı tasvirlerdeki görsellik (resim) ve sinematografik imkânları; içerdiği zengin halk edebiyatı motifleri; dili; üslubu; anlatım teknikleri; edebi yönü… vb. özelliklerinin her biri ayrı ayrı incelenmelidir.[60]

Belâ-yı İslam hikâyesinin ilk dört halife; "Hülefa-yı Raşidîn zamanında"; "Âlem-i İslamiyet'in bu hâli"; "Şeytanlar mükedder…" sözleriyle başlayan] paragrafı - **serim**;

"Bu hikmetli hâli"; "Bu fikri muteberân-ı Şeytaniye"; "- Aman Kart Agay" ifadeleriyle başlayan paragraflar – **düğüm**;

"Kart Şeytan'ın riyasetinde"; "Birinci madde"; "İkinci madde"; "Üçüncü madde"; "Böyle ise bu milletin" ifadeleriyle başlayan paragraflar – **çözümün başlangıcı**;

"Kart Şeytan'ın bu sözleri" paragrafından "Hemen Meclis-i Şeytaniye kura çekip" paragrafına kadarki kısım (dialoglar dâhil) – **çözümün ikinci ayağı**;

"Meclis-i Şeytanî'den sonra çok zaman geçti mi pek de malûm değil" cümlesiyle başlayan paragraftan hikâyenin sonuna kadarki kısmı ise – **dört aşamalı çözüm** olarak değerlendirilebilir.

8. Sonuç: Gaspıralı İsmail Bey'in "Molla Abbas Fransevî" müstear adıyla kaleme alıp *Tercüman* gazetesinde tefrika ettiği *Belâ-yı İslam* adlı hikâyesiyle ilgili genel olarak şu sonuçlara varabiliriz:

1) *Belâ-yı İslam* eserinin tefrika edildiği *Tercüman* gazetesi, en az yirmi yıl boyunca Rusya Türklerinin tek sesi olmuştur;

2) Bu gazete Rusya Türklerinin modernleşmesinin öncülüğünü yapmıştır;

3) *Tercüman*, çoğu Oryantalist ve Türkolog olan Rus misyonerlerin hedefinde olmuştur;

4) *Tercüman* gazetesi ilk sayılarından itibaren bir edebiyat

[60]Bugün de güncelliğini koruyan bu eserle ilgili çok yönlü bir proje hazırlıklarını tamamlamış bulunuyoruz.

kürsüsüne dönüşmüştür;

5) *Tercüman*, edebiyatı milletleşme sürecinin bir aracı olarak görmüş, edebiyatın fonksiyonel yönünü daha çok önemsemiştir;

6) *Tercüman*, Tanzimat'ın birinci kuşağının "Sanat toplum içindir" anlayışını benimsemiştir;

7) *Tercüman*, 19. yy. Rus edebiyatından etkilenmiştir;

8) *Tercüman*, idealist ve eğitimci-realist bir çizgi takip etmiştir;

9) *Tercüman*'ın, Fransız edebiyatından da etkilendiğini söyleyebiliriz;

10) Gaspıralı'nın edebi eserleri (aslında bütün eserleri ve faaliyetleri) modern bir Türk milleti oluşturma yolunda birer araçtır;

11) Tek başına düşünülecek olursa Kırım Türklerinin edebiyatında "Tercüman Dönemi" özel bir merhaledir.

12) *Tercüman*, Kırım'da olduğu gibi bütün Rusya Türkleri/Müslümanları arasında edebi zevki yüksek olan gençleri etrafına toplayıp bir edebi nesil (kuşak) yetiştirmiştir;

13) Kırım'da Osman Akçokraklı, Numan Çelebi Cihan, Hasan Sabri Ayvazov, Şamil Toktargazi Gaspıralı'nın etkisiyle yetişen gençler arasında sayılabilir. (Rusya'nın diğer yerlerindeki gençleri tam olarak belirleme nerdeyse imkânsız ve başlı başına bir araştırma konusudur.)

14) Gaspralı, az da olsa didaktik mahiyette, hece vezinli şiirler de yazmıştır ve daha önemlisi bu tarz şiirleriyle Türk edebiyatında bir çığır başlatan M. E. Yurdakul'dan övgüyle söz edip onu gençlere örnek göstermiştir.

15) *Tercüman*, geniş bir coğrafyaya hâkim olan Çarlık Rusya'da 1883-1905 yılları arasında Türkçe çıkan tek gazete idi;

16) Gaspıralı İsmail Bey bugün bile "ihmal edilmiş bir yazar ve düşünce adamıdır;

17) Gaspıralı'nın"*Dilde, Fikirde, İşte Birlik!*"düsturu da aslında yekpare bir Türk milleti oluşturmak için ileri sürülen temel ilkeler bütünüdür. (Fakat birçok kişi farkında olmadan bu ilkeyi öne sürerek veya sadece onun bu ilkesini göz önünde tutarak Gaspıralı'nın asıl idealini gölgelemektedirler.

18) Gaspıralı, şekil ve muhtevaca milli olan Türk edebiyatının

mimarlarındandır;

19) Gaspıralı'nın kullanmış olduğu müstear adlardan bazıları şunlardır: Küçük Molla, Genç Molla, Taşkentli Molla Abbas (veya Molla Abbas Fransevî), Kart Suhte vs.

20) Gaspıralı'nın edebi eserlerinden bazıları şunlardır: *Firengistan Mektupları, Darürrahat Müslümanları, Kadınlar Ülkesi, Arslan Kız, Gündoğdu, İvan ve Süleyman, Ahmet Bey Taşkesenli ve Bedros Ağa Karakaşyan, Belâ-yı İslam* vd.;

21) Gaspıralı okuyucuların kendisine veya Tercüman gazetesine yazdığı mektupları önemsemiş, onların makul isteklerini, tavsiyelerini yerine getirmiş ve gerektiğinde onlara cevap yazmıştır. Yani okuyucularıyla sürekli temas halinde bulunması etkilerinin daha canlı ve güçlü olmasını sağlamıştır.

22) Kültesli Molla Şemseddin'in mektubu *Tercüman*'ın başarısını ve onun belirlenen hedeflerine ulaştığını göstermektedir.

23) Molla Abbas Fransevî, Gaspıralı'nın edebi eserlerinde en çok kullandığı müstear ad olmakla birlikte hem de okuyucuların gözünde ideal bir anlatıcıdır;

24) Molla Abbas Fransevî, bir yandan merkezî devleti kuşkulandırmamaya çalışmış, diğer yandan da Müslüman din adamlarını ikna etmiştir. "İlim Müslümanın yitik malıdır!" hadisi, *Tercüman* gazetesi ve Gaspıralı İsmail Bey açısından ideal bir Müslüman tipinin ana çizgilerini belirlemektedir.

25) Gazetecilik hayatının başlarında Gaspıralı doğrudan doğruya "İsmail" imzasıyla söyleyemediği sözleri, Müslümanlara yönelik sert tenkit ve uyarılarını M. A. Fransevî'nin arkasına gizlenerek yapmıştır ve okuyucularının nasıl tepki vereceklerini izlemiştir. Nitekim aradan makul bir zaman geçip Müslümanlar özellikle eğitim konusunda yeni fikirleri benimsemeye başladıktan sonra M A. Fransevî imzasını kullanmayı bırakmıştır, çünkü artık lüzum kalmamıştır.

25) Gaspıralı'nın *Belâ-yı İslam* hikâyesinin sembolik bir kurmaca eser olması, bu eserde *serim, düğüm, çözüm* unsurlarının birbirini düzenli şekilde takip etmesi, Gaspıralı'nın edebiyat bilgisini ortaya koyması açısından önemlidir;

26) Eserin Rusça versiyonu ile Türkçesi ayrıca karşılaştırılmalı,

farklılıklar gösterilmeli, varsa onların nedenleri üzerinde durulmalıdır;

27) Eserin mutsuz sonla, umutsuz bir ruh hâli ile bitmesi İslam âlemindeki durumun vahametini gösteriyor. Nitekim günümüzde İslam adına yapılan cahilane hareketleri göz önünde bulundurduğumuzda zamanın, Gaspıralı'yı haklı çıkardığını görürüz;

28) Gaspıralı'ya göre, Hülafa-yı Raşidîn, Hilafet-i Emeviye ve Hilafet-i Abbasiye dönemleri İslamiyet'in yükseliş çağları olmuştur;

29) Hikâyenin şahıs kadrosundaki kişilerin çoğu kalabalık şeytan meclisindeki kişilerdir. Onların da çoğu şekil değiştirerek insanlar arasına karışmıştır. Mesaj çok açıktır: "Aranızdaki şeytanlara fırsat vermeyiniz!"

30) *Bela-yı İslam* hikâyesi,oldukça zengin, güncel ve ibretlik mesajlarla doludur…

Kaynakça

"Asılsız Korku", *Tercüman*, 9 Sentyabr [Eylül], 1905, Sayı 71, s. 1

Aybeniz Kengerli, *İsmail Bey Qasprinski*, Bakü, ADPU Neşriyatı, 2005, s. 248-263

"Bizim Şube", *Tercüman*, 16 Mart 1907, Sayı 28, s. 1-2

E. M. Mustafayev – V. G. Şçerbinin, *Büyük Rusça-Türkçe Sözlük* (47700 kelime), (Moskva, Russkiy Yazık Yay.) lügatinin tıpkıbasımı, İstanbul, Multilingual – Yabancı Dil Yay., 1996

Gaspıralı İsmail, "Bahçesaray Mektupları", Rusçadan çevirenler Hacali Necefoğlu – Yavuz Akpınar, *İsmail Gaspıralı – Seçilmiş Eserleri 2: Fikrî Eserleri*, 5. bs., İstanbul, Ötüken Neşriyat, 2017

Gaspıralı İsmail, "Rusya Müslümanları" (Çev. Aydın İbrahimoğlu – Yavuz Akpınar), *Seçilmiş Eserleri–II, Fikrî Eserleri*, 5. bs., (Neşre haz. Y. Akpınar), İstanbul, Ötüken Neşriyat, 2016, s. 77-121

Gaspıralı İsmail: *Roman ve Hikâyeleri* – Seçilmiş Eserleri–I, 7. bs., Neşre hazırlayanlar: Yavuz Akpınar, Bayram Orak, Nazım Muradov, İstanbul, Ötüken Neşriyat, 2020

Gaspıralı, İsmail, *Seçilmiş Eserleri–3: Dil–Edebiyat–Seyahat Yazıları*, *3. bs.,* Neşre hazırlayan Yavuz Akpınar, İstanbul, Ötüken Neşriyat, 2017

Hüseyin Cavid, "İblis", *Eserleri,* Hazırlayan: Azer Turan, İstanbul, Küsena Yayınları, 2013

"İlminski Usulü", *Tercüman*, Sayı 10, 1906

İsmail Asanoglu Kerim, *Gasprinskiyniŋ Canlı' Tarihi – 1883 – 1914*, Akmescit, Tarpan, 1999

"Kazan'dan Mektup (İdareye)", *Tercüman* gazetesi, 19 Mart 1893, Sayı 10, s. 2

"Lâzım Cevap", *Tercüman*, 23 Dekabr [Aralık], 1905, Sayı 109, s. 2

Mirza Bala Mehmetzade, *Milli Azerbaycan Hareketi*, Yayına hazırlayan Ahmet Karaca, Azerbaycan Kültür Derneği Yayınları No: 40, Ankara, 1991

Mirza Feth Ali Ahundzade, *Komediler (Temsilât)***,** Neşre hazırlayan: Yavuz Akpınar, İzmir, 1988, II+322 s. (Ege Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Yayınları, No: 46)

Osman Akçokraklı, "Kart Yazıcılarımızdan İsmail Gasprinskiy (Matbuat künü münasebetile), *Eserler Toplamı*, Tertip etken ve neşirge azırlagan Prof. İsmail Kerim,

Tavriya Neşriyatı, Akmescit, 2006

Osman Akçokraklı, "Kırım Türk-Tatar Edebiyatının Kıskaca Tarihçesi", *Eserler Toplamı*, (s. 93-108). Tertip etken ve neşirge azırlagan Prof. İsmail Asanoglu Kerim, Akmescit, Tavriya neşriyatı, Kırımtatar Edebiyatı Bölügi, 2006

Osman Akçokraklı, *Eserler Toplamı*, Tertip etken ve neşirge azırlagan Prof. İsmail Asanoglu Kerim, Akmescit, Tavriya neşriyatı, Kırımtatar Edebiyatı Bölügi, 2006

"Ruslar da saçmaladı", *Tercüman*, 1 Fevral 1908, Sayı 8, s. 1-2

Safter Nagayev, *Taşkentte Millet Atasının Tamırları / Yanık Savuşa – Hatıra Yaşay – İsmail Beynin Türkistan Seferi*, Tavriya – Tavrida Neşriyatları, Simferopol, 2006

Şemseddin Sâmî, *Kâmûs-ı Türkî*, Dersaadet, 1317 [Çağrı Yay., 7. Baskı, İstanbul, 1996]

"Tarihçe-i Edebiyattan Bir Bet", *Tercüman*, 30 Oktyabr [Ekim] 1906, Sayı 123, s. 1-2

"Tebrik", *Tercüman*, 16 Mayıs 1908, Sayı 35, s. 4

Tercüman, 23 Dekabr [Aralık] 1905, Sayı 108, s. 1

"Tiflis'te Yeni Gazete", *Tercüman*, 19 Aprel [Nisan] 1903, Sayı 15, s. 2-3

"Üçüncü Şura-yı Ümmet (ilerisi)", *Tercüman*, 1 Sentyabr [Eylül] 1906, Sayı 98, s. 1-2

Yahya Bayburtlu, "Şeyhü'l-Muallimîn Bekir Efendi Emekdar", *Tercüman*, 14 Ağustos 1909 / 11 Şa'ban 1327, Sayı: 33, s. 1-2 Not: Yazının sonunda "Tercüman" imzalı haşiye var.

Yavuz Akpınar, "1905'e kadar Rusya Türklerinde Matbaalar ve Matbuat: 1", *Yeni Türk Edebiyatı*, Sayı 2, (Ekim, 2010)

Yavuz Akpınar, "İsmail Gaspıralı'nın Faaliyetlerine Genel Bir Bakış", *İsmail Gaspıralı, Seçilmiş Eserleri-2 Fikrî Eserleri*, Neşre hazırlayan Y. Akpınar, Ötüken Neşriyat, İstanbul, 2004

Yudakin A. P.,*Uralo-Altayskoe (Tyurko-Mongolskoe) Yazıkoznanie*, Entsiklopediya (Seriya: Veduşçie Yazıkovedı Mira, 4), Moskova, 2001, s. 220-223

Yunus Kandım, "Büyüklerini tanımayan millet küçülir", *Kureş Meydanını Ot Basmaz*, Kırımdevokuvpedneşir, Simferopol, 2002

Ziya Gökalp, "Lisanî Türkçülük", *Türkçülüğün Esasları*, 7. bs., İstanbul, Varlık Yayınları, 1968

Zühâl Yüksel, “Kırım Türkleri Edebiyatı”, *Türk Dünyası El Kitabı – Edebiyat (Türkiye Dışı Türk Edebiyatları)* - Dördüncü Cilt (Üçüncü Baskı), Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü Yay. 158, Seri: I, Sayı: A.31/II, Ankara, 1998, s. 259-301

SHOYIM BÖTAEV'İN "UTAŞAN YEDİNCİ SABAH" ROMANINDA DÖNEME VE İNSAN RUHUNUN SANATSAL YORUMLARI

Karomat MULLAHOCAEVA[1]

Kirish

Shoyim Bo‘taev o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega ijodkorlardan biri. U 1959 yili tavallud topgan.

Yozuvchining ko‘plab hikoyalari, qissa va romanlari o‘z kitobxonlarini topib ulgurgan. Uning "Sirli yulduzlar" deb nomlangan ilk qissasi 1984 yili chop etilgan. "Dunyoning sarhisobi bor" (1988), "Endi bari boshqacha" (1990), "Shamol o‘yini" (1995), "Kunbotardagi bog‘" (1997), "Hayot" (2000), "Ko‘chada qolgan ovoz" (2005) kabi qissa va hikoyalardan iborat to‘plamlari muxlislar tomonidan yaxshi kutib olindi.

Shoyim Bo‘taev "Qo‘rg‘onlangan oy" (1996), "Shox" (2007) kabi romanlar muallifi. 2021 yili Shoyim Bo‘taevning "Utashan. Yettinchi tong" romani chop etildi.

Adib boshqa yozuvchilardan o‘ziga xos uslubi bilan ajralib turadi. Uning asarlarida tug‘ilgan yurti, unda umrguzaronlik qilayotgan kishilarning hayot tarzi turli poetik unsurlar vositasida tasvirlanadi. Ayniqsa, muallifning xalq orasida keng tarqalgan jinlar bilan bog‘liq rivoyatlarni, folbin-u baxshilarning faoliyatiga oid voqealar va yana ko‘pchilik mistik voqelik deb talqin qilgan jarayonlarni tasvirlashi tadqiqotchilarda muallif asarlarini mifopoetika bilan bog‘liq holda tekshirishga rag‘bat uyg‘otadi. Bu borada adabiyotshunos Marhabo Qo‘chqorova yoki Shoyim Bo‘taev qissalarini tadqiq etgan Dilmurod Xoldorovning ilmiy kuzatishlariga e'tibor qaratish mumkin. Jumladan,

[1] Mullaxodjayeva Karomat Tashxodjayevna – filologaya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, kmullahodjayeva@gmail.com, orcid: 0000-0002-9556-3230.
Mullakhodjayeva Karomat Tashkhodjayevna – Candidate of Philological Sciences, Associate Professor, Alisher Navoi Tashkent State Uzbek Language and Literature University, kmullahodjayeva@gmail.com, 0000-0002-9556-3230.

“Shamol o‘yini” qissasini tahlil qilgan Dilmurod Xoldorovning fikricha, “Jahon nasrida ko‘p qo‘llanadigan mifologik uslub Shoyim Bo‘taev ijodida o‘zgacharoq mohiyat kasb etadi. Uning ta’kidlashicha, “Shamol o‘yini” qissasidagi: “Oybuloq taraf qorayib, changib yotardi. Osmonning jamiki xira ranglari, yovuz kuchlari o‘sha yoqqa yopirilganday edi. Teskari tomonda kun yorug‘, quyosh charaqlab yotardi. Bir zamon Oybuloqni butkul bosib olgan qora, xira bulutdan ilonday ingichka bir bo‘lak ajralib chiqdi-da, Tepa tomon yo‘l soldi. U yo‘lida uchragan narsani omon qo‘ymas, supurib osmonga havolanar, o‘ynatar, o‘zi bilan hamroh qilib olib ketaverar edi. Shu bois, Tepaga kela-kelguncha chang-to‘zon ustuni ham eniga, ham bo‘yiga shunchalik ulkanlashdiki, bu izdihom orasida nima bor-yo‘qligini na uzoqdan, na yaqindan bilib bo‘lardi” (Бўтаев, Ш., 1995, 58-б.) kabi tasvirlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri talqin qilish mumkin emas” (Холдоров Д., 2019, 229-б.). M. Qo‘chqorova, F. Masharipova yozuvchining “Shox” romaniga bag‘ishlangan kichik tadqiqot ishida shunday yozadilar: “Sh. Bo‘taev “Shox” romanida ikki yosh ishbilarmonlar Hotam va Qulmahmudning g‘alati, quloq eshitib, ko‘z ko‘rmagan sarguzashtlaridan hikoya etadi. Roman strukturasida kuchli sarkazm, parodiyaviy-hajviy ohang, parodiya-obraz, kinoya, niqobli kishilar obrazi, voqealar va qahramonlarni boshqa mamlakat, boshqa millat qiyofasiga ko‘chirib tasvirlash priyomi, shuningdek, neomif unsurlari ko‘rinish berib turibdi. Asarda ironik badiiy modus bilan neomifologik modus shu darajada qorishiq, professional qalam bilan qo‘llangan” (Қўчқорова, М.; Машарипова.Ф. 2023,131-б.). Chindan, ramziy ifodalardan keng foydalanish yo‘sini Shoyim Bo‘taevning deyarli barcha asarlarida uchraydi va bu adib uslubidagi o‘ziga xoslikni belgilashda muhim o‘rin tutadi. Ta’kidlash kerakki, muallif jahon adabiyotining yutuqlaridan juda yaxshi xabardor, ayni paytda uning asarlarida milliylik, aniqrog‘i, o‘zi yashagan yurt bilan bog‘liq turli rivoyatlarning qo‘llaniliganlig kuzatiladi. O‘sha yurt kishilarining hayot tarzidagi rasm-rusumlar, turli inonchlar bilan bog‘liq udumlar va boshqa hayotiy hodisalar muallif yoritmoqchi bo‘lgan masalalarni, asar zimniga singdirilgan g‘oyalarni ifodalashda muayyan bidiiy qimmatga egadir. Ayniqsa, davr va inson ruhiyatini badiiy talqin etishda ularning o‘rni muhim.

Mulohaza va natijalar

Yozuvchi Shoyim Bo‘taevning “Utashan. Yettinchi tong” deb nomlangan yangi romanini o‘zbek adabiyotida muhim adabiy hodisa sifatida e’tirof etish mumkin. Nasrda muayyan tajribaga ega muallif ushbu romanda inson zotining bu dunyodagi o‘rnini, uning azaliy qismatini bitta davr – bir ijtimoiy tuzum va undagi bir inson taqdiriga bog‘lab ochib beradi. Bu taqdir egasining hayoti esa u yashayotgan qishloq, undagi odamlar, ular birlashgan jamiyat – ijtimoiy tuzum va bu tuzumga xos masalalarni o‘zida mujassam etgan voqealarga bog‘lab tasvirlanadi. Asardagi voqelar bir necha liniyalarda tasvirlansa-da, uning qahramonlarini davr muammolari bir-biriga chambarchas bog‘lab tashlagan. Aniqrog‘i, ularning barchasi bir tuzumning, bir mafkuraning qurbonlari. Lekin ularning hammasi ham bu qurbonlikni oxirigacha tushunib yetmaydi.

Katta va ko‘plab ma’no qatlamlariga ega bo‘lgan ushbu romandagi badiiy voqelikning muayyan qismi va uning qahramonlarini ancha ilgari – 1995 yili yozilgan “Shamol o‘yini” qissasida uchratamiz. Shu o‘rinda “Nima uchun Shoyim Bo‘taev bu mavzuga qayta murojaat qilmoqda? “Shamol o‘yini”da qissa talablari doirasida ifoda topgan badiiy voqelikni yangi – romanik tafakkur ko‘lamida badiiy talqin etishga nima sabab bo‘ldi? – degan savollar tug‘iladi. Va romanni o‘qish asnosida muallifning qissada aytolmagan fikrlarini, muayyan g‘oyalarni keng badiiy talqin etishga intilgani va bunga ko‘p jihatdan erishganini kuzatish mumkin. Qissadan farqli ravishda, romanda voqealarning bir qancha liniyalari vujudga kelgani, obrazlar galereyasi shakllangani, tasvir yo‘llarining mukammallashgani kuzatiladi.

Asar Ikkinchi jahon urushi yillari o‘smirlik chog‘i pochtachilik qilib, urushdan kelgan xat-xabarlarni egalariga eltish asnosida kechirgan mashaqqat-u iztiroblarini bir umr unutolmay yashab kelayotgan inson – Yunus otaning ko‘nglida va hayotida kechgan voqealarni murakkab va sershovqin bir davr fojialari bilan uyg‘unlikda tasvirlashga bag‘ishlangan.

Garchi Utashandagi hayot, undagi odamlar, taqdirlar goh sokin, goh sershovqin voqealarga bog‘lab tasvirlansa-da, lekin bu hayot ichkarisida mujassamlashgan, inson uchun azaliy qismat bo‘lgan yolg‘izlikni his qilaverasiz. Bu Yunus otaning ruhiyati bilan bog‘liq. Uning yonida

yashab kelayotgan ko‘p narsada sir boy bermaydigan Oytosh buvining iztiroblari – bedavo darddan o‘lib ketgan yolg‘izgina qizi bilan xayoliy suhbatlari-yu, bir necha yillar ularning ko‘nglini yoritib, katta bo‘lganida otasi bilan “hayotni o‘rganishga” jo‘nab ketgan Bo‘rivoyning sog‘inchlari bilan bog‘liq. Yana, siyosatchi-yu, rahbarlarning (Xudo emas, balki) zamon va yana allaqaysi dohiy-u turli rahbarlar muhrlab tashlagan qo‘rquv bilan bog‘liqdek. Lekin o‘sha rahbarlarning o‘zidagi, ichkarisidagi qo‘rquv esa insonning juda g‘ariblashib qolganini ko‘rsataveradi. Bu qo‘rquv – pastdagilarning yuqoridagilardan, yuqoridagilarning o‘zidan qo‘rqishi, asta-sekin barchaning bir-biridan qo‘rqishi, keyinchalik, qalloblar va shaytonsifatlardan qo‘rqa boshlashi va ommaviy ravishda allaqanday jinlardan qo‘rqishga va ular bilan hammaslak bo‘lishga o‘tishi, aslida, ularning Xudodan qo‘rqishni bilmasliklari, demakki, imon masalasida haminqadar bo‘lib qolganliklari bilan bog‘liq. Qishloq ahlining, jamiyatning bunday ahvolga tushib qolishi, aslida, ijtimoiy tuzumga, uning boshqaruviga borib taqalishi asardagi voqealar tadrijida ko‘rinadi.

Utashan qishlog‘i. Unda umrguzaronlik qilayotgan Yunus ota va Oytosh buvining kundalik hayoti atrofida kechadi voqealar. Ular qaerda sodir bo‘lmasin, bu hovli egalariga ham yetib keladi. Mabodo, voqealar ulardan olisda kechayotgan bo‘lsa, muallif uni ularga parallel yoki qarama-qarshi qo‘yib tasvirlayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Chunki qishloqdagi har bir odam bir-birini taniydi, mabodo nimadir ro‘y bersa, uning xabari xabarchidan oldin yetib keladi. Bu qishloqlarga xos holat. Muallif esa bundan turli usullarda foydalanadi va ta’sirli badiiy vaziyatlarning vujudga kelishiga imkon topadi.

Asar haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun uning obrazlar galereyasiga e’tibor beramiz. Romanga xos miqyosdagi bu obrazlar ichidan ularning tipik namunalarini ajratib olamiz va yozuvchi o‘z oldiga qo‘ygan inson va jamiyat degradatsiyasiga sabab bo‘lgan omillarni izlaymiz.

Yunus ota – urush yillari pochtachilikni boshlagan va umri davomida shu kasbini davom ettirayotgan, aniqrog‘i, kasbiga sodiq. Uning uyi, molxonasi ko‘p yillardan beri egasini topmagan xat-xabarlar-u, gazet-jurnallar bilan to‘lib ketgan. Yunus ota ularni tashlab yuborishdan qo‘rqadi. Shu bois, joy yo‘qligidan mol-hol ham qilolmaydi

– bitta sigir ham boqolmaydi. Bu inson hamisha o‘z-o‘zini taftish qiladi. Asarda boshqalar bilan bo‘lgan ta’sirchan nutqlarini muallif ko‘pincha ichkarida – uning ko‘nglida davom ettiradi.

Muallif o‘zi tasvirlamoqchi bo‘lgan hayotni, aniqrog‘i, bir davr – muayyan ijtimoiy tuzumga oid voqelikni juda keng – azaldan mahshargacha yoki insonning yaralganidan tangrining huzurigacha bo‘lgan ulkan zamon ko‘lamida, inson-u jinlarga berilgan makon voqealari doirasida idrok etishga undaydi. Yunus otaning qulog‘iga bot-bot urilib turadigan “Subh yaqin emasmi?” oyati karimasi yoki “Lahzalik gunohning mangu kafforati” kabi jumla asarning butun ruhiyatini oldindan belgilab bergandek. Asarda bu kabi takrorlanib turadigan jumlalar, ifodalar talaygina. Bir voqea va u bilan bog‘liq kechinmaning goh muallif tilidan, goh biror qahramon tilidan romanning turli o‘rinlarida ichki monologdek, ehtimol, ichkarida kechayotgan iztirobdek takrorlanishini kuzatish mumkin. Bu usul ushbu hodisaning kimningdir ong-u shuurini qamrab olganini yoki makondan-makonga ko‘chib ko‘pchilikka azob berayotganini yoki bu davrga xos bo‘lgan hodisa ekanligini anglashga undayotgandek bo‘ladi. Ayniqsa, “Subh yaqin emasmi?” oyati karimasi yoki “Lahzalik gunohning mangu kafforati” kabi jumla asarda tasvirga olingan voqealarning katta qismi, ehtimol barchasi va undagi odamlarning barchasi gunohlarga to‘lib-toshgani, uning javobini berish uchun (qaysilaridir) bilib-bilmay iztirob chekayotganiga ishora.

Yunus otadan keyingi o‘rinda turishi mumkin bo‘lgan obrazlar haqida so‘z ketganda, Odil quduqchi, Sulton tandirchi, To‘ychi podachi, Yo‘ldosh yamoqchi, Zokir aravakash, Ro‘zvoy molboqar va boshqalarni aytish mumkin. Ular shu qishloqda yashab kelayotgan odamlar. Ushalmagan orzulari bilan yashayotgan odamlar. Ulardagi qo‘rquv yana ham kuchliroq. Yetishmovchiliklar, ichkaridan noroziligini anglab yetib-yetmagan bu toifaning ahvoliga ham boshqaruvdagi e’tiborsizlik, boshboshdoqlik, totalitar tuzum sababdek. Odil quduq nega quduqdan tinchlik izlaydi yoki qishloq jarchisining o‘z ishini o‘n chandon oshirib bajarish istagining sababi nimada?

Undan keyingi – pastroqda joylashtirish mumkin bo‘lgan obrazlar - – qishloqning mas’ul rahbari – xo‘jalik raisi G‘ulom Sharif, pochta mudiri, kutubxonachi va shu kabilar. Bular – ichkarida qallobligi va

ma’naviy tubanligi ochilib qolishidan qo‘rqib yashaydigan kimsalar.

Undan ham pastroqda Berkinboy – odam qiyofasidagi shayton. Har qanday vaziyatga moslashib ketadigan, o‘zgalarga ta’sirini o‘tkazishga ustasi farang va bunga har doim muvaffaq bo‘lgan, aslida esa, o‘z qilmishlari fosh bo‘lishidan qo‘rqib yashaydigan pastkash, nodon.

Yoshiuzoq bu asarda uning jinlar bilan hamtovoqligi-yu, aslida, o‘zi ham jinlardan bo‘lsa kerak, degan tasavvurni uyg‘otadigan begona. Yoshiuzoq hech kimdan va hech narsadan qo‘rqmaydi, hech narsadan hazar qilmaydi. Berkinboy bilan u juda yaqin va bu ikkisi kitobxonga jinlar haqidagi ramziy qatlamni anglab olishida ko‘mak beradi.

Va bulardan ham pastroq darajada odam qiyofasiga kirib, ularni yo‘ldan uradigan jinlar obrazi turadi.

Mana shu obrazlar vositasida muallif jamiyat tanazzulini ko‘rsatib, bu tanazzulning ildizlarini topishga intiladi va oltmish yetti yoshida vafot etgan jinning go‘zal qiyofada namoyon bo‘lgan qizlari bilan bog‘liq mistikaga yaqin voqealarni hikoya qiladiki, bu ramz ostida o‘z hukmronligini o‘tkazgan totalitar sho‘ro tuzumi va uning hukumatiga ishora qilayotgandek bo‘ladi. Albatta, ko‘pchiligimiz bu tuzumning afzal taraflari ham borligini, taraqqiyotimizga yordam berganligi bilan bog‘liq jihatlarini e’tirof etishimiz mumkin. Ammo ijodkor ana shu davrga ichkaridan nazar tashlaydi – millatni, insonni imonidan, ma’naviyatidan ayirishga, ruhan mute’ va qul qilishga mo‘ljallangan siyosatni, muallifning o‘zi qo‘llaydigan bir so‘zni qo‘shib ifodalasak, bebiliski ko‘rsatib bera oladi.

Asarda jinlarni uchratib qolgan odamlarning ahvoli, ularning ichiga kirib olgan jinlarni haydash, ayollarning yig‘ilishlari-yu, jin bilan bog‘liq bunday voqealarga guvoh bo‘lishlari xalqimiz orasida saqlanib qolgan urf-odatlar, udumlar asosida (O‘g‘il(oy)) baxshining “kuf-suf”lari orqali ifoda topgan. Bundan maqsad esa, aslida, imoni susayib borayotganiga shubha uyg‘otgan jamiyat va uning kishilari haqida yozish, jamiyatni tanazzulga uchratishi mumkin bo‘lgan illatlarni ko‘rsatib berish edi. Unutilib borayotgan udumlarni tiklashga urinayotgan kampirlar, faqat - Utashanga xos bo‘lgan – momouloqning urf bo‘lishi va uning rasm-rusumlari asarni boyitgan.

Yana, Iskandar haqidagi rivoyat bilan bog‘liq voqealarni qalamga olgan yozuvchi qishloqda kechayotgan kishilar hayotidagi mahkumlik

shaharga ham begona emasligiga va butun jamiyat kishilarining bir-biridan u qadar farq qilmaydigan umrguzaronligiga ishora qiladi.

Romanda voqealar kechayotgan Utashan qishlog‘ining o‘tgan asr (urushdan keyingi bir necha o‘n yilliklar) ikkinchi yarmidagi hayoti bilan chambarchas bog‘liq. Bunday hayot tarzining asosiy qismi boshqa qishloqlarga ham xos. Shu ma’noda Utashan umumlashtirib berilgan bir makon, aniqrog‘i, ramziy timsol.

Shu bir qishloq hayoti tasviri orqali butun mamlakatda kechayotgan voqealar haqida ma’lumotlar berilgan.

Asarni o‘qib tugatgandan keyin shunday savol tug‘iladi. Xo‘sh, oltmish yetti yil davomida jinlarga qul bo‘lib yashagan, uning yo‘rig‘idan chiqolmagan kishilar bugun qanday yashayapti?. Bugun nima bo‘layapti Utashanda va Utashanlarda? – degan savol tug‘iladi. Shu savol tug‘ildimi, demak asarning qimmati bor. Muallif o‘z zimmasiga olgan vazifani bajargan.

O‘ylab-o‘ylab, shunday xulosaga kelish mumkin bo‘ldi: Inson zoti qaysi zamonda, qanday makonda yashamasin, unda imon bo‘lmasa, u har doim jin-u shaytonlarga hamroh. Lekin asarda qalamga olingan oltmish yetti yil imon bilan yashashni unuttira boshlagan mash’um bir zamon edi, go‘yo. Insonning insonligi ana shu shaytoniy sifat – illatlarini yengib yashashashida.

Asarda turli darajadagi o‘xshatishlar, sifatlash va tavsiflarga ham duch kelamiz. Muallif ularni ba’zan o‘z tilidan, ba’zan qahramon tilidan, ba’zan qorishiq holda ifodalaydi. Bunday qiyoslar qahramonlar bilan, ularning dunyoqarashi-yu, zamonning kasofatliklari bilan bog‘liqligi ham anglashilib boradi.

Asar so‘ngrog‘ida Yoshuzoqning o‘ldirilishi, go‘zal qiz qiyofasidagi jinning o‘ziga kelolmay yotishi... Bular endi qaysidir ma’noda kitobxon uchun yaxshilikdan dalolat edi.

Asar oxirlab borar ekan, voqealar yana Yunus otaga, uning hovlisiga ko‘chadi. U yana “lahzalik gunohning mangu kafforati” haqidagi o‘ylari ohangiga tushgan edi. Bu jumlaning zamiriga azaliylik va abadiylik haqidagi o‘ylar, Odam Ato va Momo Havoning o‘zlari ham, ular kabi avlodlari ham lahzalik gunoh uchun mangu kafforat to‘lab darbadar – bu dunyoda g‘arib yashayotgani haqidagi nadomat singib ketgan edi. “Subh yaqin emasmi?” deya qulog‘i ostidan o‘tgan oyati

karima esa uni yana hushyor torttirib, qismat izmida yashashga undardi.

Asar ko‘pma’noli. U, ayniqsa, yoshlardan muayyan tayyorgarlik bilan o‘qishni talab etsa, ajab emas. Chunki ijtimoiy-siyosiy voqealar va ayni paytda insonga Olloh tomonidan berilgan umr haqidagi qarashlarning matn zimnida diniy talqinlarda berilishi, tasvirda inson ruhiy olamining labirintlariga olib kirib ketilishi ba’zan noto‘g‘ri tasavvur va talqinlarga yoki tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu bois bu kitobni tafakkur qilib o‘qish zarur.

Asarda muallif qo‘llagan ifoda usuli va obrazlar.

Muallif o‘z badiiy haqiqatiga asar voqealarini muayyan qahramonlar hayoti va ruhiy olamini uyg‘unlikda tasvirlash orqali erishadi. Ularning barchasini tutashtiruvchi nuqta, bu – zamon, ijtimoiy tuzum. Bu tuzum, bu zamon esa bir qishloq – Utashanda kechayotgan voqelarda aks etadi.

Yozuvchining mahorati – shu bir qishloq hayoti va uning ko‘rinmas iplar bilan markazga bog‘langan hayotini tasvirlash orqali bir tuzumning totalitar mohiyatini ochib beradi. Albatta, muallifning butun e’tiborini shu masalaga qaratgani tanlangan voqealar va tasvirlanayotgan qahramonlar qiyofasida yaqqol seziladi. Yozuvchi sho‘rolar mafkurasining imon-e’tiqodni susaytiradigan omillariga, uning ma’naviyatni tubanlashtirishga xizmat qiladigan jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratadi.

Asardagi eng muhim qahramonlardan biri – Yunus ota. U o‘zi kabi insonlarni mujassamlashtirgan siymo. Yunus otani vijdoni uyg‘oq inson deb ta’riflash to‘g‘ri bo‘lsa kerak. O‘z imon-e’tiqodini tilida aytmaydigan, ko‘rsatishga urinmaydigan inson bo‘lsa-da, uning harakatlari, tutumi, har bir ishi bu xususiyatini namoyon qilib turadi.

Oytosh buvi ikkisining boshiga ne savdolar tushmadi bu dunyoda. Bir kam dunyoda ular bir-birini ayab yashaydi. Yolg‘iz qizlarining vafotidan o‘ksigan ko‘ngillarini bir-biriga ko‘p ham ochavermaydi, uzoqlarga ish izlab ketgan nabiralari – Bo‘rivoyni sog‘inishlarini pinhon tutishadi. Jumladan: *“Eshik ochilib, oshxonada dimlangandek tuyulgan nur tuyqus ichkari yopirilganida esa taxmon-u tokchalar, devor ostidan shiftgacha ham taxlamlar-u bog‘lamlar uyumi uyulib yotgani ayon bo‘ldi. Ostonada nur og‘ushida bir qo‘lida quroq dasturxon, ikkinchisida tunuka choynak ko‘targan momo paydo bo‘ldi. Momo havo kabi bir*

momo. U shu'lalanib dolg'alanayotgan nur aro g'ivirsingannamo ohista ichkarilarkan, Odam Atoni tiriklik oviga undayotgandek ohista sas berdi:

– Mirobga uchrashaman devdingiz" (Бўтаев, Ш. ,2021.8-с.).

Yunus otaning ruhiy olami tasviri, uning xotiralari, ichki monologga asoslangan o'z-o'zi bilan so'zlashishlari asar salmog'ini oshiradi. Jumladan: *"... Yunus ota dasturxonga tduo o'qib, o'rnidan qo'zg'aldi. Uydan chiqarkan, hamma yoqni bosib ketgan gazeta-jurnallar taxlamlariga ixtiyorsiz ravishda nazar tashlab qo'ydi. Yelkasidagi jigarrang pochtachi sumkasini bazo'r eplab ko'targan bolakay. Iz tushmagan qor. Gazetalar. Nimiqib ketgandek tobora yelka ezadi. Xatlar. Ochiq nigohini tashqariga tikkan ko'cha eshiklari. Ichkaridan eshitilgan hovliqma qadam tovushlari. Umidvorlik – o'zing kelmasang ham xabaring keldimi, bolam? Anglashilmovchilik – hozi-ir, o'zingizmi yo xabaringizmi? Nega hadeb mendan so'rayverasizlar – Yunusvoy. Tinchlikmi? Men ularning yo'qolganlik xabarlarini tashiyman"* (Бўтаев, Ш., 2021.10-с.). Urush yillari pochtachilik qilgan Yunus ota (o'sha mahallr u juda yosh edi) xotiralarini unutolmaydi. Odamlarning quvonchiga sherik bo'lgan damlari, judolik dog'iga chidolmay uni qarg'aganlarni – hamma-hammasini yaxshi tushunardi. Retrospektiv yo'lda berilgan bunday tasvir qahramonning bugunini o'tmish bilan bog'laydi. O'sha voqealar ta'siri va albatta, Yunus otaning halolligi tufayli necha yillardan buyon egasini topolmagan xat-xabarlar, gazeta-jurnallar uning uyini, hatto molxonasini egallab yotibdi. Yunus ota ularning egalari kelib qolishidan umidvor. Yunus otaning bu o'ylari Oytosh buviga ham ko'chgan. *"U* (Oytosh buvi - *K.M.*) *xayolini chalg'itish uchun tokchalardagi gazeta-jurnallarga faromush tikildi. Ularning qanchadan-qanchasi necha yillardan beri taxlanib yotibdi. Turmush qurmaslaridan burun pochtachiligini boshlagan xo'jayini o'z ishiga pishiq-puxta, egaligini tarqatib bergan, ortiqchasi taxlanib qolavergan. Ularni kimga berishni bilishmaydi. Adashib kelib qolgan xatlar ham bor. Manzili Utashan deb yozilgani bilan falonchi-pistonchi degan odamni chiroq yoqib qidirsayam bu yoqlardan topib bo'lmaydi..."* (Бўтаев, Ш., 2021,18-с.). Oytosh buvining xayollariga muallifning o'ylari ulanib ketadi. Umuman, asarda qahramon xayolidan kechayotgan o'ylarning muallif o'ylari bilan davom ettirilishi va rivojlantirilishi asar ichki quvvatini ta'minlaydigan muhim omillardan biri sifatida ko'rinadi.

“... yarim asrdan ortiq pochtachilik qilayotgan Yunus ota xonadoni qandaydir taskin-tasalli maskaniday bo‘lib qolgan. Erkaklar Yunus ota bilan, ayollar Oytosh buvi bilan kundalik oddiy gaplarni gaplashib taskin olganday bo‘lishadi...” (Бўтаев, Ш., 2021,19-с.).

Qishloq hayoti kaloritini berishda, ayniqsa, u yerda yashaydigan, umrini qaro mehnat bilan o‘tkazadigan va shu mehnatiga yarasha laqablar orttirgan kishilarning faoliyati, hayot tarzi, orzu-armonlari muhim o‘rin tutadi. Ular, yuqorida ham ta’kidlagan edik, – Odil quduqchi, Sulton tandirchi, To‘ychi podachi, Yo‘ldosh yamoqchi, Zokir aravakash, Ro‘zvoy molboqar... Egasining ko‘ngliga ham botmaydigan bu laqablar qishloq va qishloq ahli hayotining bir bo‘lagi. Muallif ular haqida so‘z ketganda, nafaqat bu laqabni orttirishigs yordam bergan kasb-kori haqida so‘zlaydi, balki bu qahramonning tashqi qiyofasini chizib, bu qiyofani uning ruhiy olami bilan ham uyg‘unlashtirib ham yuboradi. *“Utashan tepalikning qir uchida joylashgani uchun hammaning hovlisida quduq bor. Foydalanishga yaroqsiz yerda birov quduq qazisa, shu quduqning atrofidagi yerlar ham uniki bo‘ladi. Yuzi kattakon yumaloq boshidan iyagi tomon ingichkalashib borgani, chinoq quloqlari-yu qisiq ko‘zlari tufayli beixtiyor sichqonni eslatib yuboradigan qizilyuz, ko‘kko‘z Odil quduqchi o‘ziyam sichqonday sinchi, yer ostida bo‘layotgan hodisalarni ham qulog‘ini ding qilib payqaydigan alomat odam. U qaysi hovlida quduq qazimoqchi bo‘lsa, avval hovli sathini aylanib o‘rganib chiqadi, ilgari quduq bormidi-yo‘qmidi deb so‘raydi, bo‘lgan bo‘lsa joyi qaerdaydi, aniq ko‘rsatinglar deb talab qiladi, joyini tusmollab ko‘rsatishsa, adashmayapsizmi deb gangitib qo‘yadi; mabodo quduq bo‘lmagan bo‘lsa, nega avvallari quduq qazib olishmagan deb kift qisadi, oxir-oqibat o‘z ishiga kirishadi...”* (Бўтаев, Ш., 2021, 20–21-с.). Odil quduqchi obrazini muallif uning oilaviy majorolardan charchagan paytidagi qiliqlaridan tashvishga tushgan Oytosh buvining xayoli va ichki monologi yordamida ochadi. *“... Issiqni issiq sovuqni sovuq demay o‘z ishini qilt etmay bajarib ketaveradigan shunday quduqchining qariganda ko‘rsatadigan xurmacha qiliqlari odamni hayron qoldiradi. O‘qtin-o‘qtin xayoli ketib hovlisidagi suvi qochgan quduqqa tushib oladi. O‘sha quduq ichida turib o‘zicha nimabalolarni valdiraydi. Ustimdan tuproq to‘kib tiriklayin ko‘mib yuboraveringlar deb, o‘zini narigi dunyoda sayr etib yurganidan bahs ochmoqchi bo‘ladi. Bunda albatta, uning xotini, Oytoshbuvining singlisi*

Oydinning ham aybi yo‘q emas... Hech bo‘lmaganda, shunaqa paytlarda o‘sha quduq o‘lgurning qopqog‘ini ocholmaydigan qilib mahkamlab tashlasa bo‘lmaydimi? Shuni aytsang, qo‘l siltaydi....” (Бўтаев, Ш., 2021,21-c.). Bu oilaviy majorolar, aslida, jamiyat hayotidagi muammolar bilan qo‘shilib shaxs degradatsiyasiga olib keladi. Voqealarning qahramonlar tafakkuri prizmasidan o‘tkazib bayon qilinishi, jumladan, Yunus ota, Oytosh buvi va boshqa hayotiy tajribaga ega bo‘lgan insonlar fikrining muallif ijodiy niyati va unga bog‘liq holda tili bilan uyg‘unlashishi kitobxonni qahramonlar olamiga kirib borishida yordam beradi.

Asarga Berkinboyning kirib kelishi asta-sekin sir-sinoatlarning boshlanayotganiga ishora qilardi. “*...xayollar og‘ushida yonboshlab yotgan Yunus ota bir mahal kimningdir sharpasini ilg‘aganday bo‘ldi.*

U ilkis bosh ko‘tarib qaradi

– qarshisida birov borday edi – osmondan tushganmi, yerdan chiqqanmi, noma’lum – kimdir zulmatdan yo‘g‘rilganday uning qarshisida tik turardi.

Podadan qaytmagan echki-pechkisini izlab chiqqandir-da, degan fikr uning xayolidan chaqmoqday o‘tdi-yu, shu zahotiyoq qaylargadir mahv bo‘ldi. Qorong‘ida nigoh ilg‘agani haqida bir nima deyish qiyin, bunday chog‘da ko‘zni yumib qilingan fikr aniq chiqadi.

Uning yuragi negadir shig‘ etdi. O‘rnidan turib, yo‘taldi. Haligi sharpaday ilg‘angan kishi, kishiday tuyulgan sharpa yo‘tal tovushini eshitib, u yoq-bu yoqqa alanglagandek bo‘ldi va uni ko‘rdi. Yunus kabi bo‘lib turgan Yunus otani ko‘rdi, eshitilar-eshitilmas ming‘irlab salom berdi, keyin ko‘rishish uchun qo‘l uzatdi. Yunus ota uning qo‘llarini olarkan, lattaday bo‘shligini his eti, yuragi allaqanday ortga tortib ketganday bo‘ldi. Kishi qo‘lini shunday tezlikda tortib oldiki, Yunus ota uning chinchilog‘i yo‘qligini hatto payqamay qoldi. U es-hushini yig‘ishtirib, mehmonning yuziga sin soldi, uning qaerdan kelayotgani, qaerga borayotganini aniqlab olmoqchi bo‘ldi, yelkalari gavdasiga nisbatan bir oz ensizrog‘-u egik ekanligidan bo‘lak biror tuzukroq ifodani ilg‘ay olmadi.” (Бўтаев, Ш., 2021, 40-41-c.).

Birdan kitobxonda ham Yunus ota kabi shubha uyg‘otgan Berkinboy kim? Bu mehmon qo‘llarining lattaday bo‘shligini his etgan Yunus otaning yuragi nega allaqanday ortga tortib ketganday bo‘ldi?

Ko‘ngilni buzadigan darajadagi yumshoq qo‘llari bo‘lgan bu Berkinboyning qaerdan, qanday qilib kelgani haqidagi gaplariga Yunus ota va rais ishongandek edi. Lekin kitobxon uning gaplariga ishonolmaydi. Uning har doim qo‘nimsiz (oilasi bo‘lsa ham), ehtimol, nohalol yo‘l bilan kun ko‘rib kelishini tasavvur qila boshlaydi. Chindan Utashanga kelib, hammaning ko‘ziga binoyidek ko‘ringan bu odam, aslida, eng razil va iflos ishlarning boshida turishi asar davomida ochilib boraveradi. Oradan oz vaqt o‘tmasdan do‘sti Yoshuzoqni olib kelgan Berkinboy jin-u odamlar o‘rtasida vositachi edi, go‘yo. Odam qiyofasida ko‘ringan Yoshuzoq, aslida, jinlardan edi.

Yunus otaning maslahati bilan xo‘jalik raisi G‘ulom Sharifga uchrashib yordam so‘ragan Berkinboy tez orada uy-joylik ham, ishlik ham bo‘lib oldi. Muallif Berkinboyni bu yerda hali hech kim tanimasligini ham chiroyli ishoralarda berib o‘tadi. *“Yunus ota uyga qaytarkan, u* (Berkinboy – *K.M.*) *raisning avvaldan tanishimikan, deb yo‘l-yo‘lakay o‘ylab borardi*.

Yunus pochtachi uning (Berkinboyning - *K.M.*) *kelishini avvaldan bilganmikan, degan fikrni hamon kallasidan chiqarolmasdi* (rais – *K.M.*)....”. Berkinboy haqida qishloqdagilar ham uning kimni tanishi ekanligini o‘ylashardi.

Berkinboy rais bilan uchrashganda, boshqa bir voqea ham sodir bo‘ldiki, bu bilan Berkinboy haqidagi mavhum fikrlarga oydinlik kira boshlagan edi. Muallif asardagi ushbu kichik voqea – detal orqali Berkinboy bilan tanishtira boshlagan edi, go‘yo. Rais *“hamisha nimchasining o‘ng tomonidagi ko‘krak cho‘ntagiga solib yuradigan, tugmachasini bossa qopqog‘i “shirq” etib ochiladigan kumush zanjirli soatini yo‘qotib qo‘yganini kechki chog‘ payqab qolgan G‘ulom Sharif uni topolmay, qaerga qo‘yganini eslolmay xunoblanar”*di (Бўтаев, Ш., 2021,142-c). *“...Kallasiga mushtini tirab o‘tirgancha uzoq o‘yladi, qayerga borganlarini, kimlar bilan uchrashganilarini bir-bir tasavvur etishga urindi, ammo Berkinboyni kuzatayotganida kayfiyati o‘z-o‘zidan ko‘tarilib borayotganiga o‘zi ham hayron qolib, ...mehmonni hovligacha kuzatib chiqishga chog‘langanini, Berkinboy deganlariyam tasqaradek ko‘rinsa-da, mulozimatni o‘rniga qo‘yib, uni oldinga o‘tkazib, o‘zi keyinda yurganini, ostonadan o‘tishayotganda, chaqqonlik bilan unga yetib olib, yelkasi osha cho‘zilib, naq qulog‘i ostiga birov eshitib*

qolishidan qo‘rqqandek minnatdorchilik bildirganini; o‘zi o‘girilib qaraganida Berkinboyning ko‘zlari chaqnab, rangi oqarinqiraganini, isitma chiqarayotgan kabi qalt-qalt titraganini ko‘rganini xayoliga ham keltirmadi” (Бўтаев, Ш., 2021,142-с.). G‘ulom Sharifning xarakterini mana shunday voqealar tafsiloti davomida ochib borarkan, uning harakatlari, kalta o‘ylari uning kimligini ko‘rsatib berishini yanada kuchaytirib izohlaydi: *“Qo‘li kallasiga behuda musht bo‘lib tiralmay, mana shu holatni tasavvur etsin deb, tiralganini, musht bo‘lib tugilgan qo‘lga o‘zini behuda tiraltirmagan kallasiyam, ahmoqqa kaltak, ahmoqqa kaltak deganicha nadomat chekayotganini o‘ylamadi”* (Бўтаев, Ш., 2021,142-с.). Uning bu qadar ahmoqligini kalta o‘ylari-yu, unga mos xatti-haraktlari bilan izohlayotgan muallif, endi uni yana bir xususiyat bilan “alqaydi”. G‘ulom Sharif o‘lgudek qo‘rqoq edi. Undagi bu qo‘rquv G‘ulom Sharif kabi “siyosatni yaxshi bilgan” rahbarlarning barchasiga xos ediki, birgina G‘ulom Sharifning o‘zi orqali jamiyatning ob-havosi bilan tanishtirib qo‘yadi adib o‘z kitobxonini. Yo‘qolgan soat bilan bog‘liq o‘ylar G‘ulom Sharifning ko‘nglida, ong-u shuurida shunday davom etaverardi: *“Kimsan – tanigan bilganlar uchun ham haybatidan ot hurkadigan rais odam bitta soat uchun qayg‘urmasa ham bo‘lardi-yu, soatning ort tomonida allaqachon dorilbaqoga rihlat qilib ketgan bo‘lsa-da hamma hali tirik, deb ishonib yurgan dohiy kallasining yonlama qabariq tasviri tushirilgani uni bezovta qilayotgan edi. Birovning nigohi soatga emas, oyoq ostida allaqachon dorilbaqoga rihlat etib ketgan bo‘lsa-da hamma hali tirik deb deb ishonib yurgan dohiy kallasining yonlama qabariq tasviriga tushib qolsa; ana innankeyin o‘sha nigoh egasi buni tegishli joylarga yetkazsa, tegishli joylar darhol ishga kirishib....”* (Бўтаев, Ш., 2021,143-с.). G‘ulom Sharifning miyasida g‘ujg‘on urib, uni xavotirga solgan, qo‘rquv zanjiriga bog‘lagan va asar bo‘ylab yoyilib ketgan soat voqeasi jamiyatning ijtimoiy siyosiy hayoti, undagi rahbarlar ma’naviyati, ruhoniy olami haqida muayyan tasavvurlarni vujudga keltirishi bilan e’tiborlidir.

G‘ulom Sharif yolg‘iz qolganda uni mahv etadigan qo‘rquv uni ko‘proq berkinboylar davrasiga tortardi. U ba’zan unga, ularga tizginini ham berib qo‘yaverardi. G‘ulom Sharif kabilar jamiyatga – undagi halol vijdonli odamlarga emas, balki haqiqatdan berkinib yashaydigan Berkinboy va uning hamtovoqlariga g‘ulom – qul edi...

Oz vaqt o‘tmay berkinboylarning yana bir nusxasi paydo bo‘ldi. Bu – Berkinboyning do‘sti, hamtovog‘i Yoshiuzoq edi. Yoshiuzoq kelishi bilan qishloqdagi turli g‘ayrioddiy – aql bovar qilishi qiyin bo‘lgan voqealar yanada kuchaydi. Go‘yo bu yerda kechayotgan g‘ayrioddiy voqea-hodisalar Yoshiuzoq kelishi bilan yana ham tezlashib ketgan edi. Yoshiuzoq bilan bog‘liq ko‘p ishlar go‘yo bu qishloqqa ko‘rinmas iplar bilan bog‘langan edi.

Shu o‘rinda muallifning asarda qo‘llagan muhim ifoda yo‘siniga e’tibor qaratar ekansiz, nega aynan u tasvirlayotgan davrda (buni hayotda sho‘rolar davri deb aytish mumkin) bu kabi bid’at va xurofotga berilish kuchaydi? Asardagi folbinlar, baxshilar va shu kabi yana allakimlarning “faoliyati” boshqa hududlarimizda ham bor va ular boshqa mualliflarning asarlarida ham uchraydi. Ammo ushbu roman muallifi butunboshli asarni ana shu uslubga bo‘ysundirgandek. Qahramonlarning ichki monologi, voqelikning kechinmalarda davom etishi va bunda ko‘proq retrospektiv ifoda usulidan foydalanish hamda ularning g‘ayrioddiy voqealarga bog‘lanib ketishi kabilar ro‘y berishi qiyin hodisalarga kishini ishontirish qobiliyati, aslida, haqiqiy voqelikni sirli, sehrli o‘zanda tasvirlayotganidir. Va shu yo‘lni topganidir. Bunday asarlar dunyo romanchiligida mavjud. Siyosiy tuzumni, uning ichida mute’ bo‘lib yashayotgan odamlar hayotini g‘ayrioddiy voqelar talqinida berish o‘sha tuzum va uning odamlari haqidagi tasavvurlarni yorqinroq tasvirlashga ko‘maklashishi bilan birga, ayni paytda, asarning jozibadorligiga hissa qo‘shadi.

Asarda bir necha bor takrorlangan “Subh yaqin emasmi?” oyati karimasi yoki “Lahzalik gunohning mangu kafforati” jumlasi har bir inson zimmasidagi vazifalarni eslatib turayotgandek, asarda kitobxonning qahramonlarni baholashi uchun bir ko‘rsatkichdek xizmat qilladi. Ammo bu ifodalar Yunus otaga tegishli bo‘ladimi, G‘ulom Sharifgami, Berkinboygami, farqi yo‘q, ulardan har birining ichki dunyosini ochishga yordam berdi. Ularning har birini surat-u siyratini ko‘ra boshlaysan. Yana bir qiziq jihati, ularni alohida olib emas, balki zamon bilan birga ko‘rasan, zamondan ko‘ra uni yaratgan tuzumning illatlarini ochiq ko‘ra boshlaysan. Erkin bo‘lib ko‘ringan tuzumdagi erksizlik, yuksak ma’naviyatni targ‘ib qilayotgan zamondagi tubanlik, hamma teng deb ayuhannos solayotgan jamiyadagi ko‘z bilan ilg‘ab bilmaydigan tengsizlik.

Muallifning muvaffaqiyati shundaki, u o‘z asarida katta bir tuzumning mohiyatini ochib berishni uddalagan. Bunda dunyo adabiyotida katta o‘rin tutgan, keyingi yillari o‘zbek adabiyotida ham o‘z o‘rnini egallayotgan magik realizm, ya’ni sehrli realizmdan foydalangan. Sehrli realizm bilan bog‘liq nazariy masalalar bugun dunyo adabiyotshunosligida muayyan darajada tadqia etildi. U o‘tgan asrning dastlabki choragida muayyan ijod usuli sifatida e’tirof etilgan edi. Bu atamani birinchi bo‘lib fanga 1925 yili nemis tanqidchisi Franz Rox olib kirgan edi.

Sehrli realizm haqida S. Sharshun shunday deb yozadi: Sehrli realizm, bu – dunyoning realistik manzarasiga sehrli elementlarning kiritilishi/kirib borishi/ga asoslangan badiiy metod hisoblanadi (Числа. (1932). c. 229).

Demak, sehrli realizm kundalik hayot tasviriga sehrli elementlarni olib kirishdir.

Sehrli realizmning muhim belgilari adabiyotshunoslar tomonidan e’tirof etilgan. Jumladan, ko‘pchilik olimlar uning quyidagi muhim jihatlarini alohida e’tirof etadilar:

Sehrli realizmga asoslangan asarlarda mantiqni inkor etuvchi – mantiqqa muvofiq kelmaydigan vaziyatlar tasvirlanadi; voqealar miflar, afsonalarga bog‘lab hikoya qilinadi. Sehrli realizmdagi noodatiy narsalarning aksar qismi folklordan, diniy rivoyat va hikoyatlardan, allegoriyalar va turli xurofiy inonchlardan kelib chiqadi; tarixiy voqelik va ijtimoiy muammolar ifodasi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Real mavjud siyosiy voqea-hodisalar hamda ijtimoiy harakatlar irqchilik, shahvoniy buzuqlik, besabrlik va insonga xos shu kabi illatlarni fosh etish maqsadida fantaziyaga bog‘lab tasvirlanadi; vaqt va hodisalar ketma-ketligining buzilishi kuzatiladi. Sehrli realizm olamida qahramonlarning vaqt ichida orqaga (o‘tmishga) siljishi, oldinga (kelajakka) sakrab o‘tishi hamda o‘tmish va kelajak o‘rtasida zigzag bo‘ylab harakatlanishi mumkin; real dekoratsiyalar, ya’ni haqiqiy manzara tasviri muhim o‘rin tutadi. Sehrli realizm, bu kosmosni tadqiq etishga otlangan qahramonlar yoki sehrgarlar haqidagi asarlar emas, balki bu yo‘nalishdagi asarda qo‘llanilayotgan sehr-jodu real hayotda o‘zining chuqur ildizlariga ega. G‘ayrioddiy voqea-hodisalar ichida yashayotgan qahramonlar oddiy makonlarda yashovchi real insonlardir; bunday voqealar tasvirida jiddiy

ohangning ustuvorligi kuzatiladi. Sehrli realizmning eng muhim xususiyatlaridan biri – unda muallifning sokin – daxlsiz turib hikoya qilish usulini qo‘llashi hamdir. G‘alati voqea-hodisalar shunchaki (oddiy yo‘l bilan), uzoqdan turib tasvirlanaveradi. Asar personajlari o‘zlari duch kelgan vaziyatlardagi voqealarga shubha bilan qaramaydilar.

Shoyim Bo‘taevning “Utashan. Yettinchi tong” romanini o‘rganish asnosida ayni shu sehrli realizmga xos xususiyatlarning mavjudligi ham aniqlandi. Ular orqali esa muallifning o‘z asari oldiga qo‘ygan muayyan konsepsiyasi ham oydinlashadi. Muallif insonni – uning qalbi va ruhini, butun borlig‘ini tanazzulga tortayotgan bir jamiyatning qiyofasini kashf etishga muvaffaq bo‘ladi.

Yozuvchi qo‘llayotgan ushbu sehrli realizm uslubi dunyo adabiyotida muayyan yo‘lni bosib o‘tdi. Jahon adabiyotining ko‘plab namoyandalari bu uslub orqali qancha-qancha siyosiy tuzumlarning, hokimiyatlarning ich-ichiga kirib borgan. Bunday asarlardan bizga eng tanishi M. Bulgakovning “Ityurak” asari deyish mumkin. Mixail Bulgakov ham o‘z asarida sho‘rolar tuzumi mohiyatini mana shu magik realizm yo‘li bilan ochib bergan edi.

Shoyim Bo‘taev jahon adabiyoti tajribalaridan bahramand ijodkor sifatida ushbu romanida mavjud an’analarga suyangan va ayni paytda, yangi asar yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Zero, uning mazkur romani o‘zbek xalqining turmush tarzi, kundalik hayoti, orzu-armonlari, qiziqishlari va urf-odatlari bilan bilan bog‘liq voqealar ko‘lamida kechadi. Bir qishloq va uning atrofidagi maskanlarda ro‘y bergan voqealarni u yerlarda yashayotgan odamlarning ruhiyatiga uyg‘unlashtirib badiiy talqin etarkan, o‘ziga xos ifoda usulini topadi. Asarning yana bir muvaffaqiyati mana shu ifoda usuliga ham borib taqaladi.

Albatta, asarni boshdan-oxir magik realizm asosiga qurilgan, deyish ham to‘g‘ri bo‘lmas. Lekin romanning katta bir liniyasi (chizig‘i) shu usulda bitilgan va u romandagi boshqa liniyalar bilan tutashib ketadi. Chunki asarning voqealari bir liniyada sodir bo‘lmaydi. Bir-biri bilan qaerdadir tutashadigan har bir qahramon hayotining o‘z badiiy talqinlari bor. Jumladan, qishloq kampirlarining orzulari ushalib, momouloqqa yig‘ilib o‘tirgan kuni sodir bo‘lgan voqeaga inson aqli bovar qilmaydi. Biroq muallif ularni o‘sha makonga bog‘lab sokin ifodalash yo‘lidan

boradi. Bu voqea shunday boshlangan edi:

“Bir mahal... qora, xira bulutdan ilonday ingichka bir bo‘lak ajralib chiqdi-da, Utashan tomon yo‘l soldi. ...utashanliklar jinto‘polon, deya o‘takalari yorilayozgan balo yo‘lida uchragan yengil-yelpi narsalarni omon qo‘ymay supurib, osmonga havolar, o‘ynatar, o‘zi bilan hamroh qilib olib ketaverar edi...

Chang-to‘zon ustuni – jinto‘polon yetib keldi. Bu qishloqda ilgari ham bo‘lgandek, ko‘chalarni hushtak chalgancha bemalol aylanaverdi... tomlarda raqs tushdi. Deraza-eshiklarni timdalab, barchaning yuragiga qutqu soldi.

Kampirlar momouloqqa yig‘ilgan Norvish buvining tugmadekkina hovlisining atrofi paxsa devorbilan o‘ralgan edi...

*Norvish buvining hovlisiga dastlab qayoqdandir uchib kirib, koptokdek dumalay boshlagan qamg‘oqlar hakkam-dukkam qadam tashlayotgandek bo‘lib katak oldiga borib qolishdi. Na boshi, na qo‘l-oyog‘i ko‘zga tashlanadigan allaqanday pahmoq jonzodning xonadoniga bostirib kelayotganini ko‘rib, Tapponning (*it - *K.M.) esxonasi chiqib ketayozdi...o‘zini qamg‘on ustiga otdi. Noma’lum jonzot chap berib qolishga bazo‘r ulgurdi...”*(Бўтаев, Ш., 2021, 203-с.)

“Hilol bibi aytib bergan, barchani mutaassir qilgan qandaydir ibratona rivoyatdan so‘ng o‘zlari bilan o‘zlari hayol surib o‘tirishgan kampirlar bir mahal xuddi kelishib olgandek birdaniga tashqariga qarashdi-yu, ranglari qum oqarib ketdi... chang-to‘zon paxsa devorni hatlab o‘tib, hech qayoqqa andarmon bo‘lmay ochiq derazadan uyam o‘zini ichkariga urdi. Xonani zulmoniy zulmat qamrab oldi. Kampirlarning ba’zi birlari o‘zlaridan ketishdi... tunj haykaldek qotib o‘tirgan Hilol bibi qamg‘oq ustida g‘alati bir narsani ko‘rdi: undan bir qarichcha yuqoridan quyun nam shiftga tegib charx urardi. Uning ostki qismida odam bo‘lib odamga, it bo‘lib itga o‘xshamagan allaqanday jonivorlar muallaq holatda bir-birini ezg‘ilab yanchib yotishardi...” (Бўтаев, Ш., 2021, 204-с.).

Bu to‘s-to‘polon maxluqlarning qiyofalanishi bilan davom etib, buni ko‘tarolmagan Hilol buvining ko‘zlarini chirt yumib olishi bilan yakuniga yetadi. Va bir ozdan so‘ng borliqni shu qadar sukunat qoplab oladiki, bu hodisaga guvoh bo‘lganlarning barchasi uning ro‘y bergan-bermagani haqida o‘ylab qoladi. Lekin, muallif aytganidek, yuzta

momouloq udumi o‘tkazilsa ham kampirlarning barchasi bir xil tush ko‘rishiga aql bovar qilmasdi. *“Shu mahal ularning nigohi Hilol bibiga qaratildi-yu, barcha lol bo‘ldi-qoldi. Hilol bibining lablari chap tomonidan yuqqoriga qarab tortilib qiyshaygan, kesakday qotib o‘tirardi.*

– Jin! – juda past tovushda pichirladi Qimmat kampir va darhol tevarak-atrofga alanglab, tilini tishladi” (Бўтаев, Ш., 2021,205–206-с.).

G‘ayrioddiy bir voqeani tasvirlarkan, muallif uning davomida xurofiy udumdan foydalanadi. Hilol bibini “davolash”ni uddalashi mumkin bo‘lgan bir kishi – O‘g‘il(oy) baxshi edi. Uning “urinish”lari – “bemor” bilan savol-javoblari ijodkor niyatini oydinlashtiradi. Savol-javoblar jarayonida Hilol bibi turli kishilarning nomidan baxshi bergan savollarga (aynan ularning qiyofasiga kirib) javob beradi. Bundan maqsad, albatta, jamiyatdagi turli insonlarning ichki dunyosini Hilol bibi va O‘g‘iloy baxshi orqali ochib berish va bu jamiyat haqidagi muayyan tasavvurlarni shakllantirish hamdir. Hilol bibining javoblaridan keyin: qaerdan kelgan bunday nodonlik, nega odamzod bu qadar jaholat botqog‘iga botib ketgan? – degan savollar beixtiyor tug‘iladi. Quyilib keladigan bunday savollar, kitobxonni nafaqat bir ijtimoiy tuzum haqida, balki umuman insonning insonlik mohiyati haqida o‘ylashga majbur qiladi. Bu voqealar kampirlar momouloqqa yig‘ilgan kuni sodir bo‘lmoqda. Lekin yozuvchi foydalanayotgan momouloq voqeasining ildizi va Hilol bibini va umuman kampirlarni “boshqacha” ahvolga solib qo‘ygan hodisaning ildizlari boshqa-boshqa.

Momouloq voqeasining bu yerlarda urfga aylanib qolganligi haqidagi rivoyatlarning haqiqatdan uzoq emasligi, aniqrog‘i, hayotiy asosga ega ekanligini – mantiqqa muvofiq kelishi muallifning romanda turli rivoyat va (to‘g‘ri yo‘ldagi) udumlardan foydalanganligini ham ko‘rsatadi. Aniqrog‘i, momouloq Utashandagi hayotning kichik, kampirlar hayotining esa katta bo‘lagi. Bu kampirlar shu momouloq kuniga yetish uchun qancha harakat qilishmaydi. Momouloq deb nomlangan bu udumni bir podachi va uning onasi haqidagi rivoyat bilan bog‘laydilar. Uyda onasi yolg‘iz zerikib qolmasin deb qayg‘urgan podachi yigit bir uloqni so‘yib, qolgan kampirlar bilan pishirib yenglar, deb qoldirib ketadi. Go‘sht pishirish bahona kampirlar kun bo‘yi zerikmay, suhbat qurib o‘tiradilar.

Momouloq shunday boshlangan edi.

Yozuvchi Oytosh buvi, Norvish buvi, Qimmat kampir, Hilol bibi haqida so‘zlaganda, ular xarakterining bir qirrasini shu momuloqqa bog‘lab tasvirlaydi. “Oytosh buvi... Uning fikri-zikrini kampirlar bugun momouloq so‘rab podajoyga chiqishadimikan-yo‘qmikan, degan o‘y band etgandi. Bu haqda o‘ylamaslikka qanchalik urinmasin foydasi bo‘lmas, mabodo chiqqan bo‘lishsa, podachi ularga nima deganini bilishga qiziqishi shu qadar ortib borardiki, hoziroq podajoyga shu haqda so‘rab olmoqchiday tipirchilab qolardi…” (83-84-bet). Xuddi shu o‘rinda yozuvchi qishloq va uning hayotini podajoy va undagi podalarning tasviri bilan to‘ldirib boraveradi. Bunda podachining kampirlarga bitta uloq berish-bermasligi haqida o‘ylayotgan Oytosh buvining holati, kechinmalaridan o‘rinli foydalanadi va unga uyg‘un ravishda kitobxonga bu qishloq koloritini boyitadigan yangi bir manzarani taqdim etadi. “Yana kim bilsin, kampirlar boradigan bo‘lishsa, u ham qolmasligi kerakmidi? Uyda o‘tiravergan bilan boshqalardan ajralib qoladi. Keyin momouloq tugul oddiy chilyosinga ham yo‘qlamay qo‘yishadi. So‘ppayib yakkalanib qolgandan yomoni yo‘q”. Momouloqqa intilishning sabablari ko‘p edi.

Romanda yana boshqa bir qahramon – Yoshiuzoq bilan bog‘liq voqealar ham ushbu kitobni uzilmasdan o‘qishga undaydi va bu qaysidir ma’noda sehrli realizmdan foydalanish natijasi hamdir.

Tadqiqotchilar ushbu asarda mifopoetika alohida o‘rin tutishini ta’kidlaydilar. Ayniqsa, Yoshiuzoq bilan bog‘liq voqelarning barchasida g‘ayrioddiylik kuchli. Biroq bu g‘ayrioddiylik faqatgina Yoshiuzoqning manfaatiga xizmat qiladi. Yoshiuzoq qishloqqa Berkinboyni orqa qilib (aniqrog‘i, uning ortiga berkinib) kirib keldi-yu, ishlari xuddi jinlar qo‘llaganday yurishib ketdi. Butun qishloqning u uchun uy qurishi, Yoshiuzoqning o‘zini sipo tutib, hech kim xayoliga keltirmaydigan darajadagi tuban ishlarni qilib yurishi kabi lavhalar insonning o‘z shaytoniy nafsi domiga tushganida, nimalarga qodirligiga ishora qiladi. Asar davomida Yoshiuzoqning asli jinlar qavmiga tegishli ekanligi ikki qizning (bu qizlar ham ulardan edi – *K.M.*) suhbatidan oydinlashadi. Bu qizlar esa oltmish yetti yoshga to‘lib, vafot etgan keksa jin (otaning) farzandlari edilar. Axloqan tubanlashgan bu qizlar esa Boqijon kabilarni shaytoniy go‘zalligi bilan yo‘ldan urish uchun ovora. Bunday

axloqsizlikni muallif bu o‘rinda jin-u shaytonlar bilan bog‘lab tasvirlasa, ya’ni odam qiyofasidagi shaytonlarni fosh etsa, boshqa o‘rinda Yoshiuzoqning o‘rniga ishrat maskaniga Chigi-Chigining oldiga borgan G‘ulom Sharifning xatti-harakatlari odam qavmining shayton yo‘liga kirib borishiga ishora qiladi.

O‘ylab qaralsa, oltmish yetti yoshga to‘lib vafot etgan va o‘zidan keyin zuryodlarini qoldirgan bu katta jin timsolida muallif katta bir tuzum – sho‘rolar davri haqidagi fikr-qarashlarini majoziy yo‘l bilan talqin etayotgandek. Asardagi ko‘plab sirli-majoziy tasvir va talqinlar bu kabi xulosalarga kelishga undaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimiz, asarning momouloqqa yig‘ilgan kampirlar bilan sodir bo‘lgan voqealar davomida O‘g‘il(oy) baxshining turli qiyofalarga kirgan Hilol bibiga bergan savollariga olgan javoblarini eslaylik. “Iblisga aylantiritilgan” Hilol bibi kimni yomon ko‘rasan, degan savolga o‘zining, Mazbut manqaning va yana allakimlarning ovozi bilan *adolatli shohni, xalqparvar vazirni, vijdonli qozini, haqgo‘y shoirni, shubhali ishlardan holi bo‘lgan olimni...* kabi javoblarni berib, kimni yaxshi ko‘rasan degan savoliga *zolim amaldorni, ta’magir olimni, riyokor xalqni, harom yeganni, harom kiyganni, haromdan xazar qilmaganni, nasihat qilmoqchi bo‘lgan otarchini...,* deb javob berardi. O‘g‘il(oy) baxshining savollari berilayotgan javoblarda go‘yo jamiyatning butun illatlari sanalardi. Shu jihatlardan olib qaralganda, muallif muayyan tuzumda ilgari surilgan va amal qilgan g‘oyalarning inson ruhiyati, ma’naviyati va Xudoyim tomonidan bir marta beriladigan hayotiga ne qadar ta’sir qilishini turli rakurslardan turib talqin etadi. Zamon manzarasini, unda yashayotgan kishilarning hayotini turli-tuman obrazlarda ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ladi.

Xulosa

“Utashan. Yettinchi tong” romani Shoyim Bo‘taev ijodining o‘ziga xos qirralarini mujassamlashtirgan asar. O‘zbek romanchiligida yangi hodisa sifatida e’tirof etish mumkin bo‘lgan ushbu romanni jiddiy tadqiq etishga zarurat bor.

Ko‘pyillik ijodiy tajribaga ega bo‘lgan adib katta bir davrni – siyosiy tuzumni taftish qilar ekan, o‘ziga xos ijodiy metodlardan, turli priyomlardan foydalanadi. Jumladan, asarda keng qo‘llanilgan sehrli

realizmga xos usullardan foydalangan adib rivoyatlardan, mifologiya va xalq ogʻzaki ijodiga xos boshqa elementlardan foydalanadi, davr haqiqatini ochib beradi. Inson ruhiy olamini ijtimoiy muammo va masalalar qamrovida badiiy talqin etadi.

Roman koʻpqirrali. Uning mohiyatini anglash uchun katta tadqiqotlarni amalga oshirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

Əliyev, R. (2008). Ədəbiyat nəzəriyyəsi. Bakı: Mütərcim.

Бўтаев, Ш. (2021). Уташан. Еттинчи тонг. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.

Бўтаев, Ш. (1995). Шамол ўйини. Қисса ва ҳикоялар. Тошкент: Ёзувчи.

Саримсоқов Б .(2004). Бадиийлик асослари ва мезонлари. Тошкент.

Холбеков М. (2012, 6-сон.) Муҳаммаджон Холбеков. Лотин Америкаси романи. Тошкент: Шарқ юлдузи.

Числа. (1932). Книга шестая. Париж.

Холдоров Д. (2019,5-сон.) Шахс фожиасининг бадиий талқини. Тошкент:Fledu.uz.

Шермуродов Т. Жозиб изҳор излаб. (2009). Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.

Қўчқорова, М. Машарипова.Ф. (2023/31). Шойим Бўтаев Асарларида Шайтон Образининг Неомифологик Талқини. Miasto Przyszłości.

ZAMONAVIY O'ZBEK VA ARAB HIKOYANAVISLIGIDA YUNON MIFOLOGIYASINING BADIIY TALQINI

Muxiddinova Dilafruz ZOXRİDDİNOVNA[1]

Adabiyotda mifologik obraz, syujetlarga yangicha ijodiy yondashuv jarayonida albatta diniy dunyoqarash va xalq og'zaki ijodi yotadi. Adabiy jarayonda miflarga ijodiy yondashuv har bir davrda o'ziga xos tarzda kechgan. Miflarga ijodiy yondashuv jarayonida badiiy san'at yaratuvchilar, birinchi o'rinda yozuvchilar qatnashadi. Ular, avvalo yetib kelgan miflarga o'z munosabatlarini bildiradilar, ikkinchidan o'zlarining shaxsiy miflarini yaratadilar. Masalan, jahon adabiyotida realizm va romantizm bosqichida I.X.Gyolderlin, I.V.Gyote, J.G.Bayron, M.De Servantes, U.Shekspir, A.Tolstoy va boshqalar, modernizm bosqichida J.Joys, S.Bekket, F.Kafka, A.Kamyu, T.Mann, M.A.Bulgakov, R.M.Rilke, R.Merll, Ch.Aytmatov va boshqalar miflarga ijodiy yondashuv natijasida yangi bebaho asar namunalarini yaratdilar. Va natijada "neomifologizm"[2] , ya'ni miflarga yangicha yondashuv dunyoga keldi. Zamonaviy arab she'riyatida mifologik obrazlarning ifodalanishi bo'yicha tadqioqtlar olib borgan Ye.E.Ganixanovaning ta'kidlashicha, "Arab adabiyotida mifologik obraz va syujetlarga XX asrning birinchi choragidan, ya'ni arab adabiyotida yangi tipdagi she'riyat shakllanayotganda, shu bilan birga arab she'rini an'anaviy uslubdan cheklanish jarayoni davrida e'tibor qaratish boshlandi"[3] .

Yangi davr arab nasriy janrlarida ham XIX asrning oxirlari XX asrning boshlarida "an-Nahda" uyg'onish davrida mifologik obraz va syujetlar, afsonalar, muqaddas diniy manbalarda keltirilgan rivoyatlardan

[1] Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik
kafedrasi mudiri, dotsent, filologiya fanlari, doktori (DSc)

[2] Хализев В.Е. Теория литературы. М.: Высшая школа. 2005. С.123.

[3] Ганиханова Е.Э. Мифологические образы в современной арабской поэзии (50-70-е годы XX века) и их функциональная нагрузка. Диссер… на соис.. канд. филол. наук. Т. 1993. С.29.

(M. al-Muvaylihiy ““Zamonadan bir lahza yoki Iso ibn Hishomning hikoyalari”, J.H.Jubronning esselari «Iso insoniyat o‘g‘loni», «Payg‘ambar bog‘i», «Payg‘ambar o‘limi» va b.) o‘z zamonasining muammolarini yoritishda, yangicha poetik iste’foda etish kuzatiladi.

Jahon adabiyotida barcha xalqlarda yunon mifologiyasiga murojaat etish juda ko‘p kuzatiladigan hodisadir. Ayniqsa, adiblar asarlarida «Sizif haqida mif» ga (antik davr yunon dramaturgiyasida Esxil, Sofokl, Yevripidlarning saqlanmagan asarlari) ko‘proq e’tibor qaratadilar.Yunon mifologiyasiga ko‘ra Sizif ayyor, hatto Xudolarni ham aldashga qodir, ular bilan ziddiyatga borgan, shu bilan birga insonparvar obraz sifatida gavdalanadi. Sizif o‘zining isyonkor hatti-harakati tufayli Xudolarning qaxriga uchrab, do‘zaxda tog‘ning tepasiga og‘ir xarsang toshni dumalatib olib chiqqqanda va uni yana pastga dumalab tushib ketishi va yana olib chiqishi kabi beto‘xtov jazoga mahkum qilinadi. Yangi davr adabiyotida “Sizif haqida mif” ga ijodiy yondashuvni birinchilardan bo‘lib fransuz yozuvchisi, modernizm yo‘nalishining asoschilaridan Alber Kamyu boshlab bergan. Shuningdek, yana bir fransuz adiblaridan Rober Merll ham mazkur mifga murojjat qilib pyesa yaratgan. Rus adabiyotshunosi D.V.Zatonskiy ta’kidlashicha: «A.Kamyu mazkur qadimgi afsonaning ikkinchi qismidan, ya’ni Sizifni jazolanishi haqidagi voqeadan foydalangan bo‘lsa, R. Merl esa Sizifni jazolanishiga sabab bo‘lgan gunohni asos qilib olgan»[4] . Zamonaviy arab adabiyotida shoirlardan Shakir as-Sayib, Ali Ahmad Said va b., hikoyanavislikda esa suriyalik yozuvchi Jo‘rj Salim (1933-1976), misrlik yozuvchi Diya ash-Sharqaviy (1938-1977) lar ham o‘z ijodlarida “Sizif haqida mif” ga murojaat qilganlar. Mirlik yozuvchi Diya ash-Sharqaviy “Bog‘” hikoyasida[5] dehqonni hosilsiz yerni boqqa aylantirmoqchi bo‘lgan tinimsiz mehnatini Sizif mehnatiga o‘xshatadi va asotirlashtiradi. Ammo A. Kamyuning qahramoni Sizif o‘zining og‘ir mehnatini behudaligini aniq anglasa, keksa Misr dehqoni – falloh gullayotgan bog‘ to‘g‘risidagi orzusini amalga oshirish uchun tinimsiz mehnat qiladi. Diya ash-Sharqaviy A.Kamyu asaridagi syujetdan farqli ravishda hikoyasida shu

[4] Затонский Д.В. Модернистские мифы и действительность. В кн: Современные проблемы реализма и модернизм. М.: Наука. 1965. – С. 192-195.
[5] Кирпиченко В.Н., Сафронов В.В. История египетской литературы XIX-XX веков. В двух томах. Т.2. М.: Восточная литература, 2003.

bilan birga qadimgi Misr mifi – tabiatning yaratuvchilik, hosildorlik Xudosi Osiris to‘g‘risidagi mifga ishora qiladi. Qishloqda birorta odam cholning bog‘ o‘stirishga ishonmaydi. Hosilsiz yerda bog‘ o‘stirish kurashida dehqonning o‘g‘illari xalok bo‘ladi. Ammo hikoya nihoyasida toshli yerda bog‘ barpo bo‘ladi. Shunday qilib D.Sharqaviy insonning yer kurrasidagi samarasiz mehnati to‘g‘risidagi afsonaga hosildor Nil vodiysining afsonasini qarama-qarshi qo‘yagan holda o‘ziga xos syujetga ega asar yaratadi. Adib “Bog‘” hikoyasida tinimsiz mehnat orqali orzuga yetishish mumkinligini, inson hayoti va uning mashaqqatlari ma’no-mazmunga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek yozuvchilaridan Ulug‘bek Hamdam[6] ning “Ko‘nglimdagi daryo”, shuningdek, “Lola” tush-hikoyasida ham “Sizif haqida mif”ga ishora ko‘zga tashlanadi. U.Hamdam hikoyasida insoniyatning to‘xtamas, bir xil, uzluksiz davomiy harakatini aks ettiradi. Hikoya bosh qahramonining tushida baland cho‘qqidagi lolaga bo‘lgan intilishi, lolaga yetishish uchun harakati, turli to‘siqlarga uchrashi cho‘qqiga yetib borganda, yana oldinda yangidan yangi cho‘qqilarning turishi orqali Sizifning harsang toshni cho‘qqiga olib chiqqanda yana pastga dumalab ketishi va uni yana qayta pastga tushib cho‘qqiga olib chiqishi kabi holatiga hamohangdir.

“Lola” hikoyasida lola ramziy, assotsiativ obraz hisoblanib u o‘zida juda ko‘p ma’nolarni jamlaydi. “*Shundoq ro‘baro‘mda qoya – qirrador toshli, tik va bahaybat. Ustida hilpirab turgan alvonrang, benihoya go‘zal lolaga hamma o‘zini uradi”*[7] . Lola –haqiqat, maqsad, orzu, ezgulik, go‘zallik, inson umri, hayot mashaqqatlari timsoli. *“Odamlar – qanchasi afsonaviy qoyaga tirmashib, afsonaviy chechak sari ko‘tarilayotgan, qanchasi qulab hu-u-uv pastlarda qolgan toshlarga urilib majaqlangan. Masofaning o‘rtasigachayam hali hech zot yetolmagan”* . Hikoya bosh qahramonining tushi orqali lolaga yetishish uchun ming mashaqqatlar bilan cho‘qqiga intilayotgan insonlarning

[6] Ulug‘bek Hamdam – yozuvchi, shoir, adabiyotshunos olim, tanqidchi, tarjimon. Andijon viloyati 1968 yilda tavallud topgan. U “Yolg‘izlik” (1998), “Muvozanat” (1997), “Isyon va itoat”(2004), “Vatan haqida qo‘shiq” (2014) kabi qissa, hikoya va romanlari, “Tangriga eltguvchi” (2002), “Atirgul” (2006), “Seni kutdim” (2007) kabi she’riy to‘plamlari muallifidir.

[7] Hamdam U. Vatan haqida qo‘shiq. (Romanlar va hikoyalar). – T.:Akademnashr. 2014. – B.527.

harakati, bu yo‘lda ba’zilarini cho‘qqini zabt etishi, ba’zilarining esa cho‘qqiga chiqayotganda pastga qulab ketishini tasvirlab, hayotda o‘z maqsadi, orzusi sari intilayotgan insonlarni, ularni bu dunyoda yo maqsadlariga yetishishlari, yoki yetmasliklari, yoki hayot mashaqqatlari ichida insonlarning tushkunlikka tushib to‘xtab qolishlari yoki yana oldinga sari intilishlari aks ettirilgan. Ko‘rib turganimizdek, U.Hamdam hikoyada *“haqiqatni bilishga mahkum etilganimni unutolmayman”* jumlasida yunon mifologiyasidagi Sizifga hukm qilingan uzluksiz mehnatga ishorani ko‘rishimiz mumkin. Inson og‘irmi, yengilmi hayot sinovlarini yengib o‘tishga mahkum. U Sizifdek tinimsiz mehnat girdobida qolgan hilqatdir. Lekin mana shu mehnatdan ma’no topib yashash insonga xos xususiyatdir. Shuningdek, yana bir mashhur o‘zbek adibi, o‘tkir qalam sohiblaridan Xurshid Do‘stmuhammad[8] ham “Donishmand Sizif”[9] romanida qadimgi yunon afsonasiga murojaat qilib, fransuz adibi A.Kamyudek mifning asliyatini saqlagan holda, Sizif mehnatini, uning taqdiri bo‘yicha his kechinmalari-yu, o‘y-hayollarini go‘zal tarzda badiiy tasvirlagan. X.Do‘stmuhammad asarida Sizif mardlik, jasorat ramzi, o‘z taqdiridan mamnun, irodasi mustahkam, ma’suliyatli, mehnatsevar, kuchli sabr-toqatga ega inson timsolidir. U o‘z matonati, o‘zining metin irodasi, tuganmas sabr-toqati bilan ming mashaqqatlar bilan katta xarsang toshni tog‘ cho‘qqisiga olib chiqadi, u toshni o‘z matonati bilan yengadi.

Ko‘rib turganimizdek sharq modernist yozuvchilari o‘z asarlarida hayotni g‘arb modernist yozuvchilari kabi absurd darajasiga ko‘tarishmaydi. Insonni bu murakkab hayotda mardanovor, komillikka erishgan holda, o‘z ishiga bo‘lgan ma’suliyat bilan yashashga, ezgulik sari intilishga undaydi va umidini uyg‘otadi.

[8] Do‘stmuhammad X. (1951 yilda Toshkent shaxrida tug‘ilgan) – Adib “Hovli etagidagi uy” (1989), Jajman (1995), “Qazo bo‘lgan namoz” (1996), “Hijronim mingdir mening” (2000), “Qichqiriq” (2014) qissa va hikoyalar to‘plami, “Bozor” (2000) va “Donishmand Sizif” (2016) kabi romanlari muallifidir.

[9] Do‘stmuhammad X. Donishmand Sizif. Romanlar. – T.:O‘zbekiston, 2016.

Adabiyotlar

1. Ганиханова Е.Э. Мифологические образы в современной арабской поэзии (50-70-е годы XX века) и их функциональная нагрузка. Диссер… на соис.. канд. филол. наук. Т. 1993.

2.Кирпиченко В.Н., Сафронов В.В. История египетской литературы XIX-XX веков. В двух томах. Т.2. М.: Восточная литература, 2003.

3.Затонский Д.В. Модернистские мифы и действительность. В кн: Современные проблемы реализма и модернизм. М.: Наука. 1965.

4.Теория литературы. Литературный процесс. 4-х т. – М.: ИМЛИ РАН, «Наследие», 2001. Т.4.

5.Фрейденберг О.М. Миф и литература древности. М.: Восточная литература. 1998.

6.Хализев В.Е. Теория литературы. М.: Высшая школа. 2005.

7. Qosimov A. Adabiyotdagi ekzistensializm va absurd tushunchalarining falsafiy asoslariga doir. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali T.: O‘zRFA «Fan», 2002, №6, 35-bet.

8. Hamdam U. Vatan haqida qo‘shiq. (Romanlar va hikoyalar). T.:Akademnashr. 2014

9. جورج سالم. حكاية الظمأ القديم. قصص. – دمشق:منشورات إتحاد الكتاب العرب .1976

Y. V. ÇƏMƏNZƏMİNLİ'NİN "STUDENTLƏR" ROMANI: DÖVRÜN İCTİMAİ-SİYASİ MƏNZƏRƏSİ

Əfsanə (QULİYEVA) NAĞIYEVA[1]

Giriş

Əsərlərində azərbaycançılıq ideyasına müraciət edən Yusif Vəzir Çəmənzəminli millətinin tərəqqisi, inkişafı yolunda canını fəda edən həqiqi ziyalı, maarifpərvər şəxsiyyətdir.

Y.V.Çəmənzəminli kimdir?

1887-ci il sentyabr ayının 12-də Şuşa şəhərində anadan olan Yusif Vəzir Çəmənzəminlinin atası Məşhədi Mirbaba Mirabdulla oğlu Vəzirov Şuşa bəylərindən idi. Soyadının tarixi XVIII əsr Qarabağ xanlığına dayanır. Hələ o zaman nəslin ulu babası Mirzə Əliməmmədağa Qarabağ xanı İbrhimxəlil xan tərəfindən Türkiyəyə səfir təyin olunsa da, bu vəzifəni icra etmək ona qismət olmur, lakin uzun illərdən sonra Vəzirovlar nəslinin nümayəndəsi Yusif Vəzirin taleyinə yazılır. O, Azərbaycan Cümhuriyyətinin Türkiyədə ilk səfiri olmuşdur.

İlk təhsilini Şuşa realnı məktəbdə alan Yusif Vəzir Kiyev Universitetinin hüquq fakültəsini bitirmiş, 5 illik təhsil müddətində vətəni ilə əlaqəni kəsməyərək qəzet və jurnallar vasitəsilə Azərbaycanda baş verən hadisələri daim izləmişdir. Onu ən çox narahat edən ana dilində kitabların nəşri və yayılması məsələsi idi və özü birbaşa fəaliyyətə keçərək tələbələrdən ibarət xüsusi nəşriyyat heyəti də təşkil etmişdi. Bu nəşriyyatda yalnız ədəbiyyata aid yazılar deyil, tibbə, siyasətə, iqtisadiyyata aid məqalələr də çap ediləcəkdi. Kiyev həyatı onun yaradıcılığında öz məhsuldarlığı ilə seçilir və Çəmənzəminlinin toxunduğu əsas problemlərdən olan qadın və uşaq tərbiyəsi mövzularına həsr olunmuş "Arvadlarımızın halı", "Qanlı göz yaşları", "Ana və analıq" kitabları meydana çıxır. Bu xüsusda Yusiv Vəzirin fəaliyyəti bizə İsmayıl bəy Qaspıralını xatırladır. Gənc olmasına rəğmən xalqını,

[1] Bakı Avrasiya Universiteti, fil.ü.f.d., hc.akad83@gmail.com

millətini, onun gələcəyini düşünmək həqiqi ziyalılıqdan və vətənpərvərlikdən xəbər verir.

1917-ci il inqilabının doğurduğu əks-səda qeyri-rus xalqlarını da tələtümə gətirir və elə bu illərdə Y.Vəzir Kiyevdə oxuyan azərbaycanlı tələbələri ətrafına toplayaraq Türk Ədəbi Mərkəziyyə firqəsi "Musavatın" Kiyev şöbəsini yaradır və firqənin də sədri seçilir. 1918-ci ildə yaranan Azərbaycan Demokratik Cumhuriyyəti Yusif Vəziri Ukraynada diplomatik nümayəndə təyin edir. Yenicə işə başlamış diplomatik nümayəndəliyin əsas məqsədi Azərbaycanı Rusiya ictimaiyyətinə tanıtmaq olmuşdur və onlar tədbirlər təşkil edərək Azərbaycanın tarixi, ədəbiyyatı, mədəniyyəti, ticarəti və iqtisadiyyatı haqqında çoxlu məqalələr yazıb mətbuatda çap etdirirlər. Bu dövr fəaliyyətinə nümunə olaraq "Azərbaycanın Muxtariyyatı" və "Biz kimik və istədiyimiz nədir?" kitablarını göstərə bilərik.

Bakıda bir müddət qaldıqdan sonra “Nəsibbəy Usubbəylinin təklifi ilə 1919-cu ildə yeni yaranmış Respublikanın səfiri kimi İstanbula göndərilir. Yusif Vəzir İstanbulda diplomatik işlə məşğul olmaqla yanaşı, öz ədəbi fəaliyyətini də davam etdirir. Belə ki, Azərbaycanı və Azərbaycan ədəbiyyatını türk aləminə tanıtmaq üçün elmi müşahidələrlə zəngin olan "Azərbaycan ədəbiyyatına bir nəzər", "Tarixi "coğrafi və iqtisadi Azərbaycan" adlı kitablarını yazıb 1921-ci ildə onları İstanbulda çap etdirir.” (2)

Cümhuriyyətin süqutu ilə digər ziyalılar kimi Y.V.Çəmənzəminlinin də faciəsi başlayır. Bir yerdən başqa yerə sovrulan sənətkar “əfv olunaraq” vətənə qayıdır. Sovetlərin ilk illərində müxtəlif vəzifələrdə çalışsa da (nəşriyyat redaktoru, vəkil), 30-cu illərin qasırğasından kənarda qalmır və 1938-ci ildə az da olsa, fəlakətdən yaxa qurtara bilsə də, 1940-cı ildə həbs olunaraq iş üçün (həm də bu çaxnaşmalardan canını qurtarmaq üçün) getdiyi Urgənc şəhərində həbs olunaraq Bakıya gətirilir. O, altı aya yaxın Keşlə həbs düşərgəsində saxlanıldıqdan sonra 1940-cı ilin iyul ayının 3-də Nijni Novqorod vilayətinin Suxobezvodnaya stansiyasındakı həbs düşərgəsinə göndərilir və 1943-cü il yanvar ayının 3-də elə orada aclıqdan və ürək tutmasından vəfat edir.

Y.V.Çəmənzəminli həyatı boyu çətinliklərlə mübarizə apardı. Bu tələtümlü həyat onu nə qədər sarsıtsa da, yazarın gələcəyə ümidi heç bir

zaman tükənmədi: yazdı, yaratdı və gələcək nəsillər üçün qiymətli əsərlər qoydu.

“Studentlər” romanı

Yusif Vəzir Çəmənzəminli “Studentlər” romanını 1914-cü ildə yazmış və ilkin variantda romanı “Günah” adlandırmışdır. Lakin əsəri çapa hazırlayarkən romanın adını dəyişərək “Studentlər” adlandırmışdır. Roman iki kitabdan ibarətdir. Yusif Vəzirin sağlığında iki dəfə, yəni 1931-ci və 1936-cı illərdə birinci kitab çap olunmuşdur. Çəmənzəminli Azərbaycan ədəbiyyatında tarixi roman janrının usta yazarlarından hesab olunur. Romanda Y.Vəzirin Kiyevdə təhsil alarkən müşahidələrindən doğan öz mülahizələri yer almışdır. Rejimin diktəsi olan fikirlər əsərdə əsas yer tutsa da, bu romanın əhəmiyyətini azaltmır.

Roman Ön söz ilə başlayır və əsərdə inqilabdan əvvəl türk, yəni azərbaycanlı gənclərin həyatından bəhs olunduğu burada qeyd olunmuşdur. “Tarixə qarışmış bir həyatı əks etdirən bu əsər müasir gəncliyə söz demək ehtiyacından yaranmışdır”. (7; s.39)

Belə bir qarışıq dövrdə gənclər bir çox mövzular ətrafında söhbətlər aparıb, tədbirlər qurub, təşkilatlar yaratsalar da, bəlli çərçivədən kənara çıxa bilmirlər: “Bu həyat çox da zəngin, mündəricəli və yüksək məfkurə izincə qoşan bir həyat deyil. Bu da babalar həyatının müasir bir şəklidir. Babalarımız əsrlər boyu dini mübahisələrlə vaxt keçirmiş, Rüstəmbəylə Əli də bu yolu davam etdirirlər; babalarımız alış-veriş edib, min bir fəsadla zəngin olur, əlsiz-ayaqsızları istismar edirdi. Qulu da eyni tipin müasirləşmişi deyilmi? O zamanın hər bir mütəxəssisi yeni sənət, yeni fənlə təchiz olunmuş birər tacir, xudmin adamlar deyilmi? Babalarımız şəhvət üstündə vicdanlarını boğmağa alışıq idilər; çoxarvadlılıq, qadın hüququnu tanımamazlıq və bundan irəli gələn dəhşətlər adət yerini almışdı. Fərəməz, Qulamrza, Cəfər və başqaları da eyni yolla getmirlərmi?” (5; s.3)

Əsərin Ön sözünü, eyni zamanda, romanın qısa xülasəsi də adlandırmaq olar. Əsrin əvvəllərində Rusiyanın müxtəlif şəhərlərində təhsil alan Azərbaycan gənclərinin həyata baxışı – siyasət, dil, qadın mövzuları haqqında düşüncələri, fikir mübadiləsi aparmaları aralarındakı dialoqlar vasitəsilə ortaya çıxır. Amma gənclər bu mövzular ətrafında öz aralarında uzun-uzadı söhbətlər, müzakirələr aparıb mübahisələr etsələr

də, bir nəticə hasil olmur və sonda dağılıb gedirlər. Ölkədə baş verən siyasi proseslərdə onların ciddi-cəhdlə iştirakını görmürük.

Bu kiçik giriş əslində bugün üçün də aktualdır. Daha doğrusu, yazar bu kiçik girişdə qaldırdığı mövzularla elə bu günümüzə də ayna tutmuşdur.

Ön sözdən həmçinin o da məlum olur ki, əsər1936-cı ildə yazılmışdır, yəni roman Y.Vəzir "əfv olunduqdan" sonrakı dövrün məhsuludur. Artıq Azərbaycanda bolşeviklər öz hakimiyyətlərini qurmuş, mədəniyyəti və ədəbiyyatı da öz siyasətlərinə alət etmişdilər.Çəmənzəminli bu əsəri sanki "öz əvvəlki günahlarının bağışlatmaq" üçün qələmə almışdır. Məsələn, rejimi razı salacaq bir dialoqa diqqət yetirək. Obrazlardan Cəlal və Çingiz arasında keçən söhbətdə millətpərəstlik mövzusu, daha doğrusu, Qulu obrazının millətçilik mövqeyi müzakirə olunur və bu zaman Əhməd Ağaoğlu və Hacı Zeynalabidin Tağıyev şəxsiyyətinə aid olmayan bir çox əsassız fikirlər səsləndirilir. Y.V.Çəmənzəminli bir zamanlar bu insanlarlarla – milli ziyalılarımızla çiyin – çiyinə çalışmış, demokratik Cumhuriyyət qurmaq yolunda xeyli işlər görmüş, mətbuatda və ictimai həyatda fəallıq göstərmişdilər. Lakin Milli Hökumətin süqutu, ziyalıların mühacirəti və repressiyalar yazıçını öz mövqeyindən və əqidəsindən əl çəkməyə vadar etmişdir.

Ümumiyyətlə, yazıçının Novruz bayramı ilə əlaqədar olan bir yazısında da rejimin diktəsi ilə yazılmış məlumatlara rast gəlirik. Buna nümunə "Azərilik nəzəriyyəsi"ni göstərə bilərik. Belə ki, Sovet dövründə türklük və müsəlmanlıqla bağlı məlumatlar dəyişdirilərək tarixə - elmə isnad etməyən məlumatlar ortaya atılırdı ki, bunlardan biri də yuxarıda adını çəkdiyimiz nəzəriyyədir. Bu cür düşüncələr kökündən, kimliyindən qoparmaq fikirlərinə əsaslanırdı. (3; s.10)

Roman haqqında maraqlı fikirlərdən biri də odur ki, məhz bu əsər yazarın repressiya olunmasına səbəb olmuşdur. "Yazıçının repressiya olunmasına səbəb olan bu əsər haqqında hələ ilk nəşr olunduğu dövrlərdə də müxtəlif mübahisəli fikirlər olub.Əsər repressiya dönəminə qədər bəyənilsə də, repressiya maşını işə düşdükdən sonra əsərə münasibət də dəyişib". (1)

Y.Vəziri sürgünə - ölümə göndərən səbəblər sırasında bu əsərlərlə yanaşı ("İki od arasında", "Qan içində") onun Cümhuriyyət dönəmindəki

diplomatik fəaliyyəti əsas götürülmüşdü.

Romanın obrazlar aləmi

Romanın obrazlar sistemi rəngarəng və müxtəlifdir. Belə ki, ölkə xaricində tələbə həyatı yaşayan bu gənclər sinfi mənsubiyyətinə, əqidəsinə görə fərqlənir və bu dəyişikliyi də biz obrazların düşüncə aləmində də müşahidə edirik. Bu gənclər kübar və tacir ailələrindən çıxmışlar, çox az sayda kasıb uşaqları vardır. Bu da dövrün ictimai – sosial şəraitindən doğan bir məsələdir. O zamanlarda maddi cəhətdən təmin olmuş ailələrin övladlarının təhsil almaq şansı vardı. Kasıb gənclər çox çətinliklə təhsil ala bilirdilər, amma məhz belə gənclər cəmiyyətin taleyində fəal iştirak edirdilər.

Əsərin əsas qəhrəmanı Rüstəmbəydir və hadisələr onun ətrafında çərəyan edir. Onun digər obrazlarla – Qulamrza, Cəfər, Əli, Çingiz, Salman və s.-lə din mövzusunda mükalimələri və mübahisələri, qadın və sevgiyə, elm və təhsilə münasibəti əsərin əsas süjetini təşkil edir. "Əsərin əsas qəhrəmanı Rüstəmbəyin ictimai çabaları, həmvətəni olan tələbələrə göstərdiyi qayğı çox diqqətçəkəndir. Rüstəmbəy obrazını dövrün maarifçiləri ilə də, inqilabçıları ilə də müqayisə etmək olar". (1)

Araşdırmaçılar bu obrazdan bəhs edərkən onun qüvvətli bir surət olmadığını, lakin "tərəddütlər içində boğulan" orijinal bir tip kimi xarakterizə edirlər. Qulu Xəlilov isə Rüstəmbəyi "Sakit don" əsərinin qəhrəmanı Qreqori Melexovla müqayisə etmişdir. (6; s.215)

Romanda qadın obrazları da diqqət çəkən məqamlardandır, daha doğrusu, yazıçının qadına münasibəti məsələsi də diqqətdən kənarda qalmamışdır. Əsərdə daha çox rus qadınları vardır ki, bunlara da o qədər də geniş yer verilməmişdir. Azərbaycanlı gənc qızların o dövrdə xaricdə təhsil alması görünməmiş - yox dərəcəsində bir hal idi. Romanda "millət qızı" kimi çağırılan Fatma obrazı bu baxımdan ilkdir. O, Rusiyada təhsil alan tək-tük xanımlardan biridir və yazarın obraza münasibəti də müsbətdir. O, digər gənclərlə millətçilik, milli mədəniyyətimiz mövzusunda ciddi müzakirələr aparan ziyalı bir xanım surətidir. Bir sözlə, yazarın görmək istədiyi Azərbaycanlı xanım obrazıdır.

Romanın ikinci hissəsi olan "1917-ci ildə" də birinci kitabdakı qəhrəmanların həyatının sonrakı fəaliyyəti əks olunmuşdur. Əsərin dili janrın tələblərinə uyğundur. Əsər tarixi hadisələrə işıq tutduğu üçün

canlıdır, xalq danışıq dilindən, frazeoloji birləşmələrdən istifadə baxımından zəngindir.

Nəticə

"Studentlər" romanı 30-cu illər Azərbaycan nəsrinin yaddaqalan nümunələrindəndir. Roman inqilablar və inqilabçılar haqqında yazılmış bir əsər deyil. Baş verən inqilablar, qarışıq tarixi hadisələr əsərdə bir fondur. Romanın əsas obrazı olan Rüstəmbəy fəlsəfi fikirləri ilə xalqı və cəmiyyəti üçün narahat olan, vətənini sevən ziddiyətli bir ziyalı surətidir. Ümumilikdə əsər tariximizə işıq tutan, yeni nəsillərə tarixin qaranlıq yönlərini göstərən yaddaqalan nəsr nümunəsidir.

Ədəbiyyat

1.https://www.adalet.az/ru/article/ Cəlil Cavanşir. Yusif Vəzir Çəmənzəminli və onun "Studentlər" romanı

2.http://chamanzaminli.az/hayat/hayat.php

3.http://www.anl.az/down/meqale/turkustan/2020/iyul/. Yusif Vəzir Çəmənzəminli və Azərbaycan mədəniyyəti. II yazı. "Türküstan" 14-20 iyul, 2020-ci il, s.10

4.http://www.anl.az/down/meqale/turkustan/2022/avqust. Ədəbiyyatımızda Yusif Vəzir Çəmənzəminli qələmi. "Türküstan", Aynur Turan, 16-22 avqust, 2022, s.4

5.Yusif Vəzir Çəmənzəminli. Studentlər. Bakı, 2006

6.Məmmədov Kamran. Məşələ dönmüş ömür: Yusiv Vəzir Çəmənziminli. Bakı, Azərnəşr, 1987

7.Tofiq Hüseynov. Yusif Vəzir Çəmənzəminli. Bakı, 1987

AZERBAYCAN EDEBİ MUHİTİNDE KARABAĞ

Seba NAMAZOVA*

Giriş

Edebiyatçılar, şairler ve yazarlar Karabağ konusuna edebi faaliyetlerinde sıklıkla başvurmuşlar ve bu konuda pek çok sanatsal eser yazmışlar. Zaman geçtikçe derinleşen sosyo-politik süreçler ve bunları içeren olaylar genişledi, bu konu yaratıcılığın farklı alanlarıyla daha da güncellemeğe başladı.

Kazandığımız bu büyük zafer, edebi düşüncemize sonsuz çeşitlilik ve güzellik kazandırdı. Çağdaş edebiyatımızda elde ettiğimiz başarılar, zafer sevinçleri, Türkiye ile Azerbaycan'ın kardeşliği, kadim topraklarımız uğruna canlarını feda eden, şehadet zirvesine yükselen yiğit Azerbaycan askeri ve Anavatan evlatları yürek dolusu sevinç ve minnetle anılır.

Son zamanlarda topraklarımızın özgürlüğünden doğan sevincin sanatsal ifadesinin edebiyatımızın ana teması haline gelmesi gururvericidir. “Karabağ Azerbaycan'dır” başlığı bu türşiirsel örnekleri birleştirir.

Azerbaycan halkının dünyanın en zengin edebi ve sanatsal kaynaklarına sahip olduğu bilinmektedir. Bu da elbette kaynağını kadim bir geçmişi olan milli düşünce ve yaratıcılıktan almaktadır. Karabağ'ın edebiyat ortamı bu zengin kaynaktan beslenmiştir.

Söz ve sanatın ilham kaynağı Karabağ

Karabağ yüzyıllardır sanatsal düşüncemizin önemli bir karakteri, daha doğrusu yaratıcılığın merkezinde duran bir kahraman olmuştur. XVIII. Yüzyılın sonlarına doğru Azerbaycan klasik şiirinin iki güçlü temsilcisi Vidadi ve Vagif, ünlü “değişmelerinde” “Küll-i Karabağ`ın ab-

*Filoloji üzre felsefe doktoru, Doçent, Gence Devlet Üniversitesi, Filoloji fakülte, Azerbaycan ve Dünya edebiyatı kürsüsü, seba8080@mail.ru/ ORCID ID: 0000-0002-7986-3073

u hayatı, nerme-nazik bayatıdır" diyerek bu kadim, zengin ve büyüleyici mekanın, yanı sıra söz ve sanatın ilham kaynağı olduğunu da vurgulamışlar.

Azerbaycan tarihinde çok da uzun olmayan bir dönemde on yazarın "Karabağname"yi yazmış olması bu bölgenin halkımızın siyasi, sosyal ve kültürel hayatında önemli bir yere sahip olduğunun açık bir kanıtıdır.

Azerbaycan edebiyat tarih yazımının kurucusu, Karabağ edebiyat ortamının seçkin temsilcilerinden Firidun Bey Köçerli, bu ortamı karakterize ederek şöyle yazmıştır:

"Şuşa şehrinin ikliminin etkisi ve toprağının verimliliği nedeniyle burada çok sayıda zürefa, üdeba ve şuara ortaya çıkmıştır. Böylece Şuşa kalesi, Kafkasya`nın Şiraz bölgesinde bulunmakta olup, zenginlik ve lezzet yatağı, hal ehlinin ve dilin sahibi sayılmıştır" (Köçerli, 1978: 157).

Şuşa aynı zamanda yetenekli insanların, söz sanatçılarının, müzisyenlerin de evidir. Şuşa'dan kim geçmedi ki? Bu güzel şehrin koynunda bir gezgin, bir müzikolog ve bir etnograf büyüdü. Müziğin ve sanatın beşiği sayılan bu gizemli şehirde Azerbaycan'ın en ünlü kültürel insanları yaşamış ve çalışmıştır.

Kasım bey Zakir, Hurşidbanu Natavan, Mir Möhsün Nevvab, Necef bey Vezirov, Abdurrahim bey Hagverdiyev, Yusif Vezir Çemenzeminli, Firidun bey Köçerli, Ahmed bey Ağaoğlu ve diğer önemli şahsiyetlerle tanınan Şuşa, dünyada Azerbaycan muğamının beşiği olarak kabul edilmektedir. Şuşa, Karabağ'ın resmi başkenti ve Azerbaycan'ın kültür başkentidir. Şuşa'ya Kafkasya Konservatuarı da denilir.

Bu arada Şuşa şehrinin işgalden kurtarılmasının ardından "Vagif Şiir Günleri"nin yeniden canlandırılması da bu açıdan önemlidir ve bu örneğin yerel turizmin geliştirilmesine uygulanması en kısa sürede meyvesini verecektir (Namazova, Tağıyev, 2023: 11-15). Bölgelerde kültürel etkinliklerin düzenlenmesi iç turizmin artmasına ve bölge ekonomisine olumlu etki yapacaktır.

Tarihsel olarak dünyaca ünlü şair ve yazarların bulunduğu şehirlerde edebi faaliyetlerin düzenlenmesi oldukça önemlidir. "Vagif Şiir Günleri"nin restorasyonu diğer şehirlere de örnek teşkil edebilir. Bazı bölgelerimizde edebi etkinlikler ve festivallerin düzenlenmesi, bölgelerin ekonomik büyümesine katkı sağlayacak ve kültür temelli alanların gelişmesine katkıda bulunacaktır. Ayrıca bu festivallerin ortak

kültürel bağa sahip olan Türk devletleriyle birlikte düzenlenmesi, Türk devletleri arasındaki manevi bağları güçlendirecek ve Türk devletlerinden turist akışını güçlendirecektir.

Yöntem

Son iki yüz yılda Azerbaycan'ın hiçbir köşesi Karabağ kadar halkın düşünce ve fikirlerine hakim olmamıştır. Bu süreçte sanat sözcüğü, edebiyat her zaman yol gösterici olmuştur.

Abartmadan diyebiliriz ki, Karabağ'ı sanatsal ve şiirsel açıdan yansıtan bir kütüphane büyüklüğünde eserler vardır. Elbette o kütüphanedeki eserlerin tamamının sanatsal düzeyi yüksek olduğunu söylemek zor. Ancak onların ciltlerle kitaplara eşdeğer olduklarına şüphe yoktur.

Cesur halkı, zengin tarihi, büyüleyici doğası ve yüksek ahlaki değerleriyle Karabağ, çeşitli tür ve içerikte yazılmış yüzlerce esere konu olmuş, edebiyat ve sanatın, milli kültürün beşiği statüsünü gururla taşımıştır.

Bulgular

Bir zamanlar Karabağ Hanlığı'nın veziri olan Molla Penah Vagif (1707-1797), Karabağ konusunu edebiyata kazandıran ilk yazarlardan biri sayıla bilir. Koşma ve geraylılarında Karabağ güzellerinin eşsiz portrelerini ustalıkla yaratmıştır.

Gasım Bey Zakir (1784-1857) şiirsel eserlerinde Karabağ'da yaşanan sosyo-politik süreçlerin ve çağdaş yaşam olaylarının anlatımına daha çok önem vermiştir.

Zakir, şiirsel mektupları, hiciv ve alegorik eserlerinde bölgede halkımıza karşı oynanan sinsi oyunların gerçek resmini canlandırmış ve gerçek mahiyetini göstermeye çalışmıştır. Karabağ Hanlığı'nın işgali, ermenilerin kitlesel olarak bu topraklara nakledilmesi ve bu toprakların gerçek sahiplerine en kısa sürede isyan etmeleri, diğer yüzbinlerce yurttaşı gibi Zakir'in hayatında da ağır izler bırakmıştır. Haksız zulme, kötülüğe ve iftiralara maruz kalan, evinden kovulan, yakınlarını kaybeden Gasım Bey Zakir, gerçekçi şiirleriyle Karabağ'ın sosyo-politik manzarasını bir bütün olarak oluşturmuştur. Bu sahnenin tek tek satırlarının ilk kez Vagif'in şiirlerinde çizildiği doğrudur. Ancak bir şair olarak Zakir, o zamanın gerçek bir şiirsel tarihçesini yaratmayı en önemli

görev olarak görüyordu.

XIX. Yüzyılın ikinci yarısında Karabağ'da büyüyen Necef bey Vezirov (1854–1926), Ahmed bey Ağaoğlu (1869–1939), Abdurrahim bey Hagverdiyev (1870–1933), Haşim bey Vezirov (1867–1916) ve XX. Yüzyılın başlarında yeni çağ ve şartlara göre yetişmişler, Rusya ve Avrupa'da fırsatları değerlendirip yüksek öğrenim görmelerine rağmen vatanlarıyla bağlarını hiçbir zaman kaybetmemişlerdir.

Edebiyatta Mirze Feteli Ahundzade yaratıcı ekolünün takipçisi olarak öne çıkan ve dramaturjinin dikkat çekici örneklerini yaratan Necef Bey Vezirov, yaratıcılığının ilk döneminde yazdığı tema ve tiplerin çoğunu derinden aşina olduğu Karabağ ortamından almıştır.

Ahmet Bey Ağaoğlu'nun eserlerinde Karabağ konusu önemli bir yer tutar. Karabağ yaşamının çeşitli yönlerine ilişkin onlarca yazısı "Kavkaz", "Kaspi", "Hayat", "İrşad" gibi gazetelerde yayınlanmıştır. Bu yazılarda Karabağ'ın ve genel olarak o bölgenin, tüm Azerbaycan'ın karşılaştığı sosyo-politik, sosyo-ekonomik, kültürel-manevi sorunlar yeniden gündeme getirilmiştir. Ağaoğlu, Türkiye'de yazdığı "Altmış Yedi Yıl Sonra" anılarında Şuşa'daki çocukluk yıllarını anlatmıştır.

Abdurrahim Bey Hagverdiyev de pek çok eserinin temalarını, karakterlerini çok yakından tanıdığı Karabağ hayatından almıştır. Doğduğu yer olan Şuşa, yaratıcılığının olgunlaşma dönemi sayılan 1911-1916 yılları arasında yaşadığı Ağdam, yıllarca onun ilham kaynağı olmuştur.

Yazarın "Ağa Muhammed Şah Kaçar" trajedisinde Karabağ tarihinin önemli anlarına ve Karabağ gerçeğine de değinilmiştir. Yazarın "Dağılan Tifak", "Bahtsız Cavan", "Ağaç Gölgesinde", "Koca Tarzen", "Köhne Dudman" vb. dram eserlerinde, "Mozalan Bey'in Seyahatnamesi", "Marallarım", "Mirze Safer", "Şeyh Şaban", "Ovçu Gasım" gibi hikayelerinde Karabağ'ın çevresi canlı bir şekilde tasvir edilmiştir.

Tanınmış yazar Celil Memmedguluzade (1869-1932), "Molla Nasreddin" koleksiyonunda Azerbaycanlıların Karabağ, Zengezur ve diğer yerlerde karşı karşıya kaldığı sinsi ermeni zulmüne ilişkin düzinelerce tefrika ve gazetecilik makalesinin yazarı olarak da biliniyordu.

Mirze Celil tek perdelik "Kamança" adlı oyununda Şuşa'da yaşanan

“ermeni-Müslüman” çatışmasının sahnesini ustalıkla yeniden canlandırmıştır. Bu derin mazmunlu eserde Azerbaycan halkının yüksek ahlaki vasıfları Kahraman yüzbaşının şahsında özetlenmektedir.

Karabağ teması klasik düzyazıda, şiir ve dramada, gazetecilikte başarılı ve yaratıcı bir şekilde sürdürülmüştür. Yusif Vezir Çemenzeminli`nin (1887-1942) “İki Od Arasında” adını taşıyan “Kan İçinde” adlı romanı, Sovyet döneminde bu konuda yazılan eserlerin öne çıkanlarından biriydi.

Edebi yaratıcılığının başlangıcında derinden aşina olduğu Karabağ, özellikle Şuşa hayatından çok sayıda gerçekçi hikaye yazan yazar, bölgenin siyasi gerçeklerine destansı bir biçimde ve tarihsel bir perspektiften yaklaşmıştır.

Romanda Karabağ Hanlığı'nın veziri şair Molla Penah Vagif, canlandırılan karmaşık süreçlerin merkezinde yer almaktadır. Topraklarını iki yangından kurtarmaya, Rusya ve İran'ın baskısından korumaya çalışan Vagif, hanlığın siyasi bağımsızlığının savunucusu olarak hareket etmiştir. Şuşa'nın çevresinin özellikleri, karakteri ve tipleri yazarın sunumuna ustaca yansıtılmıştır.

Eyyub Abbasov'un (1905-1957) halen geçerliliğini koruyan iki ciltlik romanı “Zengezur”, yazarın anısına ve kaynaklarına dayanarak XX. Yüzyılın başında ermeni vandallarının Azerbaycan'da işlediği akıl almaz suçları anlatır.

Eserden de görüldüğü gibi ermeni mezalimi ağırlıklı olarak Zengezur'da yaşanmış olsa da olaylar Karabağ'ın da aynı derecede karakteristik özelliğidir.

“Zengezur” romanında korkunç hayatları anlatılan halk yazarları Süleyman Rehimov (1900-1983) ve Ali Veliyev (1901-1983), gençliklerini Karabağ'da geçirmişlerdir. Onlar Karabağ'da eğitim ve kamu hizmetinde çalışmışlar. Hafızalarında kalıcı iz bırakan kanlı yıllar, o yerin insanı, daha sonra karşılaştıkları olaylar, her iki yazarın da edebi yaratıcılığına zengin bir malzeme sağlamıştır. Bu anlamda Süleyman Rehimov'un çok ciltli eserleri “Şamo” ve “Saçlı”, kısa öyküsü “Mehman”, Ali Veliyev'in anı türünde yazılmış “Budağın Hatıraları” adlı romanının, Karabağ ortamı ve gerçekleri dışında sayısız hikaye ve gazetecilik eserinin yaratıldığını hayal etmek çok zor.

Halk yazarı İlyas Efendiyev (1914-1997), hem düzyazı hem de

drama eserlerinde sürekli Karabağ konusunu işleyen önde gelen sanatçılardan biriydi. İlk kitabı "Köyden Mektuplar" ile başlayan yaratıcı yol, daha sonra "Söğütlü Arh", "Sarıköynekle Valeh`in Nağılı" gibi lirik-romantik düzyazı eserlerinde, "Mahnı Dağlarda Kaldı", "Hurşutbanu Natavan", "Hükümdar ve Kızı" tarihi dramalarında başarıyla devam etmiştir.

İlyas Efendiyev, hayatının son döneminde doğup büyüdüğü Karabağ halkının hayatını, sakinlerinin ilişkilerini ve cesaretlerini birlik şeklinde "Geriye Bakma Goca", "Üçatılan" roman ve öykülerinde anlatmıştır.

İlyas Efendiyev'in son draması "Hükümdar ve Kızı" onun Karabağ'a olan sonsuz sevgisini ve dramaturjiye olan bağlılığını gösterir.

Yazarın İbrahim Han'ın hayatına ve faaliyetlerine adanan eserinde gelişen olaylar, 18. yüzyılın sosyal ve siyasi ortamını tam olarak yansıtmaktadır.

O dönemde Rusya ile İran arasında Azerbaycan'ı nüfuz altına almak için verilen kıyasıya mücadele Rusya lehine sonuçlanmıştı. Rusya, Azerbaycan'ı koruması altına alma adı altında sürekli olarak hanlıkların topraklarını işgal ediyordu.

"Hükümdar va Kızı" İlyas Efendiyev'in tarihi bir tema üzerine yazdığı son tam tiyatro oyunu olarak kabul edilir. Eser "Karabağname" ismiyle bilinmektedir.

Görüldüğü gibi Karabağ konusu sanatçının eserlerinde önemli bir yer tutmuştur. Geçtiğimiz yüzyılın 90'lı yıllarında başlayan hain komşularımızın ihanet ve işgal niyetlerini gerçek sivil vatandaş olarak takip ederek Karabağ'ın kadim tarihini eserlerinde hassasiyetle canlandırmıştır.

İlyas Efendiyev'in "Hükümdar ve Kızı" adlı oyununda sanatsal hayal gücü, tarihsel gerçeğin anlam ve içeriğiyle ilişkilendirilir. Hatta "Hükümdar ve Kızı" adlı oyundan sonra ulusal dramamızda bu yaratıcı eğilim güçlenmeye başladı.

Bu açıdan Profesör Tayyar Salamoğlu, İlyas Efendiyev'in dramasının milli kaderimizin trajik deneyimlerini ön plana çıkardığını ve karakterlerin bu yönde geliştiğini vurgular:

"İlyas Efendiyev'in daha sonraki tarihi dramalarında Büyük Bey ve

Şehnaz karakteri olarak Natavan, Seyyid Hüseyin (Hurşudbanu Natavan), Hiyabani, Sarı Merdan, Hacı Ferhad, Seher (Şeyh Hiyabani), Cavad Han, Hüseyngulu Han, Saday Bey, Tubu Hanım, Ağabeyim Ağa (Hükümdar ve Kızı) imgeleriyle tipolojik olarak bütünleşmiştir" (Salamoğlu, 2012: 221).

Bu arada Karabağ topraklarında yaşanan acı ve ıstırapları anlatan "Hükümdar ve Kızı" oyunu, yazarın "Azerbaycan devletinin korunması ve milli birliğin sağlanması konusunda gelecek nesillere son sözü ve vasiyetidir".

"Karabağname" eseri Karabağ gerçeklerinin dünyaya duyurulması ve tarihimizin tanıtılması yönünde önem taşımaktadır. Profesör Yaşar Garayev, İlyas Efendiyev'in sanat eserini sekizinci "Karabağname" olarak değerlendirmiş ve görüşünü şöyle özetlemiştir:

"Azerbaycan tarihine ilişkin klasik belgeler – yedi "Karabağnamesi" var. İlyas Efendiyev'in eserini sekizinci "Karabağname" olarak değerlendiriyorum" (Efendiyev, 2014: 41).

Yukarıda bahsedilenler, İlyas Efendiyev'in dramaturjisinin ve yazarın Karabağ konusuna ithaf ettiği eserlerin zamanla değerini ve güncelliğini kaybetmediğini, tam tersine okuyucu ve izleyicinin gözünde daha da yükseldiğini bir kez daha göstermektedir.

Sabir Ahmedov (1930–2009) memleketi Karabağ'a çok bağlıydı. Doğduğu yer olan Cebrail bölgesinin 1993 yılında işgal edilmesinin ardından yakınlarının mezarları ermeni hainler tarafından tahrip edilmiş, oğlu Birinci Karabağ Savaşı'nda Murov uğruna yapılan savaşlarda şehit düşmüştür.

Elbette tüm bunlar, yaratıcılığı boyunca sürekli ciddi sorunlara değinen yazarı üzmüştü. Hüzünlü bir ruh haliyle yazdığı Karabağ üçlemesi – "Ahirat Sevdası", "Kef", "Ömür Urası" romanları geleneksel konuya farklı bir bakış açısı yansıtmaktadır.

Halk yazarı Anar, "Üzeyir'in Ömrü" film senaryosunu, "Karabağ'ın Şikestesi" gibi eserleri ile 1988'den sonra siyasi ve sanatsal gazeteciliğin ilgi alanı haline gelen Karabağ konusuna yönelmiştir. Eserlerinin karakterlerini ve kahramanlarını modern temalarla Bakü çevresi ve Abşeron'un köylerinden seçen halk yazarı Elçin, geçen yüzyılın 90'lı yıllarından itibaren yüzünü Karabağ'a çevirdi. Yazar, Sovyet döneminin sonunda yazdığı lirik-psikolojik eserini "Şuşa`ya Duman Gelir" ardından

“Sarı Gelin”, “Karabağ Şikestesi”, “Bayragdar” vb. değerli eserlerini yazmıştır. Bu anlatım ve hikayelerde evlerini ve topraklarını kaybeden, kendi topraklarında sürgüne gönderilen Karabağ halkının yaşamı, duygu ve düşünceleri, geleceğe dair özlemleri sanatsal olarak yansıtılmıştır.

Halk yazarı İsa Muğanna'dan “Gebristan”, Fazıl Güney'den iki ciltlik “Kara Kan”, Nüşabe Memmedli`den “Zengule”, Salatın Ahmedova`nın “Kişilik Sengeri” romanları, Bahtiyar Sadıkov`un “Ruhlar Şehrinin Sakinleri”, Şamil Sadık ve Müşfig Han`ın “Umutların İzi İle”, Orhan Fikretoğlu`nun “Tek”, Çengiz Abdullayev`in “Eclafların Kanunu”, Şerif Ağayar`ın “Gülüstan”, “Arzulardan Sonraki Şeher”, Nigar Garayeva`nın “Daş Hasar”, Elhan Elatlı`nın “Cehnnemden Gelen Ses”, Serdar Amin`in “Garatoyuk Nağmesi”, Rasim Karaca`nın “Karabağ Dekameronu”, Elçin Mehreliyev`in “90`lı Yıllar”, Yusuf Ahmedov`un “Toprağa Dökülen Kan”, Elçin Hüseyinbeyli`nin “Kaçak Kocalar” romanları, hikayeleri ve oyunları Karabağ'ın edebi-tarihsel hafızasını canlı bir şekilde canlandıran güçlü, sanatsal örneklerdir.

Ali Amirli'nin “Ağdam'da Neyim Kaldı” adlı anı kitabı Karabağ'ın ruhuna dayanmaktadır. Konu oldukça üzücü olmasına rağmen, burada insanın duygu ve düşüncelerine dair tüm hususlar yeterince ele alınmıştır.

Farklı insanların yaşamlarını ve deneyimlerini anlatan bu eserin ana karakteri Ağdam'dır. Yazar, Karabağ'da sayısız kayıplarımıza rağmen bu imaj-şehri hiç unutulmayacak satırlarla hafızalara aktarmayı başarmıştır.

Yazar, “Ölü Doğan Şehir” adlı romanında ermeni haydutların vatanımıza yönelik provokasyonlarının resmini çizmiştir.

Agil Abbas edebi yaratıcılığa Karabağ'dan tüm Azerbaycan'a seslenen “Sona bülbüller” şarkısı ile tanınan Kadir Rüstemov hakkında kaleme aldığı “Evleri Köndelen Yar” eseri ile başlamıştır.

Daha sonraki dönemlerde onun verimli çalışmalarında Karabağ teması önemli bir yer tutmuştur. Yazar, “Çadırda Üzeyir Hacıbeyov Doğula Bilmez” romanında, yerinden edilmiş insanların sefil hayatından, “Dolu” romanında ise Ağdam için özverili mücadelelerden söz etmiştir.

“Dolu” aynı zamanda Karabağ savaşının yeniden canlandırıldığı az sayıdaki eserden biridir. Son otuz yıllık Azerbaycan edebiyatında görüldüğü gibi Karabağ konusu bütün edebi türlere hakim olmuştur.

Farklı çağların şairleri, nesir yazarları, oyun yazarları ve yayıncıları Karabağ'ı ve işgal altındaki topraklarımızı asla unutmadılar. Vatanını kaybetmiş, yerinden edilen soydaşlarımızın dramı edebi eserlerde her zaman ilgi odağı olmuştur. Bu konunun çeşitli yönleri düzyazıda, şiirde, dramaturjide ve edebiyat gazeteciliğinde ele alınmıştır.

Bu anlamda şiirde genel olarak Karabağ'a, Şuşa'ya hasret, Hocalı soykırımına, kaybettiğimiz vatanlarımızın yasını tutan, büyük geri dönüşe şiir ithaf etmeyen yazara rastlamamak mümkün değildir.

Son yıllardaki "Çadırlara Alışmayın", "Nesimi Pazarında" gibi etkili "Karabağ Poeziyası" örneklerinin yazarı, Halk şairi Gabilin'in "Umut Seneddir ancak, Azerbaycan Askeri!" mısra şiirimizde adeta atasözü haline gelmiştir.

Gabil, ilham vermek ve meydan okuma ruhuyla "Karabağ Şiirleri" serisinin yazarıdır. 1990'lı yıllarda "Çalsın Azerbaycan Haray Zengini!", "Bugün İdman Vahtı Değil!", "Geyret, a Vatandaşlar!", "Çalma, Gaboy!", "Hacalet", "Çadırlar", "Karanfillerden Uzak", "Haray, Telesin, Gelin", "Raks", "Yanık Keremi" gibi şiirler, insanın yaşadığı umutsuzluk ve belirsizlik korkusunu giderme yönünde gerçek bir alarm haline gelmiştir.

Bahtiyar Vahabzade, Halil Rıza Ulutürk, Musa Yagub, Sabir Rüstemhanlı, Zalimhan Yagub, Cabir Novruz, Memmed Aslan, Memmed Araz, Tofig Bayram gibi şairliği yüksek sanatçılarımız Karabağ ihtilafının başlangıcından bu yana popüler edebiyatın ön saflarında yer almıştır.

Şiirlerinde ülkemizin bu olağanüstü bölgesini övmekten geri durmadılar. Aynı zamanda okuyucuları mevcut koşullar hakkında bilinçlendirmeye çalıştılar. Vatanın başındaki kara bulutları, düşmanın kötü ve fitneci niyetlerini şiir diliyle anlatan söz ustalarının yaratıcılığında bu konu her zaman öncelikli olmuştur.

Soydaşlarımızı milli birlik ve beraberliğe çağıran çalışmalar, yerinden edilmiş kişilerin yüreklerinde umut ve inanç ışığı yaktı. Kısacası söz ehli, milli gururumuzun ve trajedimizin başlangıç noktası olan Karabağ'a olan ortak sevgiyi, bireysel ve özgün sanatsal renk ve boyalarla yansıtmaya çalışmıştır.

Sonuç

Savaşın en büyük insanlığa karşı suç olduğunu söylersek yetersiz kalmış olabiliriz. İnsanların hayatlarında açtığı yaralar yıllar, yüzyıllar boyunca tartışılabilir. Ancak tarihte savaşların kaçınılmaz olduğu zamanlar vardır. Özellikle devletlerin özgürlük ve bağımsızlık kazanma mücadelelerine savaşlar eşlik etmiştir.

Sovyet İmparatorluğu'nun yıkılması ve Azerbaycan'ın bağımsızlığını ilan etmesinden sonra, sinsi ve rezil komşularımız, tek tek devletlerin elinde alet haline gelen ermeniler, kadim vatanımız Karabağ'ı işgal etmek ve kirli çıkarlarını gerçekleştirmek için seferber oldular.

Vatanseverlik duygusu olmadan hiçbir millet, toprağıyla, milletiyle gurur duyamaz, onu hakkıyla koruyamaz. Karabağ konusunda yazılan çok sayıda eserde vatanseverlik duygusunun aşılanması ön planda tutulmuştur. İkinci Karabağ Savaşı'nda Anavatan uğruna canlarını feda eden kahramanlar, bu eserlerin manevi etkisiyle şekillenmiş ve olgunlaşmıştır.

En önemli sonuç, İkinci Karabağ Savaşı`nda Azerbaycan askerinin tarihi zaferinin otuz yılı aşkın süredirsinsi düşmanımızın işgal ettiği topraklarımızda Yeni Hayat, Halkın Büyük Dönüşü'nde şair ve yazarlarımız, kültür ve sanat şahsiyetlerimiz yüksek yaratıcı görevlerle karşı karşıya kalmış ve en önemlisi son yıllardaki olaylar onlara birçok konu kazandırmıştır. Bu açıdan bakıldığında tarihimizin şanlı bir sayfası olan Karabağ'ın edebiyatta, sanatsal analizlerde anlatımı özel ilgi görüyor ve bundan sonraki bilimsel araştırmaların tutarlı bir konusu olacağına eminiz!

KAYNAKÇA

1.Efendiyev, İ. (2014). Bibliografiya . Bakü: Zerdabi LTD.

2.Köçerli, F. (1978). Azerbaycan Edebiyatı. Bakü.

3.Salamoğlu, T. (2012). En Yeni Azerbaycan Edebiyatı Meseleleri. Bakü.

4.Namazova, S. Tağıyev, C. (2023). Kreatif İktisadiyata Edebiyat Tematikası Üzre Bakış. Kadim Diyar. Uluslararası çevrimiçi dergi. Bakü. Cilt: 5, sayı: 9, s. 11-15.

ZAMONAVIY O‘ZBEK ROMANCHILIGIGA BIR NAZAR

Manzura NARZIKULOVA[1]
Zebinisa RASULOVA[2]

Zamonaviy o‘zbek romanchiligi o‘z taraqqiyotining yuqori bosqichiga yetib kelganligini mutaxassislar e’tirof etishmoqda. Hozirgi kunda, roman mavzusining dolzarbligi yoki voqelar tabiatining qiziqarliligining o‘zi roman muvaffaqiyati uchun yetarli emasligi barchaga ma’lum. Yangilanayotgan tafakkur mahsuli bo‘lgan romanlarda ifoda usuli va qahramon ruhiyati tasvirida o‘ziga xos tasvir konsepsiyasidan foydalanganligi muhim hisoblanadi. So‘nggi yillarda adabiy jarayonga taqdim qilingan bir qator romanlar borki ularni adabiy jamoatchilik iliq kutib olganligini e’tirof etish lozim. Xususan, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, “Navoiy”, “Beruniy”, Луқмон Бўрихоннинг “Имом Мотуридий” романи, Jumaqul Qurbonovaning “Sardoba”, Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatlar girdobi”, “Узоқдаги Дилнура”, Nurilla Abbosxonning “Sho‘rqishloq”, Abduqayum Yo‘ldoshning “Bankir”, Наби Жалолиддиннинг “Урушнинг давоми”, “Умар Хайём” ва “Жаллод аёл” номли романлари, Жавлон Жовлиевнинг “Қўрқма” romanini tilga olish lozim.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev bu haqda shunday fikrni ilgari suradi: “Shunday davrda ijod qilish chekiga tushgan yozuvchilar o‘z atrofidagi odamlar va ularni yuzaga keltirgan hamda ular tomonidan yuzaga keltirilgan sharoitga kinoyaviy nazar tashlaydi va nuqsonlarni oshiribroq tasvirlashga moyil bo‘ladi. Ijodkor ochun miqyosida fikrlay boshlaganda, odamning tutumlari va olamning hodisalariga kinoyaviy yondashuv ustuvorlik qiladi. O‘zini o‘rab turgan ijtimoiy-milliy qobiqni yorib chiqqan ijodkorda hajviy-kinoyaviy tasvir

[1] Dr., Özbekistan Bilimler Akademisi Özbek Dili, Edebiyatı ve Folklor Enstitüsü kıdemli araştırmacı, filoloji bilimi uzmanı
mirzayeva-70@mail.ru
[2] Dr., rasulovazebinisa@gmail.com

asosiy ifoda vositasiga aylanadi. Negaki, bunday vaqtda estetik tafakkur voz kechilayotgan qadriyatlardan zada bo‘lgani holda o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan qadriyatlarni aniq tasavvur qilolmaydi. Shunisiyam borki, erkin odam hazil va kulgiga moyil bo‘ladi. O‘zbek tayanadigan ma’naviy oyinlarning qadimiyligi bilan globallashuv tufayli xalqning bugungi turmush yo‘siniga kirib kelayotgan yangi tutumlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik va o‘zgachaliklardan tug‘ilayotgan kulgili holatlarni aks ettirish “O‘zi uylanmagan sovchi” romanining bosh xususiyatidir.” Yozuvchi kulgi hosil qilishda zo‘rakilik va sun’iylikka yo‘l qo‘ymagani holda tasvirga olingan hamma narsada kulgi ko‘ra bilgan va ulardan kulgi chiqara olgan.” Darhaqiqat, romanda mayda ijtimoiy masalalar bilan o‘ralashib qolgan odamlarning axloq darajasi, moddiyatdan bo‘lak narsalar ikkinchi darajali deb qaralayotgan sharoitda ham ma’naviy qadriyatlarning ahamiyati badiiy ta’sirli ifodalarda aks ettirilgan.

Таниқли адабиётшунос олим Дилмурод Қуронов ўзининг “Мустақиллик даври ўзбек романчилигида бадиий ифоданинг янгиланиши” номли мақоласида XX асрнинг сўнгги йилларидан бошлаб ўзбек романчилигининг бадиий ифода тарзида поэтик шартлилик салмоғининг сезиларли даражада ортганлиги, рамзий-мажозий образлар асосига қурилган асарларнинг кўпайганлиги, модернистик изланишларга эътибор кучайганлиги ҳақида жиддий фикрларни илгари суради. Далил сифатида О.Мухтор, Т.Мурод, Х.Дўстмуҳаммад, Н.Эшонқул сингари кўплаб ёзувчиларнинг ижоди тилга олинади. Олим мустақиллик йиллари романчилигининг ўзига хос хусусиятларини қуйидаги тарзда умумлаштиради:

“Мустақиллик даври ўзбек романи деганимиз, аёнки, 80-йиллар романчилигининг бевосита давоми, янаям кенгроқ қарасак, XX аср романчилигининг вориси эканлиги шубҳасиз. Шунга кўра, ўтган қарийб чорак аср давомида миллий романчилигимизда сон жиҳатидан ҳам, сифат жиҳатидан ҳам жиддий силжиш бўлганини таъкидлаган ҳолда, бундай ўсиш заминида бой анъана ётганини эътироф этиш зарур бўлади. Бизнингча, барча камчилигу йўқотишлари билан ҳам, шўро даврида романчилигимиз реалистик адабиёт анъаналарини ўзлаштирди, воқеликни, олам ва одам моҳиятини бадиий идрок этишу мавжудликнинг долзарб муаммолари ҳақидаги ўйларни образлар орқали бадиий фалсафага дўндиришни ўрганди. Хусусан, “Ўтган кунлар” (А.Қодирий), “Кеча

ва кундуз” (Чўлпон), “Сароб” (А.Қаххор), “Қутлуғ қон” (Ойбек), “Диёнат” (О.Ёқубов), “Тушда кечган умрлар” (Ў.Ҳошимов), “Лолазор” (Мурод Муҳаммад Дўст) романлари реалистик идрокнинг гўзал намуналаридир. Зеро, уларда воқелик аслига монанд бир кўринишда акс этди – реал макон ва замонда кечган, ҳақиқатда юз бериши мумкин воқеалар тасвирланди, сизу биз кўрган-билган одамларга ўхшаш персонажлар ҳаракатланди.”

Айтиш мумкинки, мустақиллик даври романчилигининг ўзига хос хусусиятларидан бири ўтмишни бадиий тафаккур сузгичидан ўтказиш жараёни билан боғлиқ бўлди. Совет давридаги ижтимоий-сиёсий ҳаёт ёзувчилар томонидан бадиий баҳоланди. Олдин фақат ижобий бўёқларда тасвирланган “совет кишисининг бахти” шубҳа остига олинди. Натижада, ҳаётнинг у қадар “порлоқ” эмаслиги, совет кишиларининг ҳам асарларда тасвирланганидек бекаму кўст эмаслиги аён бўлди. Тоғай Муроднинг “Отамдан қолган далалар” романи совет сиёсатининг даҳшатли оқибатлари, халқларнинг бошига тушган адоқсиз зулм ва қийинчиликлар қаҳрамонларнинг бошидан ўтган воқеалар фонида очиб берилади.

Мустақиллик йилларида яратилган ва жиддий бадиий ҳодиса сифатида тилга олинадиган романлардан бири Исажон Султоннинг “Боқий дарбадар” романи ҳисобланади. Мутахассислар бу романга ўз баҳоларини бериб бўлганлар, албатта. Адабиётшунос Қ. Йўлдошев уларни умумлаштирган ҳолда шундай фикрни илгари сурган:

“Исажон Султоннинг “Боқий дарбадар” асари ўзбек романчилигида алоҳида воқеа бўлди. У инсон интеллекти, одамийлиги ва ёвузлиги имкониятлари ҳақидаги фалсафий-рамзий романдир. Романда одамзод пайдо бўлгандан буён унинг маънавиятини кемириб, тириклигида азобларга гирифтор қилиб, ўлгач, дўзах оловида куйишига сабаб бўлаётган манфаатпарастлик, қаноатсизлик ва нафс аталмиш иллатлар етовидаги кимсаларнинг қисмати акс эттирилган. Бу асар ҳар бир одам ва бутун башариятга қилинган огоҳлантириш, одамзодни ёвузлик ва ўз кучига ортиқча баҳо беришдан қайтаришга бўлган бир бадиий даъват десак, муболаға бўлмайди. Профессор Дилмурод Қуронов ва шоир Раҳимжон Раҳматнинг “Боқий дарбадар” асари ҳақидаги

мақолаларида асарга муайян ижодий тажрибанинг маҳсули сифатида қараш сезилади. Бизнингча, ёзувчи романда тасвирланиши лозим бўлган шахслар, уларнинг тақдирлари ва ҳолатларини шунчалар яққол ҳис қилганки, асар ўз шакли билан дунёга келган. Роман билан танишган ўқирманда, дастлаб асарнинг сюжет чизиғидаги етакчи йўналишлар, тимсолларнинг истак-уринишлари тасвири Чингиз Айтматовнинг Авдий ва Филофей каби қаҳрамонлари тутумларига ўхшаб кетади деган ўй келади. Лекин романдан келиб чиқадиган маъноларни чуқур идрок этиш натижасида киши Исажон Султон масаланинг моҳиятини исломий назар билан тўғри англаганини ҳис этади. Буюк иродага бўйсунган инсоннинг инсоф, имон ва эзгулиги бош қаҳрамон бўлган ушбу асарда руҳий тадқиқлардан кўра воқеалар тасвири етакчилик қилгандай туюлсада, воқеалар маконда эмас, ўқирманнинг қалби ва шуурида кечгани учун асар индивиднинг эпоси бўлмиш роман талабига тўла жавоб беради.”

Ўзбекистон халқ ёзувчиси Исажон Султон романчиликдаги маҳоратини “Алишер Навоий”, “Беруний” ва “Билга ҳоқон” романлари билан давом эттирди. Адибнинг тарихий мавзудаги романлар силсиласи ўзбек китобхонида бадиийлашган тарихий воқеликка қизиқишни кучайтирди, десак муболаға бўлмайди. Тарихий мавзуга эътибор ва талабнинг кучайиши бошқа адиблар ижодида ҳам шундай мавзудаги асарларнинг пайдо бўлишига сабаб бўлди. Бу борада Луқмон Бўрихоннинг “Имом Мотуридий” романини алоҳида эътироф этиш лозим. Луқмон Бўрихон мазкур романида ислом дунёсининг таниқли уламоси Имом Мотурудийнинг эътиқоди учун курашлари, ўша давр ижтимоий-сиёсий вазият ва илмий-маърифий фаолияти кучли бадиий тафаккур ҳосиласи сифатида ўртага чиқди. Jumaqul Qurbonovaning “Sardoba”, Zulfiya Qurolboy qizining “Узоқдаги Дилнура”, Nurilla Abbosxonning “Sho‘rqishloq”, Abduqayum Yo‘ldoshning “Bankir”, ҳамда Жавлон Жовлиевнинг “Қўрқма” romanлари ҳам тарихий ва замонавий мавзулардаги ижтимоий муаммоларга эътибор қаратиши билан диққатга молик.

2022-йилнинг китобхонлар томонидан энг яхши насрий асар сифатида тан олинган икки роман борки, улар ҳақида ҳали адабиётшунослар ўз баҳосини бериб улгуришмади. Ўзбекистон

ёзувчилар уюшмаси томонидан ўтказилган танловда ҳам наср бўйича Муҳаммад Алининг “Клеопатра” тарихий романи ҳамда Шаҳодат Исахонованинг “Нодираи Даврон” тарихий романлари юксак баҳоланди.

Тарихий романларнинг маҳоратли ёзувчиси Наби Жалолиддиннинг “Урушнинг давоми” романида Афғон урушининг даҳшатли ҳамда шафқатсиз манзаралари таъсирчан бадиий бўёқларда тасвирланади. Ёзувчининг ўзи тасвирланган урушда иштирок этганлиги боис воқеалар аниқ ва таъсирчан ифодаланган. Ёзувчи уруш қатнашчиси ва муаллиф сифатида урушнинг инсоният учун нечоғли буюк фожиа эканлигини бадиий тасвирлайди. Шунинг учун ҳам роман биографик услубда ёзилгандек таассурот уйғотади. Уруш воқеаларининг даҳшати ва умуман асарнинг мазмун-моҳияти ҳеч бир китобхонни бефарқ қолдирмайди. Адибнинг “Умар Хайём” романининг янгилиги ҳақида мунаққидлар “Хайём ила Ғаззолийни дўстлаштиради”, деган фикрни илгари суришди. Умар Хайёмнинг рубоийларини янгича талқин қил ва ўз тасаввуридан келиб чиқиб шоир образини яратди. Наби Жалолиддин тасвиридаги Умар Хайёмни китобхонлар илиқ кутиб олди. Адабиётшунослик илми эса Хайёмшуносликка қўшилган катта ҳисса сифатида баҳолади.

Жавлон Жовлиевнинг “Қўрқма” романи ёш авлоднинг миллат тақдирига бефарқ эмаслиги ва миллий қадриятларга эътиборининг ёрқин намунаси ҳисобланади. Адабиётшунос Баҳодир Каримов мазкур роман ҳақида “Қўрқма” янги даврнинг янги ва дардчил, янгича услубда ва ўзига хос янги оҳанг билан ёзилган янги романидир. Жавлон ўз фикри, нияти ифодаси учун шундай - ҳеч кимда ўйламаган бир бадиий усул-йўлни топибди. Янгилик топилдиқлар билан гўзал ва адабиётдаги оргиналлик тақлиддан қутилиш билан, янгича ранг билан бетакрор бўлади”, - дея юксак баҳолади. Олим романнинг жанри ҳақида сўз юритиб шундай ёзади: “Романда лирика билан фожеа уйғунлашиб кетади. Драматик турда трагикомедия деган жанр мавжуд. Лекин лиротрагик роман деган адабий-назарий тушунча мавжуд эмас. “Қўрқма” – шундай роман. Ровий кулиб яшайди, ўйланади, мудрайди, ухлайди, уйғонади. Дарвоқе, бу роман туш ва хуш, уйқу ва уйғоқлик, муҳаббат ва нафрат – шу каби бир қатор контрастлар уйғунлигидан майдонга келган. Шунинг учун ёзувчи ўз ровий қаҳрамони хаёлига истаган

бир ҳодисани сингдира олади ва буни ўқувчи жуда табиий, самимий қабул қилади. “Қўрқма” – ҳис-ҳаяжон романи. Ундаги бадиий ғоя кенг миқёсли, унда миллат ва Ватан дарди бор. Бу муаммо бугун ва бир аср олдинги ёшлар ҳаёти мисолида туш ва хуш оралиғида, тажоҳили орифона йўсинда баъзан пичинг ва кесатик қамровида бадиий ифода этилади. Муаллиф мудроқ кўнгилларни уйғотишни истайди; одамлар ўз яратилиш тийнатига чуқур назар солишини хоҳлайди.”

Хулоса қилиб айтганда, замонавий ўзбек романчилиги тарихида тилга олишга арзийдиган бадиий бақувват асарлар кўп. Устоз ёзувчиларнинг ижод ва маҳорат мактабидан сабоқ олиб улғаяётган ёш ёзувчилар ҳам миллат ардоқлаган қадриятларни қадрлаб, унга даҳлдор туйғу ва тушунчаларга бефарқ эмаслиги кишига умид ва ғурур бағишлайди. Ёзувчиларимиз инсон руҳий оламини бадиий кашф этиш йўлидан бориб, ҳаётни бор мураккаблиги ва теранлиги билан акс эттирувчи қатор асарлар яратмоқдалар. Инсон руҳиятидаги нозик тебранишларни ва умуминсоний қадриятларни бадиий тимсоллар воситасида очиш йўлидаги изланишлар адабиётда сифат ўзгаришларининг юз беришига замин яратмоқда.

JADID ADABIYOTI ŞAKLLANIŞ YO‘LI VA JADID HIKOYAÇILIGI ILK TAJRIBALARI

Şahnoza NAZAROVA[1]

O‘zbek Jadid Adabiyoti Va Davrlaştiriş Masalasi

Jahon adabiyotşunosligida jadidçilik harakati, jadid adabiyotini o‘rganişga doir eng yangi ilmiy izlanişlar natijasida quyidagi olti yo‘naliş ustuvor tadqiqot tarmog‘iga aylandi: 1) umumturk jadidçiligi falsafasi va mafkurasi (tarixiy-siyosiy-mafkuraviy jarayonlarni qamrab oladi); 2) umumturk jadid ziyolilarining muammolari (milliy, diniy, ijtimoiy jihatlarni, til-imlo-maorif, xotin-qizlar masalalarini nazarda tutadi); 3) umumturk jadid adabiyoti (şe’riyat, nasr, dramaturgiya, xalq og‘zaki ijodi, adabiy tanqid masalalari o‘rganiladi); 4) umumturk jadid matbuoti va naşr faoliyati; 5) xayriya va adabiy jamiyatlar, vaqflar, fondlar faoliyati; 6) umumturk jadid teatri va san’ati. Şunisi ahamiyatliki, jadid adabiyoti, ular badiiyatiga doir asosiy nazariy tadqiqotlar aynan O‘zbekistonda olib borilgan. Dunyo ilm-fani jadidçilik harakatlarini ko‘proq siyosiy-tarixiy jarayon sifatida o‘rganadi va manbalarga şu nuqtai nazardan yondaşadi. Endilikda, jadidçilik va jadid adabiyotiga doir ilmiy izlanişlar xalqaro miqyosda, erişilgan ilmiy natijalarni umumlaştiriş va qiyoslaş yo‘lidan bormoqda. Xalqaro fan tarmog‘i sifatida 2002-yildan beri an’anaviy tarzda Çağdaş Türklük Araştırmaları Sempozyumu – Zamonaviy turkologik tadqiqotlar simpoziumi o‘tkazib kelinadi. Bu galgi anjuman mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston milliy universiteti hamkorligida taşkil etildi. 2021-yilning 21-24 sentyabr kunlari bo‘lib o‘tgan simpoziumda yangi nazariy xulosalar, yangi manbalar tadqiqi natijasida mazkur soha o‘zining istiqbolli rejalarini belgilab oldi, oçiq turgan masalalarni birgalikda o‘rganiş, tadqiqotlar xaritasini kengaytiriş borasida xalqaro kelişuvlarga erişildi. Zero mazkur davrdagi har bir milliy adabiyotning yangilaniş omillari va tamoyillarini tadqiq etiş o‘şa milliy adabiyotning

[1] Filoloji bilimleri doktoru, Alisher Navoi adındaki Devlet Edebiyat Müzesi Bilim Kurulu üyesi, nazarxonova@mail.ru; +998 97 4708587.

dunyo adabiyotidagi o‘rni va qiyofasini belgilaşga imkon beradi. Bu davr nasri o‘ta keskin ijtimoiy-siyosiy jarayonlar şaroitida paydo bo‘ldi. Nasrning bugungi va ertangi holati aynan o‘tgan o‘şa davr aks-sadosidir. Ammo o‘zbek nasri, umuman, o‘zbek adabiyoti uçun eng muhim bo‘lgan bu davrning xolis tadqiqi mustaqillikka qadar çeklandi. Ularni ilmiy-nazariy baholaşda izçillik bilan iş tutilmadi. Şu ma’noda, davr nasrining o‘ziga xosliklar va ularning yuzaga kelişiga sabab bo‘lgan omillarni ilmiy-nazariy jihatdan to‘g‘ri baholaş muhim vazifalardan biri edi.

O‘zbek adabiyotşunosligida istiqlol şarofati bilan XX asr boşlari o‘zbek adabiyotini har jihatdan izçil o‘rganişning keng imkoniyatlari vujudga keldi. Xususan, badiiy ijod namunalarini turli metod va nazariy qaraşlar asosida tadqiq etiş yo‘llari tobora kengaymoqda. Bunday yondaşuv esa adabiy hodisalar genezisi, tarixiy taraqqiyot bosqiçlari va badiiyatini o‘rganişda, eng asosiysi, jadid nasrini milliy istiqlol ruhida talqin va tadqiq etişda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2021 yil 17 avgustdagi sonida berilgan savollarga bergan javobida deydi: “Bu ulug‘ zotlarning maqsadi — jaholat va qoloqlik girdobida qolib kelayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg‘or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbaşariy rivojlaniş yo‘liga olib çiqişdan iborat edi”. Istiqlol muhitida fikri yetilgan yangi avlod tadqiqotçilari endilikda bu borada o‘z so‘zini aytişi kerak. XX asr boşlari o‘zbek nasrining yangilaniş asoslarini, yangi tamsil, obrazlar olamini maxsus o‘ganiş o‘zbek adabiyotşunosligi oldida turgan qator masalalar yeçimida muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy davrlar çegarasini belgilaş, adabiy avlodlar zanjirini bir butun tasavvur qiliş, yangi manbalarni o‘ganiş, o‘rganilgan manbalarni qayta baholaş va ularning barçasini istiqlol muhitida qayta idrok etiş şular jumlasidandir.

O‘rta Osiyodagi tarixiy-siyosiy jarayonlardan xabardor mutaxasislar yaxşi bilişadiki, 1853-1991 yillarda Turkiston hududlari rus bosqinçilari qo‘l ostida bo‘ldi. Mayda xonlik, amirlik, bekliklarga bo‘linib ketgan Turkiston zaiflaşib qolgan va mavjud kuçlarni yetarliça birlaştira olmagan edi. Bu zaiflik adabiyotda ham aks etdi. Tarixi Bilgaxoqon, To‘nyuquq, Irq bitigidan boşlangan, XV asrda o‘z rivojining ço‘qqisiga çiqqan o‘zbek adabiyoti ham bu davrga kelib zerikib, esnay boşladi, tor an’analar, saroy devorlari içida qolib ketdi. Adabiyot yo‘lida davom etişi uçun endi o‘zini to‘la isloh etişi zarur edi. Ammo istibdod,

pasayib borayotgan madaniy hayot bunga doim ham imkon bermadi. Şunga qaramasdan, Turkistondan dunyoning turli o‘lkalariga sayohat qilgan savdogarlar, olimlar, ziyolilar rivojlanayotgan dunyo xabarlarini, gazeta-jurnallarini olib kelar, Turkistonni uyg‘otişni istar edilar.

XIX asrning oxiri va XX asrning birinçi çoragida yuz bergan milliy uyg‘oniş davri XVIII asrda Yevropada keng quloç yoygan ma’rifatparvarlik harakatiga o‘xşaş bo‘lsa-da, biz uni bevosita Yevropadagi turli siyosiy o‘zgarişlar ta’sirida yuzaga keldi, deyolmaymiz. U mumtoz adabiyotga, ko‘p jihatdan Navoiy an’analariga bog‘langan ma’rifatparvarlik adabiyoti; so‘ng milliy uyg‘oniş kayfiyatidagi tatar, turk, ozar adabiyotlari ta’sirida şakllandi. Ayni jihatiga ko‘ra jadidçilik o‘z ma’naviy ildizlariga ega edi.

Bu davr o‘zbek adabiyoti va adabiyotşunosligida eng murakkab hamda ziddiyatli davrni taşkil qiladi. Aynan mana şu davrda mumtoz adabiyot yangi adabiyotga, an’analar ta’sirida qolgan ijodkor yangi qonuniyatlarga, xalq esa millatga aylana bordi. Bundan avvalgi o‘zbek adabiyoti taraqqiyoti bosqiçlari bir davrdan ikkinçi davrga asrlar davomida o‘tib borgan bo‘lsa, endigi o‘tiş juda qisqa, juda tig‘iz vaqt oralig‘ida sodir bo‘ldi. Mumtoz adabiyot ma’rifatparvarlik adabiyotiga, ma’rifatparvarlik jadid adabiyotiga singib ketdi. Şakllar, poetik obrazlar ma’nodorligi tinimsiz kengayib, torayib, yangilanib bordi, yangilanişga sabab bo‘lgan inkor zanjiri hosil bo‘ldi. Jadid adabiyoti ikki turg‘unlik o‘rtasidagi yaşaş, yoşariş davri edi. Mumtoz adabiyot o‘z yuksak maqomiga yetgan va endilikda yangilanişga muhtoj holatga kelgandi. Juda ko‘p omillar ta’sirida yangi adabiyot yaratildi, illo u zarurat edi. Ammo undan keyin yana uzoq yillarga ço‘zilgan turg‘unlik, ikkilaniş yillari boşlanib ketdi. Bu tarixda “sovet adabiyoti”, deya o‘rganilgan davr edi. Yangi milliy adabiyotga xos çinakam nafas yangi bo‘g‘inlarda sanoqli ijodkorlardagina davom etdi.

Iş avvalida muhim masalalar borki, hududiy va davriy çegaralarni aniq belgilab olişimiz kerak bo‘ladi. Endi adabiyot uç xonlik doirasida yakkalikda, xonliklar çegarasida qolib ketgan içki an’analar qolipida emas, kengroq va umumlaşgan geografik hududda faoliyat maydonlarini oçdi: Turkiston general gubernatorligi hamda Buxoro, Xivani qamrab oldi.

Davr çegarasi bo‘yiça qator çalkaşliklar va nomlanişda ham

muammoli o‘rinlar mavjud. Muayyan ijodkor fikriy o‘zgarişlariga qarab çegaralaş samarasiz. Ular doimiy fikriy yangilaniş va şaxs sifatida yetiliş, yagona to‘g‘ri yo‘lni izlaş va tanlaş taraddudida yaşab o‘tdilar. Ma’rifatparvarlar to‘laqonli jadidlarga aylanmadilar. Aniq yillar bilan çegaralasak, unda ham xato ketamizki, davr siyosiy-ijtimoiy-iqtisodiy voqeligi quroq xronologik manzarani hosil qiladi, çunki yangilaniş to‘lqinlari hududlarga teng vaqtda yetib bormagan. Masalaning ikkinçi tomoni davrlarni nomlaş va ularga yondaşiş bilan bog‘liq. Umumiy davrni *milliy uyg‘oniş davri* deb nomladik. Ammo ma’rifatparvarlik va yangi davr o‘zbek adabiyoti qorişiq holatda emas, ma’rifatparvar şoirlar ham, jadid şoirlar ham yagona milliy uyg‘oniş davri vakillari, biroq ularni farqlaşga asos beradigan omillar mavjud. Şu sabab milliy uyg‘oniş davri ilk bosqiçini – *ma’rifatparvarlik davri adabiyoti;* to‘la yangilaniş, taraqqiyot davrini *jadid adabiyoti* deya nomladik:

1) ma’rifatparvarlik davri adabiyoti (XIX asr oxirlari);

2) jadid adabiyoti (1905-1929):

a) qorişiq davr adabiyoti (mumtoz va yangi adabiyot o‘rtasidagi o‘tiş davri) – taraqqiyparvarlik davri (1905-1917);

b) yangi davr o‘zbek adabiyoti (1917-1929). Bizning tadqiqotimizda yangi davr o‘zbek şe’riyati vakillari – Fitrat, Ço‘lpon, Botu, Elbek merosi ob’ekt qilib olingan.

Ma’rifatparvarlik davri adabiyoti yangilaniş davri adabiyoti bo‘lsa-da, uning ilk bosqiçida hali Xiva, Buxoro, Qo‘qon adabiy muhiti çegaralari mustahkam, an’anaviylik va vorislikning ta’siri hali ham kuçli, natijada, uslubi bir-biriga o‘xşaş ijodkorlar avlodi yetişib çiqqan edi. Samarqand va markaz sifatida Toşkentda ham adabiy-madaniy muhit yaratilgandi. Devon adabiyotida şe’riyat asosiy o‘rinni egallar, aruz o‘z kuçini saqlab turgan va mumtoz poetik janrlar hamda şakllar faol qo‘llanar, yangi janr sifatida birgina sayohatnoma paydo bo‘lgandi. Devon tuziş an’anasiga qat’iy amal qilinar (g‘azal, ruboiy, tuyuq tarzida tartiblaş), salaflarga tatabbular yoziş mahorat mezoni sanalardi. Salaflar o‘rnida aksaran Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Munis, Ogahiy, Huvaydo qadrlanardi. Işq mavzusi yetakçilik qilar, diniy-tasavvufiy şe’rlar ko‘plab yaratilar, islom ma’rifati şe’riyat orqali yetkazib berilardi. Ikkinçi tomondan hajviyot rivoj topmoqda edi. Ular ilm kişilarining noçor ahvoli, hurriyat va isloh haqida so‘zlardi.

Xivada Komil Xorazmiy, Muhammad Rahimxon Feruz, Ahmad Tabibiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Muhammad Yusuf Çokar, Avaz O‘tar kabi ma’rifatparvar ijodkorlar o‘zlarida o‘zi mansub davr va muhitni to‘la aks ettirardi. Saroy adabiy muhitni boşqarar, majmua, tazkira va bayozlarga zo‘r berilardi. Buxoroda Abdulqodir Savdo, Ahmad Doniş, Jonmuhammad Joniy, Şamsiddin Şohin, Mirzo Sahbo ayni vazifani bajarar, Sadriddin Ayniy va Fitratlar uçun zamin hozirlardi. Qo‘qon adabiy muhiti Muqimiy, Furqat, Nisbatiy, Muhayyir, Muhyi, Xo‘jaxonxo‘ja Rojiy, Dilşod Otin, Nodim Namangoniy, Zavqiy, Haziniy, Anbar Otin, Ibrat kabi ko‘plab ijodkorlar yetovida borardi. Qo‘qon ma’rifatparvarlari ham an’analarga sodiqlikni saqlagan, an’anaviy epik ko‘lamga yaqin dostonlar (Umidiy Havoiyning “Maktubçai xon”, “Jangnoma” kabi) yaratilayotgan bo‘lsa-da, mazmun va şakldagi ilk yangilaniş aynan ularda kuzatiladi. Ma’lumki, davr nafasi va uning tahlili, hajvning kuçaya borişi bevosita Muqimiy, Furqat nomi bilan bog‘liq. Qo‘qon va Toşkent adabiy maktablari o‘rtasidagi muloqot kengroq yo‘lga qo‘yilgan edi.

Samarqandda Siddiqiy Ajziy, Saidahmad Vasliy, Oçildimurod Miriy; Toşkentda Almaiy, Kamiy, Saidrasul Aziziy, Miskin, Xislat; şuningdek, mutasavvif şoirlardan Yusuf Saryomiy yangi adabiyotni yo‘rgaklaşga hozir edi. Aynan ular asos solgan yangiça ma’rifatparvarlik yo‘nalişi rus va g‘arb adabiyotidan tarjimalar qilişni boşlab berdi.

Jadid adabiyotidan oldingi davrda, yuqorida aytib o‘tganimizdek, bir taraddud ko‘ramiz. Hatto zerikiş va kuçdan qoliş kuzatiladi. “Tazkirai Qayyumiy”ning II va III kitoblarida ma’rifatparvarlik adabiyoti namoyondalari bo‘lgan, barçalari ham keng o‘rganilmagan o‘ttizdan ortiq ijodkor tilga olinadi. Ammo “bir xil, bir xil” degan xulosaga kelamizki, tazkira Ço‘lpon iqrorlarini tasdiqlaydi.

Şu tariqa ma’rifatparvarlik adabiyoti şaklda emas, mazmunda yangilandi va jadid adabiyotiga kirib bordi. U mutlaq to‘xtab qolgani yoki mutlaq yangi adabiyotga aylangani yo‘q. Ma’rifatparvarlar yangi o‘zbek nasri maydonga kelgan davrlarda ham jadid nasri bilan yonma-yon bordi, o‘z vazifasini ado etişda davom etdi.

Jadid adabiyotining taraqqiyparvarlik davri 1905-1917 yillarga, ya’ni eng og‘ir, kuraşlarga to‘la va şu bilan birga eng qizg‘in davrga to‘g‘ri keladi. Ma’lumki, adabiyotning yangilanişi uning içki taraqqiyot

omillari hamda ijtimoiy-tarixiy şaroit bilan bog‘liq taşqi omillar ta’sirida yuz beradi. Biz o‘rganayotgan davr adabiyotida kapitalistik munosabatlarga o‘tiş va mustamlakaçilik siyosati ta’siri bo‘rtib ko‘rinadi. Yangilaniş uçun mos tarixiy şaroitning yetilişi, qaraşlar xilma-xilligi va keskinligi barobarida yagona maqsad – millatni yuksaltiriş masalasining asos muammoga aylanişi, ma’rifat targ‘iboti va noşirlik, mafkuraviy-g‘oyaviy-tarbiyaviy adabiyotni yaratişdagi intilişlar, ta’sirçan yangi poetik şakllarni izlab topiş, asardagi ziyoli (xoh mahalliy, xoh xorijlik bo‘lsin – Fitratning nasriy asarlaridan kelib çiqib uni ko‘proq xorijlik ziyoli, deya qabul qiliş to‘g‘riroq bo‘ladi) nigohi bilan voqelikni baholaş va asarni bahs maydoniga aylantiriş kabi omillar adabiyotni yangi sifat bosqiçiga olib çiqdi.

Adabiyotşunos S.Mirzaev davr manzarasini quyidagiça tuşuntiradi: “1905-1917 yillar jamiyatida turli pozitsiyada turgan ijtimoiy guruhlar bo‘lganidek, xilma-xil adabiy yo‘naliş va ijodiy to‘dalar ham bo‘lgan. Lekin ular orasida ijtimoiy hayotga, mehnatkaşlarning istaklariga eng yaqini va o‘şa davr muammolarini yeçiş yo‘llarini izçillik bilan qidirgani, hayotiy muammolarni baralla kuylagani, şubhasiz, jadid adabiyoti va jadid yozuvçilaridir” (Mirzayev, 2005, s.14). Yangilaniş yetilgan zarurat sabab, ham içdan, ham taşqaridan sodir bo‘layotgan edi. Taraqqiyparvarlar jamiyatni har bir jabhada isloh etişga kirişdi. Garçi ular ham fikr-qaraşlarda turliça pozitsiyada turgan bo‘lsa-da, yagona maslak – millat sifatida şakllaniş, birlaşiş va yuksaliş, ma’naviy erkinlikni qo‘lga kiritiş edi. Qarşilik kuçaya borgan sari harakat doiralari kengayib, yangi bosqiçga ko‘tarilaverdi.

1900-yillardagi iqtisodiy bo‘hron Turkiston, Kavkaz va Volgabo‘yi turkiy xalqlarining yagona taqdir egasi sifatida birlaşişlariga to‘siq bo‘lolmadi. Garçi Kavkaz va Volgabo‘yidagi islohotlardan ança orqada edik. Usmonçilik, islomçilik, turkçilik turli ko‘rinişlarda ta’sir doiralarini kengaytirib bordi, aytiş mumkinki, yangi o‘zbek adabiyoti me’morlari bu bosqiçlarning barçasini bosib o‘tdi. 1904-yilda Yaponiya bilan uruşda yengilgan Rossiya bo‘şab qolgan zahiralarini to‘ldiriş uçun bosimni kuçaytirgan bir paytda 1904-yildan 1907-yilgaça ço‘zilgan Nomoz Pirimqulov boşçiligidagi norozilik harakatlari avj oldi. 1904-yildan Turkistonda yaşirin “jadid to‘dalari” iş boşladi. 1905-1906 yillarda juda og‘ir şaroitda I, II Rusiya musulmonlari qurultoyi o‘tkazildi. 1905-yildagi Manifest bergan bir muddatli yengillik, muhimi, Turkistondagi

mavjud o‘zbekça naşr – “Turkiston viloyatining gazeti” bosilişi va Usmonli turk, Kavkaz, Volgabo‘yi matbuotçiligi jadid matbuotining şakllanişiga yo‘l oçdi, Turkiston matbuoti Umumrusiya musulmon matbuoti bilan qadam-baqadam bordi (Qosimov, 2002), s.36-37). 1906-yil “Taraqqiy” naşrini boşladi. 1909-yilda “Jamiyati xayriya” o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ydi va o‘zidan keyingi “Tarbiyai atfol”, “Turon” kabi jamiyatlar; şirkatlar, kutubxonalar hamda matbaaga yo‘l berdi. Umuman, 10-20 yillarda Turkiston matbuotida 300 dan ortiq vaqtli naşrlar mavjud edi (Boltaboyev, 2007, s.198). Ular milliy adabiyotning şakllanişi va rivojiga munosib hissa qo‘şdi.

Rossiya Birinçi jahon uruşi (1914-1918)ga tortilar ekan, Turkistondan ko‘z uzmadi, “aholining o‘y-fikri, duşmanlik kayfiyatini kuzatib boriş uçun” 1914-yilda “Favqulodda qo‘riqlanadigan” holat e’lon qilindi. Ta’qib va tazyiqlar ostida 1916-yilda mardikorlikka olişga qarşi xalq harakatga keldi. 1917-yil Fevral va Oktabr voqealari ta’sirida va Turkistonda yetilib kelayotgan ozodlik harakati natijasida 1917-yil 27-noyabrda Turkison muxtoriyati e’lon qilindi. O‘tgan bu vaqt içida taraqqiyparvar jadidlar maydonga çiqib keldi.

Taraqqiyparvar jadidlar hunarsizlik, tabaqalar tafovuti, ijtimoiy-maişiy muammolar, ayollar masalasi, din va ilm ma’rifati, maorif masalalariga diqqat qaratadi. Bu adabiyotda hali dag‘allik, to‘la estetik hodisaga aylanmagan jihatlar, Oktabr voqealaridan keyin tuşunçalarda yanglişiş va ikkilanişlar bo‘rtib ko‘ranadi. Şu jihatdan mumtoz an’analar tizimli davom ettirilgan, deya olmaymiz. Hatto mumtoz poetika qonuniyatlaridan birdan uzoqlaşiş, maişiy mavzularga beriliş adabiyotning estetik qimmatini bir qadar tuşirgan. Bu, albatta, yangilanayotgan, yangilanişi kerak bo‘lgan tafakkur va hayot tarzi bilan bog‘liq edi. Tayanç bilim – madrasa ta’limi va “ilmi bad’e” bo‘lgan bu ijodkorlar hali yagona g‘oya atrofida faol birlaşmagan, tuşunça hamda qaraşlarida ham ma’lum ziddiyatlar mavjud edi. Şu tariqa Turkiston adabiyoti sekin-asta yangilaniş bosqiçiga kirdi va bu tarixda jadid (yangi) adabiyoti nomini oldi.

Kitob Va Matbuot Naşrlarida Ilk Tajribalar

Ma’rifatparvarlik va taraqqiyparvarlik ijodiy intilişlari ta’sir zanjiri o‘zbek adabiyotida yangi şe’riyatni, yangi adabiy avlodni yuzaga keltirdi. Şuning barobarida, yangi o‘zbek adabiyotini şakllantirgan boşqa

omillar ham mavjudki, ular darslik va darslik-majmualardir. Munavvar qorining “Adibi avval”, “Adibi soniy” (1901-yildan naşri boşlangan), Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” (1902), A.Avloniyning “Birinçi muallim”, “Ikkinçi muallim” (1912), Elbek tomonidan boşlang‘iç maktablar uçun tuzilgan “Go‘zal yozg‘içlar” o‘quş kitobi (1925), Abdulhamid Sulaymon va Aşurali Zohiriy tomonidan talabalar, o‘qitg‘uçilar uçun tuzilgan “Adabiyot parçalari” (1926) kabi darslik-majmualariga kiritilgan ixçam hikoyalar, şe’rlar uzundan-uzoq bayondan xoli, hayotga, uning ijtimoiy muammolariga yaqin yangi didaktik adabiyotni yuzaga keltirdi.

Yangi adabiyotning yuzaga kelişidagi yana bir muhim omil – *milliy matbuot*dir. 10-20 yillarda davr-matbuot-adabiy jarayon zanjiri juda murakkab keçdi, o‘şa davrda Turkistonda mavjud bo‘lgan 300 dan ortiq vaqtli matbuot naşrlari yangilanayotgan adabiyotning mazmun va yo‘nalişi, til va uslubi, janr va mavzulari, badiiyatiga jiddiy tahrirlar kiritdi (Do‘stqorayev, 2009). Matbuot sahifalarida işqiy, ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy mavzudagi asarlar içida, tabiiy, ma’rifiy mavzu yetakçilik qildi. Satira yana kuçga kirdi.

“O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” tadqiqotidagi quyidagi fikrlar davr manzarasini yanada aniqroq tasavvur qilişga yo‘l oçadi: “XX asr boşlaridagi o‘zbek matbuotida “tanqid” rukni ostida, asosan, turli ijtimoiy-siyosiy, adabiy, axloqiy va diniy mavzudagi ilmiy, publitsistik maqolalar, feleton, oçerk, munozara şaklidagi çiqişlar kuzatildi. 20-yillarga kelib matbuotda “Tanqid va adabiy mubohasalar”, “Fanniy tekşirişlar”, “Matbuot va adabiyot”, “Sanoi nafisa olamida” kabi yangi ruknlar oçildi, ularda badiiy to‘plamlar, sahna asarlari, darsliklarga oid taqrizlar e’lon qilindi, obzor va muammoli maqolalar bosildi” (Nazarov va boş,. 2012, s.47). 1912-yildan matbuotning ikkinçi davri boşlangan, naşrlarda doimiy bo‘lmagan “Kiçik feleton”, “Adabiyot”, “Aş’or” (“Şe’r”) kabi ruknlar paydo bo‘lgan. “Oyina”ning “Adabiyot” ruknida adabiy-tanqidiy maqola va parçalar, taqriz va şe’riy asarlar e’lon qilingan. “Şe’r yozuvçilar diqqatina”, “Uçinçi adad “Oyina”dagi şe’rga taxmis”, “Muhtaram şuaromizga”, “Mubohasa”, “Turkistonda birinçi milliy tiyotr”, “Tanqid saralamoqdur”, “Mo‘tabar “Tarjumon” va Ismoilbek Gasprinskiy janoblari haqinda”, “Targ‘ib ba ilm va maorif”, “Hikmatlik so‘zlar” kabilar şular jumlasidan. Ularda yangi adabiyotşunoslik, xususan, yangi nasr, yangi şe’rga qo‘yilayotgan

talablar haqida bahs yuritiladi. Masalan, No‘şiravon Yovuşevning “Şe’r yozuvçilar diqqatina” maqolasida jurnalning ilk sonida bosilgan “Iltijo” musaddasi tahlilga tortilgan. Muallif şe’rni grammatik va ma’no jihatdan tahlil qilib, rus hamda arab şoirlarini namuna sifatida ko‘rsatadi, soddalik va barmoq istifodasi bugungi kun talabi ekanligini uqtiradi (Yo, 1913). Jurnalning 9-sonida Hoji Muin yengil-yelpi, hajv va madhiyadan iborat şe’rlarning ko‘payib ketayotganini tanqid qiladi, “fanniy, milliy va axloqiy şe’rlar” millatga manfaatli ekanligi, bunda tatar, ozarbayjon şoirlari namuna bo‘lişini uqtiradi: “...şe’rg‘a ham suiiste’mol qilinib, alalxusus, bu zamonda şe’r ta’rifi xat va xol, tavsifi may va jom yo ta’magirona madhiyot va g‘arazgarona hajviyotdan iborat bo‘lib qoldi” (Şukrulla, 1913). “Oyina” jurnali milliy ruhdagi asarlar targ‘ibotiga alohida e’tibor qaratadi.

Munavvar qori Abduraşidxonov, Behbudiy, Hoji Muin, Fitrat, Aşurali Zohiriy, Abdurauf Muzaffarzoda, Ahlulloh Haybullin, Rasuliy, No‘şiravon Yovuşev, Mirmuhsin Şermuhamedov, Sadriddin Ayniy, Vasliy kabi ziyolilar ma’rifiy bahslarda faol iştirok etib turgan. Şuningdek, muvaqqat naşrlarda nafaqat turkistonliklar, balki turk, tatar, afg‘on, eron yozuvçi-şoirlarining ijod namunalari bilan iştirok etişi jarayonga o‘z ta’sirin ko‘rsatgan.

“Sadoi Turkiston” gazetasi matbuot naşrlari içida o‘z yo‘nalişini qat’iy belgilab olganligi bilan alohida ajralib turadi. Bu uning milliy adabiyotga bo‘lgan munosabatida ko‘rinadi. 1914-yil 18-aprel 3-sonidayoq “Idoraga maktublar” ruknida andijonlik Abdulhamidning “Turkistonli qardoşlarimizga” nomli g‘azalini bosadi va uni “millatning saodati, rivoji va taraqqiysi uçun tug‘igan qahramonlar”dan deya taniştiradi. Gazetaning 3-iyun 15-sonida bo‘lsa yangi adabiy tafakkur ufqlarini oçgan “Adabiyot nadur?” maqolasi naşr etiladi. Tahririyat gazetaning 25-aprel 5-sonidayoq alohida murojaat bilan çiqadi: “Sadoi Turkiston”ni maqtamoq o‘rniga foydali milliy şe’rlar va adabiy maqolalar yozub millatni bedor qilmakka say’ etmaklarini orzu qilurmiz”.

Ma’lum bo‘ladiki, yangi o‘zbek adabiyoti paydo bo‘lişi arafasida an’ana va asllik o‘rtasida juda katta bahs-munozaralar bo‘lib o‘tgan va yangi o‘zbek adabiyoti modeli qanday bo‘lişi kerak, yangilanişning o‘zi qanaqa o‘lçov, degan savol jadid ziyolilar oldida ko‘ndalang turgan.

Yagona maqsadga qaratilgan umumlaşma mavzu paydo bo‘lgan. Bu o‘rinda yana bir muhim içki omil – xalq og‘zaki ijodining ta’siri xususida alohida to‘xtalmadikki, bu boradagi tadqiqotlar yetarli (Afoqova, 2005). Umuman, o‘zbek nasri yangilanişida içki omillar hukmron mavqega ega bo‘lgan, klassik bayon uslubi sekin-asta zamon şiddatiga mos tarzda şakl hamda mazmun kasb eta boşlagan. Şuning barobarida, turk, ozar, qozoq, qirg‘iz, turkman adabiyotidagi modernlaşuv va qardoş xalqlar adabiyotining jadid milliy matbuotida aks etişi, rus hamda jahon adabiyotidan qilingan tarjimalar g‘oya, şakl va mavzu, poetik obrazlar mundarijasida o‘zgariş yasadi. Milliy adabiyot uçun yangi bo‘lgan roman janri o‘zlaştirildi. Turk adabiyoti ta’siri A.Homid, T.Fikrat, Z.Tavfiq, tatar adabiyoti ta’siri A.To‘qay, Majid G‘afuriy, F.Amirxon, O.Ibrohimov (A.To‘qayning Hamza, Ço‘lpon ijodiga ta’siri), ozar adabiyoti ta’siri M.Hodiy ijodi orqali ko‘çib o‘tdi. Rus va jahon adabiyoti tajribalari Puşkin, Lermontov, Gogol, Krilov, Tolstoy, Nekrasov, Çexov, Gorkiy, S.Tretyakovdan ijodidan qilingan ilk tarjimalar orqali birma-bir milliy adabiyotga o‘zlaştirildi.

10-yillardagi adabiyot to‘la ma’noda ijtimoiy-siyosiy bir adabiyot edi. Adabiyot o‘z funksiyasidan taşqari vazifalarni ham yelkasiga oldi, yangi qurilajak davlat va jamiyatning siyosiy tuzumidan axloqiy hayotigaça, iqtisodidan madaniy turmuşigaça, maorifidan ayollar masalasigaça qamrab olişga tirişdi va, ehtimol, o‘zining asl tabiatidan bir muddat uzoqlaşdi. Adabiyotşunos D.Quronov yangi adabiyotning mazmun-mohiyatini belgilaşda ijtimoiy idealning estetik idealga aylanişi, ijtimoiy yo‘naltirilganlik, tematik jihatdan real hayotga yaqinlaşuv, mazmun va şaklning xalqçillaşuvini asosiy tamoyillar sifatida sanab o‘tadi (Quronov, 2005, s.14). Biz yuqorida bu jarayonni tizimli tarzda, avlodlar almaşunivida o‘ta siqiq holatda bo‘lsa-da, ko‘rib o‘tişga harakat qildik va asosiy ta’sir nuqtalarini sanab o‘tdik. Jadid adabiyotining ilk davri qorişiq, ya’ni mumtoz adabiyot an’analarini endigina isloh etayotgan, ma’rifatparvarlik davriga qattiq bog‘langan va hali to‘la yangi adabiyotga aylanmagan vaqt oralig‘ini qamrab oladi. Vadud Mahmud milliy uyg‘oniş davri adabiyotining ikki bo‘g‘inini juda aniq farqlaydi. Ma’rifatparvarlik adabiyoti va yangi o‘zbek adabiyoti o‘rtasida ko‘prik bo‘lgan taraqqiyparvarlik adabiyotini, ulardagi uslubiy o‘zgarişlarni tekşiradi. Natijada, “So‘fizoda, Siddiqiy Ajziy, Abdulla Avloniy, Sidqiy Xondayliqiy, Tavallo, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ikki davrga

ko‘prik bo‘lmiş şoirlar ijodida o‘şa adabiy voqelikni” kuzatiş mumkin bo‘ladi (Karimov, 1995, s.35-36). Taraqqiyparvarlik davri adabiyotining o‘ziga xosliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: ma’rifatni talqin etişning o‘zgarişi; istibdod fojialarini anglaş va kuraşga çaqiriq; davr voqealari ta’sirida g‘arblaşiş; g‘arb ilm-fani va islom axloqining umuminsoniy madaniy qiyofasini yaratiş; mazmun-mundarijaning kengayişi; davriy matbuot hamda teatr ta’sirida yangi adabiy tur va janrlar paydo bo‘lişi; yakka hukmron aruz yoniga barmoqning qo‘şilişi; sarbastda tajribalar qilinişi, mansuralar yozilişi; zamonaviy nasrning ilk tajribalari; an’anaviy timsollarning yangi mazmun ifoda eta borişi; şarq va g‘arb ifoda uslublarini birlaştiriş, jahon adabiyotiga qo‘şilib ketişga intiliş; til xususiyatlarining yagona maxrajga kela boşlaşi.

Sanab o‘tilgan jihatlar yangi o‘zbek adabiyoti zaminida yanada qat’iy qiyofa kasb etgan. Ammo uning to‘la amalga oşişi tizimli emas, şart-şaroit taqozosi bilan yuzaga çiqdi, doimiy ta’qib va çeklovlar yangilaniş maromiga doimiy ta’sir o‘tkazib turdi.

Yangi davr o‘zbek adabiyoti ayni quloçini yoza boşlagan 1918-yilda Turkiston muxtoriyati qonga botirildi. 19-22 fevral – uç kun davomida xunrezlik davom etdi va bu kuraşayotgan adabiyotni uzoq yillik yig‘i va siniqlikka to‘ldirdi.

Jadidlar endi boşqaça usulda iş boşladi. 1918-yil “Çig‘atoy gurungi” taşkiloti tuzildi. U endi murosa yo‘liga o‘tdi, butun kuç va g‘oyalarini adabiyotga, ayniqsa, şe’riyatga va ilmga ko‘çirişni rejalaştirdi. Şu asnoda yangi davr o‘zbek adabiyotining katta to‘lqini o‘z yo‘lida to‘xtab qolmadi. “Iştirokiyun”ning 1919-20 yillardagi sonlarida “Çig‘atoy gurungi” dasturi yo‘nalişida e’lon qilingan ko‘plab asarlar fikrimizning isbotidir. Bu g‘oyaviy butun, hurriyatni kuylovçi çinakam adabiyot edi, uni Fitrat, Ço‘lponning izdoşlari yaratdi. Hatto keyinçalik taşkil etilgan “Qizil qalam” jamiyati ham “Çig‘atoy gurungi”ning yangi bosqiçi sifatida faoliyat yuritişi ko‘zlangan edi. Ammo ayni o‘şa 1918-yillardan sotsilistik matbuot ham izga tuşa boşladiki, 1920-yilga borib sotsializm mustahkam oyoqqa turdi, bolşeviklar Buxoro va Xivani egalladi. Juda ko‘plab ijodkorlar hayotida yangliş tuşunçalar, ikkilaniş, tayinsizlik boşlandi. 1894-1904 yillarda jadid-qadim ziddiyati davom etgan bo‘lsa, 1919-1924 yillarga kelib ulamolarning o‘zi klerikal-qadimçi va taraqqiyparvar ulamolar deb ataluvçi ikki guruhga ajratildi.

“Oyina” jurnalining 1914-yil 22-sonida Ahmadjon Abdulfasih o‘g‘li “Qadim birla jadid” şe’rida dahanaki jangga aylanib ketgan, millatga heç bir foyda keltirmayotgan qadim va jadid bahslarini kuyinib qalamga oladi:

Ey qalam, sen so‘rmading millatlaringdin bir savol
Ul qadim birla jadidning işlaridin qiylu qol.
Ko‘b taloş etdi jahonda bir-birig‘a bahs etub
Ma’nisini bilmayub ko‘b soçdilar dunyo va mol...

1920-yildan jadid-qadim-sovet ziddiyati o‘rtaga çiqdi va siyosiy jarayonlar yanada murakkablaşdi. Siyosiy tazyiqlarga qaramay, 10-yillarda keng tomir otgan jadid adabiyoti 20-yillarda çinakam samaralarini berdi, aytiş mumkinki, qarşi turiş istagi uni to‘la şakllantirdi va rivojlaniş yo‘liga olib çiqdi. Bu davrda ham murakkab va ziddiyatli yangi adabiyot hanuz quroq holatda edi. Ijtimoiy-siyosiy adabiyot, sof adabiyot (ya’ni bayroqqa aylantirilmagan, o‘z dardi va o‘z yo‘li bilan ketayotgan), diniy-tasavvufiy adabiyot yonma-yon yaşardi. Adabiyotşunos B.Qosimovning quyidagi fikrlari e’tiborli: “To‘g‘ri, tatar hamkasblarimiz, xususan, I.Nurullin, Tataristonda jadidizm 1905-yilgaça ma’rifatparvarlik bilan birga edi, keyin ularda ajraliş yuz berdi, deb hisoblaydi. Ozarbayjonda ham uni, ehtimol, şunday bir bosqiçlarga bo‘liş mumkindir. Lekin bizda ulardan farqli ravişda bu harakat Oktabr inqilobi arafalarigaça aralaş keçdi. Negaki, o‘şa davr Turkistoni Kavkaz va Volgabo‘ylaridan qiyos qilib bo‘lmaydigan darajada orqada edi” (Qosimov, 2008, s.229-230). “Sayha” (Fitrat) mutolaasiga taqiq qo‘yilgan, Ço‘lpon bo‘lsa hali yoş edi. Yangi o‘zbek adabiyoti bora-bora Ço‘lpon, Abdulla Qodiriy ijodi sabab çinakam qiyofaga ega bo‘ldi, uzuq-yuluq intilişlar yagona kuçga aylandi. Fitrat va Ço‘lpon ta’siridagi sog‘lom avlodlar yetişib kela boşladi. Ularning safini Elbek, Bahrom Haydariy, Akmal Ikromov, Muhammad Said, Muhammad Ali, Sattor Jabbor, Botu, Safo Mug‘anniy, Muhammad Toji, Rafiq Mo‘min, Komil Devoniy, Husaynxon Niyoziy, Tangriqul Maqsudiy, Oybek kabi yoşlar to‘ldirib turar, o‘z yorug‘ tuyg‘ularini hurriyat bilan bog‘lagan edilar. Ammo bu to‘lqin g‘oyaviy buzilişlar, jismoniy yo‘q qilişlar orqali to‘xtatib qo‘yildi.

Jadidlar ilm orqali kelajakka sarmoya kiritişni ko‘zlar, bu sarmoya

barça yo‘qotişlarning o‘rnini to‘ldirişi kerak edi. 1922-yilda 60 talaba Germaniyaga o‘qişga kuzatildi. Şu yili yangi davr o‘zbek şe’riyatining qaldirg‘oçi – “O‘zbek yoş şoirlari” to‘plami naşr bo‘ldi. Ammo ikki yil o‘tmay, Turkiston beşga bo‘lib taşlandi, siyosiy o‘yinlar avj oldi – go‘yo “Yer islohoti” o‘tkazildi, xotin-qizlar “ozodligi” o‘rtaga çiqdi, “18 lar guruhi” masalasi ko‘rildi. Şunday şaroitda 1925-yilda yangi adabiyot maydonga kelib ulgurgan edi. Ikki tomon ham o‘ta xuşyor edi va bu davr bosimini, tezlikni oşirgandan-oşirardi. Jadidlar yangi hayot uçun har bir imkoniyat zarrasidan foydalansa, sovetlar misqolça siljişni ko‘zdan qoçirmas, erişilgan natijani yo‘qqa çiqarişni reja qilardi. 1926-yildan sovetlar millatçilik ayblovi bilan jadidlarga qarşi oçiqdan-oçiq ta’qibni boşladi, “Inog‘omovçilik” masalasi ko‘tarildi, 1927-yilda millat timsoliga aylangan Ço‘lpon Samarqandda qurultoyda obro‘sizlantirilib, tuproqqa qoriladi va 1929-yildan qatl maşinasi işga tuşdi. “Qosimovçilik”, “Munavvar qori to‘dasi” işi kommunistik diktatura to‘la kuçga kirganini anglatardi. 1926-yildan esa qadimçi ulamolarning quvvati kesib taşlandi, hibsda uşlab turildi, qamaldi, surgun qilindi. 1936-1937 yillarda har ikki qadimçi va taraqqiyparvar ulamolar guruhi vakillari deyarli qirib taşlandi. Şu yillardan e’tibor o‘zbek adabiyotida adabiy avlodlarning tanazzuli, adaşişlar davri boşlandi. “Tirik satrlar”ning guvohlik berişiça, keyingi avlod ijodkorlari o‘rtaça yoşi 30 ga ham yetmadi, ularning aksariyati qatag‘onlarda, bir qismi sil bilan og‘rib, omon qolganlari Ikkinçi jahon uruşi janggohlarida jon berdi.

Mavzuga daxldor tadqiqotlarda jadid adabiyotiga adabiy yo‘naliş, adabiy harakat, adabiy oqim sifatida qaraş kuzatiladi. Şunisi ma’lumki, u mumtoz adabiyotdan oziqlangan ma’rifatparvarlik adabiyoti hamda şunday kayfiyatdagi qardoş xalqlar matbuoti va adabiyoti ta’sirida şakllandi. Şu vajdan jadidçilik o‘z taraqqiyot asoslariga ega edi. Jadidçilik xalqning şonli tarixi va madaniyatini tiklaş, milliy darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratiş, til siyosatini yurgiziş, jahon adabiyotiga yaqinlaşiş, eng muhimi, istiqlol g‘oyasiga to‘yingan milliy adabiyotni oyoqqa qo‘yiş yo‘lidan bordi. Bu vazifalarni yangilangan şe’riyat dramaturgiya va nasrdan ham ko‘ra ko‘proq ado etdi. Garçi bir guruh olimlar bu davrda nasr yetakçi mavqeda turgan desalar-da, boşqa bir guruh olimlar şe’riyatni şunday baholaydi. Bu o‘rinda ham şe’riyatning an’anaviy yetakçilik mavqeyi, ham şe’riyatdagi an’anaviylikning dastlabki bosqiçda ustuvor bo‘lganligi anglaşiladi. Şuningdek, “Jadid

adabiyotining yetakçi sohasi şe'riyatdir. O‘zbek mumtoz şe'riyatidan ham vazn, ham til va uslub, ham g‘oyaviy jihatdan keskin farq qilgan jadid şe'riyati XX asr o‘zbek adabiyotining yangi yo‘nalişda ravnaq topişiga tamal toşini qo‘ydi", tarzidagi mulohaza davr şe'riyatiga xos qorişiqlikni, ya'ni an'ana va asllik masalalari birdek tadqiq qilinişi lozimligini uqtiradi (Karimob va boş., 1999, s.18). Jadid şe'riyati tadqiqotçisi N.Afoqova: "...eskilik va yangilik aynan jadid adiblari ijodida – şe'riyatda ro‘baro‘ keldi", deya yozar ekan, o‘z tadqiqotida buni vazn, şakl, qofiya nuqtai nazaridan asoslaydi (Afoqova, 2005, s.7-8). Şu o‘rinda yangi şe'riy şakllarning paydo bo‘lişida Yevropa adabiyoti ta'sirini ham aytib o‘tiş zarurati tug‘iladiki, şarq va g‘arb an'analarini birlaştiriş harakatlari kuzatildi. Ammo jadid nasri o‘z yangi an'analari, namunalarini yaratgan ediki, buni mutlaqo rad etib bo‘lmaydi. U jahon nasr amaliyotiga qo‘şila boşlagandi. Bu davrdan e'tiboran yangi o‘zbek adabiy tanqidçiligi ham paydo bo‘ldi va ijodiy namunalarni o‘z davridayoq baholay boşladi. 10-yillardan "tanqid" adabiy termin sifatida, adabiy tanqid ma'nosida qo‘llana boşlanganini hisobga olsak, şu davrdan e'tiboran sof ilmiylik tomon qadam taşlaganini anglaş mumkin. "Umuman olganda, asr boşlarida jadidlar adabiyotni keng ma'noda tuşunganlar. Adabiy janr hamda adabiyotşunoslik janrlari o‘zining aniq çegarasiga ega bo‘lmagan. Matbuot, adabiyotşunoslik, teatr, badiiy asarlarni adabiyot sifatida qaraşgan... Adabiyotning publitsistika bilan uzviyligi kuçaydi. Şu bois bu davr adabiyotida publitsistik va badiiy janrlar o‘rtasida çegara yo‘qoldi, bir-biriga o‘tib turdi... Ta'kidlaş kerakki, jadidlar, ko‘pinça, o‘z yozganlariga aniq bir janr belgilab o‘tmagan" (Egamqulova, 2021, s.23-24). Demak, şunday qorişiq va murakkab davrda jadid adabiyotşunosligi ham şakllanib, yangilanib bordi. Davr matbuotida e'lon qilingan adabiyotşunoslik masalalariga bag‘işlangan maqolalarni olim H.Boltaboyev ularning içki mundarijasidan kelib çiqqan holda tasniflaydi (Boltaboyev, 1996, s.21-22). Bu o‘rinda bizni jadid adabiyotşunosligining yangilanayotgan nasrga bo‘lgan munosabati ko‘proq qiziqtiradi.

Gazetada berilgan lirika namunalarida yangi o‘zbek nasriga xos ifoda tarzi, şakliy yangilanişlar kuzatilmaydi. Ularda, avvalo, fikr, mavzu katta kuç bilan yangilanayotganini ko‘ramiz. Şunday vaziyatda Ço‘lpon adabiyot nadir, degan savolni o‘rtaga qo‘yadi. "Sadoi Turkiston"ning 1914-yil 15-sonida bosilgan maşhur "Adabiyot nadir?" murojaat-

maqolasida muallif yangilanayotgan adabiyot o‘z oldiga qanday vazifalarni qo‘yişi kerakligini bir-bir sanab o‘tadi:

- adabiyot o‘zgarişi (“...aning to‘lquni odamning har xil maişatiga qarab o‘zgaradir”), juda katta ta’sir kuçiga ega bo‘lişi lozim (“...ruhimiz uçun ham şul qadar adabiyot kerakdir”);

- adabiyot o‘qilişi va u millatning ruhi so‘nib, umidsiz, maqsadsiz, hafsalasiz qolişiga yo‘l bermasligi kerak (“Adabiyot yaşasa, millat yaşar”);

- adabiyot ma’naviy tozariş va huşyorlikni ta’min etişi zarur (“...qonlarimizga qadar singişgan qora balçiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi”).

Ço‘lpon “ruh, his, tuyg‘u, fikr, ong va o‘y” beradigan adabiyotni yaratişni orzu qiladi. Ayrim bayozlaru bir-ikki kitob bilan bu işni bajarib bo‘lmasligini uqtiradi, tarixiy, adabiy maqolalar, şe’rlar yoziş, kitoblar tartib berişga targ‘ib qiladi. Murojaat so‘nggida qat’iy xulosaga keladi: “Yuragimiz kundan-kun toşdan ham qattig‘ bo‘lur. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo‘lmayluk... Hozirda bizga birdan-bir lozim bo‘lg‘on narsa – adabiyot, adabiyot, adabiyot”. Istibdod, qo‘rquv, xo‘rlaniş içida yuragi muzlab qolgan millatning ruhini uyg‘otişda Ço‘lpon yagona najot yo‘li sifatida adabiyotni ko‘radi. Uning “Yuragimiz kundan-kun toşdan ham qattig‘ bo‘lur” başorati, afsuski, bugun ham butun yer yuzida soat sayin o‘z tasdig‘ini topmoqda. Şunday ekan, Ço‘lpon tayin etgan vazifalarni adabiyot hali ham to‘xtovsiz ado etişga majbur. Gazetaning 1915-yil 58-soni “Idoraga maktublar” ruknida Ço‘lponning qalam ahli, ayniqsa, yoşlarga qaratilgan “Muhtaram yozg‘uvçilarimizg‘a” maqolasi bosilgan. Bu murojaat-maqolada ham Ço‘lpon yangi adabiyot va uning yaratuvçilari oldiga muhim bir vazifani qo‘yadi: adabiyot millatning nainki yaxşi, balki tuban hayotini (“...millatning eng tanqid qilaturg‘on o‘rinlari”) ham aks ettirişi, yozguvçilar materialni xalq içidan olişlari zarur (“...birga aralaşub yurmaklari kerakdur”).

Ço‘lpon fikriça, şundagina bu yo‘ldagi ehtiyojni bir qadar ado qilgan bo‘ladilar. Zotan, “Milliy maişatdan bezgan bilan bezilub, ko‘milub keta beradir”. Jadid nasri, ilk tajriba hikoyalar, safarnomalar, romanlarga (“O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan çayon”, “Keça va kunduz”) qaralsa, material, ya’ni syujet asosi va g‘oya aynan xalq hayoti, tarixiy

o‘tmişidan olingani ayon bo‘ladi. Ço‘lpon taşlagan tezis to‘la amaliyotga kirgan.

A.Xaybullin “Sadoi Turkiston”ning 48, 49-sonlarida “Tanqid” (“Nuqsonlar”) sarlavhasi ostida e’lon qilgan galdagi maqolasida o‘z adabiy qaraşlarini rivojlantiradi. Muallif zamonaviy asar yozuvçi yoki tarjima qiluvçilar, yanada açinarlisi, ularga ustozlik qiluvçilar yo‘qligidan, nazariy asoslar işlab çiqilmaganidan so‘zlaydi. Bahsga Aşurali Zohiriy qo‘şiladi, 49, 50-sonlarda bosilgan “Buyuk iltimos”g‘a javob oldinda”, “So‘nggi iltimosga javoblar” maqolasida yangi ijodkorlar avlodini yetiştiriş masalasini qo‘yadi. Muallif bu o‘rinda ham o‘z qaraşlarida qat’iy turadi, arabiy, forsiyni bilmasalar-da, yozganidan Turkiston manfaat ko‘rsa, u ijodkor ham ilm egalari safidadir, deya izoh beradi.

“Al-Isloh”ning 1916-yil 21-22 sonlarida bosilgan “Javonbozlik balosi” maqolasida muallif Abdurahmon Muftizoda Zavqiyga qarşi çiqib, “Maqsudxo‘ja hazratlarining maqolalari manzurimiz o‘lub suyuna-suyuna karrot-la o‘qidim”, deya yozadi. Maqolada “Olingiz ovrupolilardan Şiller ila Şekspiri. Boqingiz, arablarning al-Maarriylarina. Naqadar buyuk insoniyat dohiylari o‘zimizning-da adabiyoti milliyamiza tahqiq etmak, istifoda aylamak yo‘linda nazar etsak, Bedil kabi şoiri dohiymizning abyoti faylasufonalari oldida tiz ço‘kib ta’zim etmak lozim” kabi mulohazalar mavjudki, muallif garçi ulamo tarafida turib so‘z boşlasa-da, uni tor va biqiq fikrlagan, deya olmaymiz. Jadidlarning Bedilni yuksak baholagani, unga ergaşgani, Fitratning “Bedil” nomli alohida risola yaratgani va çuqur şarhlaganini hisobga olsak, Abdurahmon Muftizoda davr ziyolisi sifatida juda ko‘p ziddiyatli qaraşlarni o‘zidan o‘tkazayotgani, eski hamda yangi o‘rtasida turib yo‘l izlayotgani anglaşiladi. Umuman, “Al-Isloh” jurnalida e’lon qilingan namunalar din va adabiyot çegarasida qolgan ijodkorlarni, ulardagi fikriy yangilanişni kuzatiş imkonini beradi. Saidahmad Vasliy, Mulla Toşpo‘lat, Sidqiy Xondayliqiy, Kamiy, Ibrat, Abdulhaq Mahzumhoji o‘g‘li, Mirsardor Samarqandiy, Zafarxon Javhariy, Azmiy jurnal ta’sis etilişi munosabati bilan tabriklar yo‘llar ekan, naşrga xayrixohlik bildiradi. Adabiy parçalarda diniy, didaktik mazmun yetakçilik qiladi. Vasliyning ilm, hijob, ittifoq mavzusidagi, Kamiyning axloq, Mulla Bahriddinning namoz, Hayratiyning tanbeh, aza va motam, insof, ilm, Zafarxon Javhariyning mavludi şarif, Mubaşşirxon Saidxon eşonning

oxirat, ibodat, Mulla Muftizoda va Mirzaahrorzodaning ilm va kitob haqidagi asarlarida ko‘proq ma’rifatparvarlik yo‘nalişi namoyon bo‘ladi, taraqqiyparvarlik g‘oyalari u qadar bo‘rtib ko‘rinmaydi. Hatto Tavallo ham jurnalda millat taraqqiysidan ko‘ra hijob mavzusidagi asarlarini e’lon qilişni lozim topgan. Birgina Hamza millat holidan şikoyat qilib, jurnalga murojaat yo‘llagan. “Yangi asarlar” ruknida bo‘lsa Abdulmannob qori Mirzaahmad yangi çiqqan diniy-ma’rifiy kitoblar bilan jurnalxonlarni taniştiradi. 1917-yilga kelib jurnalning mavzu va mazmun mundarijasi yangilanişni boşlagan. Adabiy jarayonni jonlantiriş uçun 1917-yil 4, 5, 6, 11-sonlarda “Şo‘ro” jurnalidan olingan “Adabiy şijoat” sarlavhali turkum maqolalar ham bosilgan. Mundarijaviy yangilaniş adabiy asarlarda ham aks etadi. 1917-yil 1-aprel 7-sonda Abduşokirning “Hurriyat” haqinda” suyunç musaddasi, ayni sonda Tavalloning munojoti çop etilgan. Tavallo o‘z munojotida yaratgandan millatning ilmsizligi uçun avf va najot so‘raydi. 8-sonda Vasliyning, Hayratiyning, 10-sonda Javhariyning “Hurriyat” çiqqani munosabati bilan tabriklari berilgan bo‘lib, bular islom eliga, bora-bora millatga murojaatga aylangan. Umuman, ma’rifiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy mavzuning yetakçilik qilişi jurnalning o‘ziga xos naşr yo‘nalişi va umumiy mundarijasi bilan ham bog‘liq, albatta. Eng muhimi, bir guruh ulamo, madrasa muallimlari ham millat taraqqiysiga xizmat qiladigan ziyolilar safida bo‘lişga intildi, buni şe’rlarida ifoda etdi.

Fitrat qalamiga mansub “Yurt qayg‘usi” katta turkumi to‘rtta soçma va bir şe’rdan iborat bo‘lib, to‘rttasi “Hurriyat” gazetasining 1917-yil sonlarida, beşinçi şe’r 1920-yil 5-oktabrda “Buxoro axbori” gazetasida e’lon qilingan. Mazkur turkumlikka kiruvçi uç soçma e’lon qilinişi bilan bu nom gazetaning alohida rukniga aylandi. “Hurriyat”ning 1917-yil 3-noyabr 48-sonida Mirmuhsin Şermuhamedovning “Yurt qayg‘usi” soçmasi bosilgan. Asardan muallif Fitratdan qattiq mutaassir bo‘lgani, unga ixlos bilan qaragani sezilib turadi. M.Şermuhamedov Fitrat kabi umumiy nomdan so‘ng qavs içida “Ey Turkiston!” izohini keltiradi. Muallif nainki nom va izoh beriş tarzida, balki juda ko‘p jihatlardan Fitratga ergaşadi:

– asar to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat şakli bilan boşlanadi: “Ey Turkiston!”;

– şonli moziyga “sayohat” qilinadi: “Sening şonli moziyingg‘a

hassos qalbim ila boş egib, porloq va umidli istiqbolingg‘a oçiq fikrim ila ko‘z tikaman!”;

– Temur, Çingiz obrazlariga murojaat qilinadi, şuning barobarida Ibn Sino, Forobiy obrazi olib kiriladi: “Turklikning so‘ng dohiy va qahramoni bo‘lg‘an Çingizlar, Temurlar sening ustingdan yurub har tarafni fath etar edilar... Ibn Sino va Forobiy kabi dohiylar, faylasuflar, hakimlar... har zaminga... ilmlarin soçg‘on emasmi edilar?”;

– ritorik so‘roqlar asosida uslubiy taranglikni yaratiş: “Ayt! Sening ul vaqtdagi şonu şarafing, buyuk turklik şavkating, oliysiymo dohiylaring qayon yo‘qoldi?”;

– his-hayajon undovlari orqali matnda bog‘lanişlar hosil qiliş: “uf, hayhot” kabi;

– soçmaning ahd qismiga egaligi va ahd bilan yakunlanişi: “Seni şu holg‘a tuşirib, aziz avlodingni Sibiriyaning sovuq mintaqalarindan sargardon etub qo‘yg‘onlarga la’natlar o‘lsun! Ammo seni deb, sening istiqboling deb çet ellarda tahsili ilm etub yurg‘on yoş yigitlaring, inşaalloh, maqsadlarig‘a yetişurlar. Şul bolalaring soyasinda sening istiqboling umidli bo‘lur!”

Garçi soçma Fitrat soçmalariga xos yuksak badiiyat, butunlik, obrazlilik va Fitrat şaxsiga xos keskinlikni ifoda etmasa-da, bayon va publitsistik uslubga og‘iş kuzatilsa-da, muallifni ayni yo‘nalişda Fitratga eng munosib izdoş bo‘lgan deya olamiz. M.Şermuhamedov “Tarixiy davrlar” asarida ham publitsistika va adabiyotni yaqinlaştiradi (“Hurriyat” 1917-yil 5-dekabr 57-son). Turkiston Muxtoriyatiga yo‘llangan uşbu qutlov maqolada muallif poetik murojaatlari, obrazli tafakkur tarzi bilan Fitratga yaqinlaşib boradi: “Atilla, Holaku, Botu, Çingiz va Temurlarning o‘rninda Kaufman, Çernyayev o‘tirg‘oni turk bolasining yuragin yondiradi, vijdonin azoblaydi”. To‘la zid ma’noli poetik timsollar yaratadi: “islom alomati bo‘lg‘on muqaddas “oy”, “yulduz”ga – “devsifat qora quşlarlar”ni qarşi qo‘yadi (Umuman, jadid adabiyotida barça turkiy sarkardalar Temur yonida turadigan, uningdek vazifa bajaradigan obraz sifatida işlana boşlangan. Ammo Fitratning 1917-1918 yillarda yaratilgan deya taxmin qilinadigan “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘uzxon” dramatik asarlari bizgaça yetib kelmagan. Şu jihatdan Temur va O‘g‘uzxon obrazlarini muallif yaratgandek tasavvur qila olmaymiz.) Gazetaning 1917-yil 10-noyabr 50-sonida Xoji

Muinning ham “Yurt qayg‘usi” nomli asari bosilgan bo‘lib, unga muallif “Turkistonning fig‘oni” deya qavs içida kiçik sarlavha qo‘yadi, asarda Turkiston tilidan so‘zlanadi. Maqola bundan beş yil avval “Şo‘ro”da ham bosilgan bo‘lib, Xoji Muin tomonidan “bu daf’a “Yurt qayg‘usi”g‘a iştirok etmak uçun ba’zi iboralarini o‘zgartib bu yerg‘a ko‘çirildi”, deya alohida izoh beriladi. Demak, dastlab maqola şaklida e’lon qilingan material “Hurriyat”ning dongdor “Yurt qayg‘usi” oliy rukni uçun qayta tahrir qilingan va naşrga tayyorlangan. Fitratga taqlidan murojaatlar, undovlar, ritorik so‘roqlar qo‘llangan bo‘lsa-da, aslida şe’r bo‘lib yaralmagan matnda içki harorat sezilmaydi, saktaliklar, bayonçilik yetakçilik qiladi va matnni şe’riy matn, ya’ni soçma deya qabul qilişga yo‘l bermaydi. Ammo bu hodisani ijobiy baholaş kerakki, Turkiston ziyolilari yurt qayg‘usi yo‘lida jo‘rovoz bo‘lişga intilgan. Muallif jaholat uyqusida qolişni qiyomat deb ataydi: “Ey Turkistonli turk o‘g‘lonlarim! Endi turingiz! Jaholat uyqusidan uyg‘oningizki, kiçik qiyomat qo‘pdi!..” Bir tomondan, bu çaqiriq “Temur sag‘anasi”dagi Sohibqiron undovini yodga solsa, ikkinçi tomondan, Xoji Muin tomonidan qiyomat tuşunçasi timsollaştirildi va ehtimol, 1917-yildan keyin yaratilgan ko‘plab şe’rlarga ko‘çib o‘tdi (balki, Fitratning “Qiyomat” hikoyasiga ham turtki bo‘ldi). Bular soçma amaliyoti orqali ilk hikoyalarga o‘tişdagi noyob tajriba hisoblanadi.

“Adabiyot Parçalari” Majmuasiga Kiritilgan Hikoyalar Tahlili

Şu tariqa bayonga asoslangan, tarixnavislikka yaqin bo‘lgan klassik nasr mazmunan va şaklan yangilanişni boşladi. Zamonaviy o‘zbek hikoyaçiligining ilk belgi-alomatlari, ilk namunalari, jahon zamonaviy hikoyaçiligiga mazmunan va şaklan yaqinlaşiş, taqlid, tajriba jarayoni ham aynan 1917-1929 yillarda kuzatildi. Aytilganidek, bu davrga qadar mumtoz şarq nasri, uning o‘ziga xos qat’iy tendensiyalari (voqelikni izçil ifodalaş, bayonga beriliş, roviy nutqiga asoslaniş, badiiy matnda tarixiy va diniy uslubning qorişib ketişi, dialog va monolog şakllaridan keng foydalanmaslik, syujetning bir çiqiziqli formasi, ustoz-salaflar çizgan asosiy ifoda çiziqlaridan taşqariga çiqmaslik) yetakçilik qilgan, ijodiy mahorat uşbu an’analarga rioya qiliş bilan o‘lçangan bo‘lsa, endi bu talablar ham yangilandi. Çunki Turkiston hududlarida hurriyat g‘oyalari bilan birga yangi adabiyot yaratiş, ommaga yaqinlaşiş va ular ongini

uyg‘otiş g‘oyalari tug‘ildi. Zalvorli, ifodasi og‘ir, murakkab jumlalarga qurilgan, mumtoz arab va fors so‘zlarini keng istifoda etadigan tilni soddalaştiriş, oddiy xalqqa yaqinlaşiş, milliy g‘oya aks etgan kitoblar, gazeta-jurnallar bilan ular ongini to‘ldiriş, g‘urur hissini kuçaytiriş kerak edi. Adabiyot şu tariqa o‘z oldiga yangi ijtimoiy-adabiy vazifalarni, maqsadlarni qo‘ydi. 1926 yil yangi milliy şe’riyat asosçisi bo‘lgan Ço‘lpon hamda yirik olim Aşurali Zohiriy tomonidan tuzilgan “Adabiyot parçalari” majmuasi çop etildi va bu asar zamonaviy o‘zbek nasri taraqqiyotida, ayni vaqtda zamonaviy o‘zbek pedagogikasi taraqqiyotida alohida hodisa edi. Biz bu o‘rinda kitobning pedagogik emas, adabiyotga doir jihatlarini tahlilga tortmoqçimiz. To‘g‘ri, 1926 yilga qadar ham Turkistonda çiqib turgan jadid gazeta-jurnallarida, turli adabiy naşrlarda roman, hikoya, esdalik kabi turli nasr namunalari, ulardan parçalar berib borilgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Hoji Muin Şukrullo, Abdulla Qodiriy, Ço‘lpon, Mirmulla Şermuhamedov kabi jadidlar zamonaviy nasr yo‘nalişida noyob tajribalar o‘tkazişni boşlagan, hikoya, roman, safarnomalar yaratilgan, yaratilayotgan, tarjimalar qilinayotgan edi. Xususan, turk, ozar, Yevropa va rus adabiyotidan nasriy parçalar tarjimasi jadid matbuoti sahifalarida uzluksiz berib borilar, adabiyotdagi yangi oqim va yo‘nalişlar haqida ilk maqollar e’lon qilinar, bularning barçasi o‘z o‘rnida milliy adabiyotning yangilanişi va yangi miqyos kasb etişiga ta’sir ko‘rsatar edi. “Adabiyot parçalari” esa mana şu murakkab adabiy jarayonni tizimli o‘rganişda noyob manba hisoblanadi. “Talabalar, o‘qitg‘uçilar va umuman adabiyot sevguçilar uçun” mo‘ljallangan xrestomatiya – daslik-majmuaga Abdulhamid Sulaymon va Aşurali Zohiriy tomonidan tartib berilgan bo‘lib, Toşkentda O‘zbekiston Davlat naşriyotida 1926 yilda 5100 nuşada çop etilgan. Noşirlar tomonidan yozilgan so‘zboşidan o‘qiymiz: “Qo‘lingizga berilgan “Adabiyot parçalari” kitobi katta maktablarimizda o‘qig‘uçi talabalar uçun terma darslik – xristomatiya ravişida bosdiriş istagi bilan atoqli adib, yozuvçilarimizdan tuzilgan edi”. Xrestomatiyadan quyidagi nasriy asarlar joy olgan: “Nonuşta”, “Yo‘lda bir keça”, “Yo‘lda bir kunduz”, “To‘y çiqib qoldi”, “Şahardan qişloqqa”, “Qişloqdan xabar”, “Seni ko‘b ko‘rmasun”, “Çimkant”, “Qurbonliq”, “Şamol nimadan paydo bo‘ladur”, “Osmonda yerda” (Ço‘lpon); “Çaqimçiliq” (A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar” ilk milliy romanidan parça); “Go‘zallik tomoşasi”, “Yozloqlarda” (L.Olimiy); “Mug‘lar mozori” (I.Afg‘oniy); “Katta

şaharda toşqun” (A.Ro‘ziy); “Zahob” (Q.Arslon); “Umid qişloqqa”, “Qoratog‘ etaklarida” (Oltoy); “Arafa kuni” (Hasan o‘g‘li); “Dehqonlar tajribasi” (Aşurali Zohiriy); “Qişda otliq safar” (“Terma kitob”dan), “Bir ko‘runiş” (“Xiva sayohatnomasi”dan). Hikoyalarning aksariyati 1923-1924 yillarda qog‘ozga tuşirilgan. Kitobga kiritilgan hikoyalar, safar esdaliklarida zamonaviy hikoyaçilikka xos *dialog, monolog, keçinma, ong oqimi* belgilarini kuzatamiz.

Uşbu maqolada to‘plamga kiritilgan hikoya, esdalik, safarnomalar asosida o‘zbek nasridagi ilk zamonaviy hikoyaçilik tamoyilarini aniqlaymiz, tahlil etamiz, nazariy qaraşlarimizni tizimga solamiz va ularning o‘zbek nasrining keyingi taraqqiyot bosqiçlariga ko‘rsatgan ta’sirini baholaşga harakat qilamiz.

To‘plamda yo‘l esdaliklari turkumiga kiruvçi “Yo‘lda bir keça”, “Yo‘lda bir kunduz”, “Şahardan – qişlog‘ga”, “Çimkant”, “Mug‘lar mozori”, “Yozloqlarda” kabi hikoyalar bo‘lib, ularga mualliflar tomonidan sarlavha ostida *yo‘l esdaliklaridan, sayohat esdaliklaridan, yo‘lovçining daftaridan* deya izoh berilgan. Yo‘lçi – roviy, yo‘l tafsilotlari esa – asarga asos bo‘lgani uçun bu yo‘l esdaliklari safarnomalarga yaqin turadi. Ammo ularning yaratiliş maqsadi bir-biridan farq qiladi. Safarnoma, ya’ni klassik janrda real manzil va uning bayoni maqsad qilib olanadi. Yo‘l esdaligiga kiruvçi hikoyalarda bo‘lsa yo‘lçi, ya’ni roviy geografik manzara çizmaydi, u turmuşning ruhiy, ma’naviy xaritasini, millat va Vatanning istibdod ostidagi g‘amgin kartinasini yaratadi. Bularning barçasi *zamonaviy hikoyaçilikning belgilari*, uning ilk namunalari edi. Ma’lumki, şarq adabiyoti hikoyatlarga, hikoyat içida hikoyat keltiriş amaliyotiga juda boy. XX asr boşlaridagi zamonaviy hikoyalar ma’lum jihatlariga ko‘ra ularni takrorlaydi, ma’lim jihatlariga ko‘ra mutlaqo yangi hodisa sanaladi. “Yo‘lda bir keça” , “Yo‘lda bir kunduz” kiçik hikoyalari misolida an’anaviy nasrning yangilaniş jarayonini misollar bilan kuzataylik. Ilk tasvirdanoq matn orti qora ranglarda yoritiladi. Bu millat va muallif şaxsi ruhiyatini ifodalaydi: “Şaharning çekka joylarig‘a yaqinlaşamiz. Neça yillik içki uruşlar bilan çarçag‘an joyning – daştlardek yovvoyilaşib ketkan ko‘çalarida, muşuk ko‘zi qadar bir yorug‘liq bilan yonib turg‘on elektrik çiroqçalari... orqamizda qolib boradir”. Keyingi xat boşida bu manzara yoniga “vahimaliq dovuş” – işlayotgan paxta zavodlarining ovozi qo‘şiladi. Yozuvçi o‘quvçi nainki o‘qişi, ko‘rişi, eşitişini istaydi.

O‘zbek xalqini neça yillar mayib-majruh qilgan paxta, paxta zavodlari haqida yozadi. Ayni vaqtda ezilayotgan va ezayotgan taraflarni butun qiyofasi bilan aks ettiradi.

“O‘ng tomonda zovo‘t, maşina... Çap tomonda tala, paxta...

Bir tomonda ezguvçi, yançib, g‘ijimlab çiqarg‘uçi...

Bir tomonda unub-o‘sub yetilgandan keyin ezilguvçi, siqilg‘uvçi, yançilib-g‘ijimlang‘uvçi... Şu eziş va ezilişdan kişilarga, odam bolalarig‘a rohat keladir!”

Kimga azob, kimga rohat? Klassik nasrda bunday o‘tkir siyosiy, ma’naviy, ruhiy ziddiyat asar yadrosiga qo‘yilmas edi. Umuman, adabiyot oddiy xalqning tanazzuli haqida gapirgandan ko‘ra, muhtaşam işq, muhtaşam axloq haqida so‘zlaşni xuş ko‘rardi. Bu kibor an’analar Ço‘lpon yozgan: “Çekkarak joylardag‘i imoratlar, hovlilar buzulg‘on; bo‘ş, vayron ko‘rundilar. Ilgari juda obod bo‘lg‘on guzardan qorovul taqtasining xafa-xafa uzlikkan tovuşi eşitildi...” kabi manzaralarga qaraşdan or qilar edi. Ammo XX asr boşlariga kelib Turkistonning ko‘z tuşar har manzili şunday ahvolda edi. Yana bir jihat, Ço‘lpon hikoyasida fikr va his birlaşuvi sabab u nasriy şe’r şakliga yaqinlaşib boradi.

“Yo‘lda bir kunduz” hikoyasida qadim bog‘larning quritilgani-yu, serhosil yerlarning mahalliy amaldorlar sabab rus, juhudlar qo‘liga o‘tib ketgani hikoya qilinadi. Bu hikoya içida “Keksa terak” nomli kiçik hikoya bor. Bunda Ço‘lpon şarqning hikoya içida hikoya keltiriş usulidan foydalangan. Ammo Ço‘lpon hikoyasi şarq haramlari, sanamlari haqida so‘zlamaydi. “Şaharga yaqinlaşqanda bir tup katta terak keladir; o‘şa yerning xalqi, uni “Katta terak” deb ataydir. 1916-yilda o‘şa şahardan oling‘an “Loşmon – mardikor” yigitlarni şahar xalqi – kattasi, kiçigi, yoşi, qarisi – o‘şa terak tagigaça uzatib çiqqan edi. Umrlarida birinçi martaba o‘zlarining eng sevgan bolalarini g‘urbat ellariga, uruş maydonlariga jo‘natar ekan, beçora otalar va şafqatli onalar qanday issig‘ ko‘z yoşlari to‘kub edilar? Yiroqdan terakni ko‘riş bilan o‘şa fojealik vaqtlar esimga tuşdi. Yon-berlarida miltiqli askarlar, boşlarida “qozoq-o‘rus qamçisi”, ro‘baro‘larida kumiş kamar bog‘lab, burama şap osqan mingboşi... Ko‘ngillarida şirin o‘g‘ulning firoqi!..” Şu o‘ringa kelganda Ço‘lpon millat qonida oqib yotgan alam hissini yodga soladi: “Bu xil aççig‘ esdaliklar oylar va yillarning pardalari ostida to‘sulub tursalar-da, tanda qaynab, yurub, yugurub turg‘an qonlar to‘qtamag‘unça butkul

unutulmaydirlar...” Muallif bir aççiq alamni qo‘zg‘ab qo‘yibdi, deb turgan joyingizda undan-da alamli yana bir ifoda kelib yetadi: “U terakning hozir boşqa bir karomati çiqibdir: kimdir birov, bir “e’tiqodliq” banda aytibdirkim: “Har kim şu terakning po‘stini qaynatib içsa, bezgakdan qutuladir”. Terakning o‘zi ham bir neça yuz yilgi qadim, keksa terak emasmi, darhol “aziz”ligiga işonilibdir: odam bo‘yidan yuqorig‘aça po‘stini tamom şilib olibdirlar...” Istibdod ortidan mutaassib avlodlar yetişib çiqadi va milliyat tomirlaridagi alam va qo‘zg‘alişlar bilimsizlik, qo‘rquv, mutaassiblik ortida yo‘q bo‘lib ketadi.

Xulosa

Tahlilga tortmoqçi bo‘lganimiz Ço‘lponning yana bir hikoyasi “Seni ko‘b ko‘rmasun” deb nomlanadi. Hikoya Farg‘ona hayotidan, arman daşnoqlarining xunrezliklaridan olib yozilgan. Undagi zamonaviy hikoyaçilikka xos belgilarni sanab o‘tamiz.

1. Syujet va vaqt oqimi bir çiqiziqli emas; unda hozir, o‘tmiş, so‘ng yana hozir va erta tasvir etiladi; qahramonning hoziri, og‘ir o‘tmiş voqealari, so‘ng yana hozirgi hayotga qaytişi va uning ertasi qalamga olinadi; yoş kelin – Hadiça – bolasini uxlatgaç, o‘lgan erini o‘ylab og‘riq va sog‘inç içida xayollarga toladi, kambag‘al erining yigit yoşida *beklar tomonidan ko‘ngilxuşi uçun otib ketilganini* eslaydi, çidolmay tong mahal dalaga çiqib ketadi, dalada eri tengi işlayotgan dehqon yigitni ko‘rib bir azobi ming bo‘lib uyiga qaytadi, uyda qaynona Hadiçaning katta o‘g‘lini qatiq sotib keliş uçun ertalabdan şaharga jo‘natgan, tiriklik toşdan qattiq, ammo ertasiga o‘g‘ilning ham jasadini olib kelişadi, otişmada *armanilarning daydi o‘qi şunçaki tegib o‘lgan*. YAkunda hali 23 yoş bo‘lsa-da, azobdan keksarib, faromuşxotir bo‘lib qolgan Hadiçaning bezgakka çalingan ikkinçi o‘g‘lini quçib yig‘layotgani beriladi.

2. Hikoya ilk jumladanoq qahramonning murojaat nutqi bilan boşlanadi, muallif an’anaviy tasvir va bayondan foydalanmaydi: “Hah, tangrimga şukr, ah, uxlab ketdi! – dedi va eski to‘şaklar orasidan to‘lib-toşib uxlab yotqon bolasig‘a ona muhabbati bilan uzoq-uzoq tikilib qarag‘ondan keyin: - Jindak mizg‘ib olay! – dedi va boşini sekingina bolişqa qo‘ydi”. Hikoya yakunda ham xuddi şunday murojaat nutqi bilan yakunlanadi: “Bitta-yu bittam, yolg‘iz qo‘ziçog‘im, xudoyim senigina

ko‘b ko‘rmasun!.. - deydur va tiqilg‘on, bo‘g‘ilg‘on nafasi bilan uzulib-uzulib yig‘laydur…” Ço‘lpon birgina kelinçakning butun azobli hayotini, o‘tmişini şu ikki nutq içiga jamlaydi, şu nutq içiga tizadi.

3. O‘zbek adabiyotida ilk marta ayol psixologiyasi qalamga olina boşlandi. Sog‘inçdan, musibatdan, er va farzand dog‘idan ruhan xasta bo‘lib qolgan, juda erta qarigan Turkiston ayollarining foje hayoti yoritildi. Klassik adabiyot uçun ayol – go‘zal va heç dardi yo‘q ma’şuqa, yor, yana borsa – ona edi.

4. Parallel psixologik tasvirlar keltiradi va bundan uslub yaratadi. Hadiçaning erining jasadini daladan olib kelgan “Qişloq kişilari şoşilmasdan, hovliqmasdan, vazminlik bilan: - Kelinbu, taladan kelayotib yo‘lda beklar otib ketibdur… - deb javob berdilar...” Endi o‘g‘lining jasadini olib kelgan yigitning holati va javobiga e’tibor qiling: “Yig‘i-sig‘i orasida so‘rag‘onlarg‘a Xolmat yigit sira pinagini buzmasdan: - Şaharda otiş bo‘lg‘on ekan, daydi o‘q tekkandur, yo armanilar otib-otib ketgandur, – deb javob berdi...” Tarix bir xilda takrorlanadi, otasi o‘z beklarimiz ko‘ngilxuşi uçun, o‘g‘ilni armanilar ko‘ngilxuşi uçun şunçaki otib taşlaydilar. Jasadlarni olib kelganlar bo‘lsa bir xilda hissiz munosabatda bo‘ladi va bu alamli ta’sirçanlikni oşiradigan tasvir belgisiga, uslubiy ifodaga aylanadi. Bu hissizlik, bu qattig‘lik, bu begonalik yonida kelinçak yanada zaif, ilojsiz va qayg‘uli ko‘rinadi. Umuman olganda, “Adabiyot parçalari”ga kirgan Ço‘lpon hikoyalarida kuzatilgan psixoogik tasvir, uslubiy ifodalar, qahramonning ong va his oqimini ifodalaş, syujetni şu oqimga moslaş hamda millat va millat ayollari masalasining qo‘yilişi o‘zbek adabiyoti uçun hali ko‘rilmagan hodisa edi.

Adabiyotlar:

Afoqova, Nodira (2005) *Jadid şe’riyati poetikasi*. Toşkent: Fan.

Boltaboev, Hamidulla (1996) *XX asr boşlari o‘zbek adabiyotşunosligi va Fitratning ilmiy merosi*. Filol.fan.d-ri…diss. Toşkent.

Boltaboyev, Hamidulla (2007) *Fitrat va jadidçilik*. Toşkent: Alişer Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi naşriyoti.

Do‘stqoraev, Boybo‘ta (2009) *O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi*.

Toşkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU.

Egamqulova, Nodira (2021) *XX asr boşlari adabiy jarayoni muammolari (1906-1917 yillar o‘zbek vaqtli matbuoti misolida)*. Filol. fan. b.fal.dok…diss. Toşkent.

Yo, Nun (1913) “Şe’r yozuvçilar diqqatina”. *Oyina*, Sayi: 3, ss.68.

Karimov, Bahodir (1995) *Vadud Mahmudning 20-yillar adabiy tanqidçiligidagi o‘rni*. Filol.fan.nomz...diss. Toşkent.

Karimov, Naim (2008) *XX asr adabiyoti manzaralari. 1-kitob*. Toşkent: O‘zbekiston.

Karimov, Naim &. Nazarov, Baxtiyor (1999) *XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi*. Toşkent: O‘qituvçi.

Mirzayev, Saydulla (2005) *XX asr o’zbek adabiyoti*. Toşkent: Yangi asr avlodi.

Muftizoda, Abdurahmon (1916) “Javonbozlik balosi”. *Al-Isloh*, Sayi: 21, ss.702.

Nazarov, Baxtiyor & Rasulov, Abdug‘afur (2012) *O‘zbek adabiy tanqidi tarixi*. Toşkent: Tafakkur qanoti.

Qosimov, Begali (2002) *Milliy uyg‘oniş: jasorat, ma’rifat, fidoyilik*. Toşkent: Ma’naviyat.

Qosimov, Begali (2008) *O’zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi*. Toşkent: Fan va texnologiya.

Quronov, Dilmirod (2004) *Ço‘lpon nasri poetikasi*. Toşkent: Şarq.

Quronov, Dilmurod (2018) *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Toşkent: Navoiy universiteti.

Şukrulla, Hoji Muin (1913) “Muhtaram şuaromizga”. *Oyina*, Sayi:9.

YÜZ YÜZE'DEN HAREKETLE SAVAŞ KARŞISINDA AYTMATOV

Özlem NEMUTLU[1]

Yüz Yüze,[2] Aytmatov'un ilk povestlerinden biridir. 1957'de *Oktyabr* dergisinde Rusça yayımlandıktan sonra aynı yıl *Alo-Too* dergisinde Kırgız Türkçesiyle neşredilmiştir. Bilindiği üzere 1928 doğumlu Aytmatov'un delikanlılık çağlarının en güzel yılları, II. Dünya Savaşına tekabül etmektedir. Dolayısıyla yazarlık faaliyetlerinde en belirleyici toplumsal hadiselerden biri bu kanlı savaş olmuştur. Aytmatov, delikanlılık yıllarına ait izlenimlerini, buna savaş yılları da dahil, daha sonraki yıllarda eserlerinin mevzusu haline getirmiştir. Savaştan on iki yıl sonra yazdığı "Yüz Yüze" de bu eserlerden biridir.

Cengiz Aytmatov'un eserlerini savaşın ön planda veya fonda işlenip işlenmemesine göre iki gruba ayırabiliriz:

1.Vakası savaşa dayanan eserler: "Yüz Yüze"'den başka savaşın en yoğun işlendiği eser *Toprak Ana'*dır. Bunlardan başka "Erken Gelen Turnalar", "Oğulla Görüşme", "Erken Gelen Turnalar" povest ve hikâyelerinde de savaşın, vakanın temelini oluşturduğunu görmekteyiz. Savaşın sadece insanların değil hayvanlar da dahil tüm tabiatın dengesini alt üst eden bir vahşet olduğu hakikati, *Toprak Ana'*da çarpıcı detaylarla işlenir.[3] Tolgonay Ana'nın oğullarını ve kocasını elinden alan savaş, gelini Aliman'ın hayatını da darmadağın etmiştir. Tolgonay Ana'nın öğretmen olmayı, çocuklara bütün hayatı boyunca iyiliği ve güzelliği öğretmeyi amaçlayan oğlu Muslubek, eline tebeşir bile alamadan savaşta hayatını kaybeden bir karakter olarak çizilir. Yazarın ona söylettiği şu sözler önemlidir:

Şimdilik söyleyeceğim şu ki, bu savaşı ne biz istedik, ne de biz başlattık. Hepimiz için, bütün insanlık için baş belasıdır bu savaş. Eğer

---

[1] Doç.Dr., Manisa Celal Bayar Üniversitesi

[2] Cengiz Aytmatov, *Yüz Yüze* (*İlk Öğretmenim, Cemile, Selvi Boylum Al Yazmalım, Deve Gözü, Oğulla Görüşme, Askerin Oğlu* ile birlikte), *Bütün Eserleri 2,* Rusçadan Çeviren: M. Ethem Gözlü, Cem Yayınları, İstanbul, 1974, s.67-116.

[3] Cengiz Aytmatov, *Toprak Ana, (Masaldan Sonra(Beyaz Gemi), Elveda Gülsarı* ile birlikte) Çev.: Ethem Gözlü, Cem Yayınları, İstanbul, 1974.

bu canavarı gebertip ortadan kaldırmak istiyorsak, kanımızı akıtmak, canımızı vermek zorundayız. Böyle yapmazsak insanlık adına lâyık olabilir miyiz? (s. 227)

Muslubek'in bu yakarışına baktığımızda savaş canavarının yok edilmesi için "kanın akmak, canın verilmek" zorunda kalınması birbiriyle çelişir realitelerdir.

2. Savaşın geri planda kaldığı eserler: "Cemile", *Selvi Boylum Az Yazmalım,* "İlk Öğretmenim", *Elveda Gülsarı,* "Kızıl Elma", *Beyaz Gemi, Gün Uzar Yüzyıl Olur, Cengiz Han'a Küsen Bulut, Kader Ağı(Kıyamat),* savaşın arka fonda yer aldığı eserlerdir. *Gün Uzar Yüzyıl Olur*'un Boranlı Yedigey'inin kulaklarında bir Alman bombasının bırakmış olduğu bir uğultu vardır hep. Abutalip genç bir teğmen olarak katıldığı savaşta Almanlara esir düşmüş, Stalin'in emrettiği gibi intihar etmek yerine Yugoslav partizanlarının safında savaşmayı sürdürmüştür. Bu hadise, onun "savaş suçlusu" olarak görülmesine sebep olmuştur. Stalin döneminin sayısız sorgu yargıçlarından biri olan akdoğan bakışlı Tansıkbayev tarafından tutuklanarak ölüme mahkum edilmiştir. [4] *Gün Uzar Yüzyıl Olur,* Aytmatov'un eleştirel bakış açısının hem en yoğun hem de en başarılı işlendiği eseridir. Onu *Beyaz Gemi* izler.

Yüz Yüze'nin yazıldığı 1957'de Kruşçev iktidardadır. Bilindiği üzere Kruşçev, Stalin'in totaliter ve faşist eğilimlerinin tersine, iç ve dış politikada daha esnek, -en azından iktidarının ilk dönemlerinde- daha dışa açık bir tutum izlemeyi ilke edinmiştir. Bütün edebî eserlerine genel olarak baktığımızda Aytmatov'un da sanat anlayışının temelini "insan"ı esas almak olduğunu görürüz. O, insanı insanca yaşamaktan alıkoyan her tür eyleme, her tür oluşuma karşıdır. "İnsan"ın özünü koruma ve onu insanlığı daim kılma emeli kadar "tabiat"ı koruma ve onu yaşatma arzuları da bir o denli kuvvetlidir. "Savaş" işte tüm bu emellerinin, amaçlarının en başta gelen engelleyicilerinden biridir. Bu yüzden Aytmatov'un eserlerinde "savaş", "hamasî bir vatan meselesi" olmak yerine "insan" hayatında, özellikle Kırgız Türklerinin hayatında bir parçalanmanın, dağılmanın sebebi olarak karşımıza çıkar. Bir tek *Cemile'*de galiba gerçekten birbirini sevebilecek insanların, Cemile ile Danyar'ın buluşmasına vesile olmuştur. Ancak Danyar, bir savaş

[4] Cengiz Aytmatov, *Gün Uzar Yüzyıl Olur,* Çev.: Mehmet Özgül, Cem Yayınları, İstanbul, 1985.

gazisidir. Dolayısıyla Aytmatov'un savaşın bir şekilde yer aldığı eserlerinde hem bu savaşın insanların, toplumların hayatlarına yol açtığı felaketler sergilenir, hem de bu savaşların Kırgız Türk'ü için neyi ifade ettiği de sorgulanır. Tabi bu süreçte Aytmatov, bir Sovyet vatandaşı olduğunun ve sanat hayatını Sovyet edebiyatının içinde şekillendirmiş olduğunun da her zaman farkındadır. Onun yazarlığında *Elveda Gülsarı'*nın bir kırılma noktası olduğu iddia edilir. Şöyle ki bu eserle, özellikle Tanabay'ın ve atı Gülsarı'nın başına gelenler, bir bakıma Sovyet rejiminin açıkça eleştirisidir. Bu eleştiriler dozunu gittikçe arttıracak, *Beyaz Gemi, Gün Olur Asra Bedel,* onun devamı *Cengiz Hana Küsen Bulut* ve *Dişi Kurdun Rüyaları'*nda alenileşecektir. Glasnost ve Perestroyka dönemlerinden sonra yazdığı *Kassandra Damgası* ve *Dağlar Devrildiğinde Ebedi Nişanlı'*da komünizmden sonra Batı'nın kapitalist dünyası da eleştiri oklarına hedef olacaktır.

Aytmatov'un eserlerine tekrar baktığımızda, tabi asıllarından okumak çok daha önemli, eleştirel bakış açısının daha ilk eserlerinden itibaren yer aldığını görmekteyiz. Aytmatov'un eserlerindeki çevre duyarlılığını incelediğimiz makalemizde "Deve Gözü" hikâyesinin önemli bir aşama olduğunu belirtmiştik.[5] Şimdi savaş konusunu ele aldığımızda, Türkiye Türkçesi'ne aktarılan eserleri içerisinde ilk hikâye "Beyaz Yağmur"dan sonra 1957'de yayımlanan *Yüz Yüze* povestinin de eleştirel bakış açısını ihtiva etmesi bakımından son derece önemli olduğunu görmekteyiz. Bildirimizde bu eseri seçmemizin gerekçelerinden biri budur. Bundan başka bu eser, "iyilik-kötülük"; "sevgili/eş-savaş kaçağı"; "barış(huzur/saadet)-savaş"; "duygu/vicdan-akıl", "ben-biz" kavramları ve olguları arasındaki tezatlıkları "savaş mevzusu"ndan hareketle son derece etkileyici bir şekilde işlemesi bakımından da son derece önemlidir.

"Yüz Yüze", bir trenin Karadağ Boğazı mevkiindeki bir

[5] Bkz. Özlem Nemutlu, "Cengiz Aytmatov'un Hikâye ve Romanlarında Çevre Duyarlılığı", *Manisa Celal Bayar Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi,* Cilt:16, S.1/2, 2018, s.237-254. Sabahattin Çağın'ın da dikkat çektiği gibi onun yazarlığındaki süreci bu bakımdan üç aşamada incelememiz mümkündür: 1. Geleceğe yönelik umutlarının yeşertildiği eserler, 2.İdealizm ve Hayal Kırıklığının Bir Arada Olduğu Eserler, 3. Hayal Kırıklığının Olduğu Eserler", Ayrıntılı bilgi için bkz. Sabahattin Çağın, *Cengiz Aytmatov ve Gün Olur Asra Bedel,* Akademi Kit., İzmir, 2000, s.4-11.

istasyondan bir sonbahar akşamı geçişinin etrafındaki tabiat unsurlarıyla birlikte kimi zaman tekinsiz diyebileceğimiz bir şekilde tasviriyle başlar. Trenlerin hep batıya gitmesi, istasyonda ne inenin ne binenin olması, vagonlardaki yolcuların yorgunluktan hep uyuması gibi detaylar, bir savaş ortamına aittir. Bu detaylara göğe doğru uzayan kavakların yapraklarının hışırtısı, dingillerin sürekli iniltisi, boğazda her zamanki gibi keskin bir rüzgârın olması, yakındaki ırmağın boğuk uğultusu, soğuk bir kavak yaprağının bir insan eli gibi nöbetçinin yüzüne değmesi, nöbetçinin irkilmesi vb.lerinin eklenmesiyle hikâyenin hüzünlü atmosferi şekillenmiş olur. Sonradan öğreneceğimiz gibi İsmail, savaş kaçağı olarak bu istasyonda trenden gizlice inecektir. Hikâyenin bundan sonraki kısmında kocası İsmail'i savaşa, cepheye gönderdikten sonra kayınvalidesi ve emzikteki bebeğiyle evinde kalan Seyde tanıtılır.

Seyde'nin bir taraftan bebeğini büyütürken bir taraftan tarla işleriyle ilgilenerek evin geçimini sağlaması; yaşlı, cılız ve hastalıklı bir koyun gibi sürekli öksüren, daima ibadet ve dua eden kayınvalidesinin torununa bakarak gelinine yardımcı olmasının tasvir edildiği kısımlar, bu iki kadının erkeksiz bu işleri halletmek zorunda kaldıklarını anlatmak içindir (s.68-69). Söz konusu zorlukların sebebi "savaş"tır. "Seyde gibi bütün köy ahalisinin uykusuz kalması, eskiden hiç duymadıkları "Alman", "faşist", "çağrı belgesi" gibi sözlerin ağızdan ağıza dolaşması, her gün köyden birilerinin askere çağrılması, kadınların ve çocukların onları gözleri ağlamaktan kızarmış bir şekilde tümseğin üzerine çıkarak uğurlamaları gibi detaylar, yazarın hem savaş karşıtlığını göstermek; hem de metnin başında trenden gizlice inen İsmail'in savaştan kaçmasına bir parça da hak vermek için kurgulanmıştır. Aşağıdaki alıntı kanaatimizce, Kırgız köy delikanlılarının bir taraftan askere gönüllü gittiklerini gösterirken bir taraftan da bu gidişin bir dönüşü olmayacağını, dolayısıyla bunun bir "vatan ve memleket meselesi" olmaktan çok bir mecburiyet gereği olacağını anlatmaktadır:

Hikâyede asker kaçağı İsmail'in eve gelmesinden önce verilen bir başka önemli ayrıntı, Seyde'nin "geçen yıl" eve gelin gelmesi, birlikte inşaatı yarım evin işlerini heyecanla, keyifle görmeleri, bütün bunları yaparken de etraflarındaki tabiatın güzelliklerini, nimetlerini de ihmal etmemeleridir. Hikâyenin bu güzel ve lirik atmosferini dağıtan "savaş" olur. Bu yüzden Seyde ve İsmail'in ve yakınlarındaki insanların hayatlarını savaştan önce savaştan sonra olmak üzere ikiye ayırmak

mümkündür. Hikâyenin şimdiki zaman planındaki hadiseler ve mekânlara savaşın gölgesi çökmüştür. Bu yüzden bu kısımlarda metin hüzünlü bir tona bürünür. Seyde'yle İsmail'in hayatlarının mazi planında anlatıldığı kısımlarda, yani savaştan önce insanlar mutludur ve tabiat tasvirleri de buna göre lirik ve empresyonisttir:

Akşam olunca arkta güzelce yıkanır, zerdali ağacının altına serdikleri yatağa yatardı. Suyun serinliği, kokusu bedeninden uzun süre çıkmazdı. Geceleyin dağların karlı dorukları koyu lacivert gökte inci gibi donuk donuk parlar, arkın yanındaki yoncalıktan nanelerin mis gibi kokusu yayılır, yakınlardan, otların arasından bir bıldırcın öterdi. Seyde içini dolduran, onu çepeçevre kuşatan sessiz güzelliğin coşkusuyla kocasına daha bir sokulur, kolunu usulca boynuna dolardı. O günlerde ne çok hayal kurarlardı! Evlerini bitirecekler, bahçelerini düzene koyacaklar, Seyde'nin anasını babasını çağırıp çeşit çeşit armağanlar vereceklerdi… Bütün bunlar mutluluk veriyordu insana.. (s.70)

Bütün bunlar, bu güzelliklerin savaş yüzünden bozulduğunu ve İsmail'in askerlikten kaçmasının haklı gerekçeleri olabileceğini göstermek içindir. Bunun ötesinde yazarın Kırgız gelenekleri yüzünden genç kadının kocasını uğurlarken ona mesafeli olmak ve evliliklerinin ilk senesinde birbirlerinden ayrılmak zorunda kalmalarını anlattığı kısımlarda da savaşa bir tepki ve askerden kaçmayı olumsuz görmeme eğilimi mevcuttur. Metinde yansıtıcı merkez Seyde'dir. Yazar hadiseleri onun bakış açısından verir. Dolayısıyla hikâyenin esasını oluşturan tezatlıklar ve çatışmalar Seyde'den hareketle düzenlenmiştir:

Seyde gerek gelenekler gerekse savaş yüzünden kocasıyla içinden geldiği gibi vakit geçiremediğine hayıflanır. İsmail'in, karısı bu duygular ve bu mukayeseler içindeyken gelmesi, onun bir savaş ve asker kaçağı olarak görülmesini engeller. Bütün eserlerinde olduğu gibi *Yüz Yüze'*de de "insan hakikati"ni ustaca veren Aytmatov, Seyde'nin şahsında "savaş"tan hareketle bir başka çatışma alanını hemen açmaz. Savaşın bir "milli mücadele", "bir vatan meselesi" olarak anlatıldığı eserlerde olması gereken budur. Oysa Seyde, kocasının gelişini herkesten saklar; her gün en zor işleri yapsa da, kısacık rahatlamaları fırsat bilir ve "gökyüzünü seyretmenin ne hoş olduğu"nu düşünür. (s.73). Bu süreçte onu tedirgin eden, İsmail'in kaçaklığının bilinmesidir.

Hikâyede en önemli ayrıntılardan biri, İsmail'in

karakterizasyonunda karşımıza çıkar. Cepheye çağrılmadan önceki İsmail, yine Seyde'nin gözünden verilir. Buna göre İsmail, Seyde için mutluluğunu, sevincini paylaştığı eşi ve çocuğunun babasıdır. Askere çağrılmadan önceki İsmail'le ilgili olumsuz bir ifade yer almaz hikâyede. Oysa kaçak olarak yaşamaya başladıktan sonra İsmail, "köyde olan bitenleri umursamayan, eve gelince somurtup bir köşeye çekilen, kimseyle konuşmayan" biri olur. Hikâyenin bu kısmından itibaren gerilim, "sorumsuz, kötü" koca ile onun için her türlü fedakârlığa katlanan "kadın" arasındaki tezatlıktan doğar. Bu, bir bakıma Aytmatov'un bütün eserlerinde gördüğümüz "iyi"nin "kötü"yle, "kötülük"le imtihanı, mücadelesidir. Ancak yine hatırlatalım ki burada da İsmail, "vatan haini" olarak anlatılmaz, "asker kaçağı" olmasından rahatsız olunmaz. Tam tersine Seyde, kocasına hep acıyan bir kadın olarak ön plana geçirilir. Kocasında ona yakıştıramadığı hatta kendisini ürküten halleri görünce, geçmiş yaz günlerini hatırlayarak teselli bulur. İsmail'i yabanileştiren yine savaştır. Çünkü geçmiş yaz öyle değildir. Karısının mutluluğu için çaba sarfeden biridir

İsmail'in Seyde vasıtasıyla aktarılan sözlerinin bir benzerini Aytmatov, *Toprak Ana'*daki öğretmen Muslibek'e söyletecektir. Buradaki "dede"lerin ve "baba"ların düşlerinden görmedikleri topraklar için savaşmaya zorlanmaları, totaliter Rus rejimine duyulan tepkinin yansımasıdır. Hikâyenin bundan sonraki kısmında yaklaşmakta olan kışın tabiatta yarattığı değişikliklere yer verilirken savaşın bitmeyecek olmasına duyulan tepki de dile getirilir:

Hikâyedeki bir başka tezat unsuru Seyde'nin kocasının asker kaçağı olmasına mukabil kayını Cumabay'ın türkülerle, bozaevindeki sazlı sözlü eğlencelerle askere uğurlanmasıdır. Cumabay, abisinin cephede olduğunu düşünmektedir. Diğer taraftan yaşlılar, köyde kalanlar gidenlerin zaferle dönmeleri için dua ederler. Bununla birlikte eserde hem Seyde'nin bakış açısı kullanılması hem de anlatıcının bizzat hadiseleri yorumlamasından ortaya çıkan, gençlerin neşeli hallerine ayrılığın, ölümün hüznünü duymaları; güle oynaya vatanı savunmaya gitmemeleridir. Gençler birkaç gün sonra ölümle burun buruna geleceklerdir. (s.77)

Durun ey yiğitler durun! Hayatınızın baharında yerinizi, yurdunuzu bırakıp gitmeye kalkıyorsunuz. Oysa sizlere doya doya yaşamak yaraşır.

Bırakın, ben gideyim; yerinize ben öleyim!..” (s.79)

Aytmatov, Seyde’yi önce cepheye giden gençler karşısında asker kaçağı bir kocası olmaktan utanan, üzülen bir kadın gibi çizerken hemen akabinde tam tersi duygular ve fikirleri baskın çıkan bir portre haline vurgu yapar. “Yüz Yüze”nin kurgusu Seyde’nin bu çatışmalarıyla şekillenir. Seyde, kocasının asker kaçağı olmasından zaman zaman utanca kapılsa da bu savaşın kendi mutluluklarına bir engel olduğunun farkındadır. Bu yüzden bu utancın yerine çabuk kocasıyla geçireceği günlerin mutluluğunu koyar:

Eserde dikkatimizi çeken bir başka hususiyet, cepheden gelen ölüm haberlerin “şehadet” olarak yorumlanmamasıdır. Zaten bu kavramın ne Aytmatov’un dünyasında ne de Türk edebiyatlarında olması pek mümkün gözükmemektedir. Nitekim *Yüz Yüze’*nin önemli düğüm noktalarından biri Baydalı’nın cephedeki ölüm haberi şöyle verilir:

Baydalı’nın Stalingrad yakınlarında öldüğü haberi gelmişti köy kuruluna.(s.95)

*Yüz Yüze’*de Seyde ve kocası İsmail’in karşında yer alan bir başka tezat durum, komşuları Totoy ve ailesiyle oluşturulur. Hikâyenin düğümü bu aileyle çözülür. Totoy’un “masal kahramanları gibi iri yarı, geniş omuzlu”, işten korkmayan kocası Baydalı cephededir, o üç çocuğuyla hayat mücadelesi vermektedir. Totoy, Seyde’nin de kendisiyle aynı kaderi paylaşmasını son derece hüzünlü sözlerle ifade eder.

Köyün en iyi yırcısı Mırzakul, cephede bir kolunu bırakarak döndükten sonra çok huysuz biri olmuştur. Muhtar da olduktan sonra sık sık köyü dolaşmaları Seyde’yi tedirgin eder. Eserde o, Baydalı, türkülerle cepheye uğurlanan gençler hep İsmail’in karşısında kurgulanırlar. Mırzakul’un Seyde’den hoşlanması, İsmail’i zaten yanında olan Seyde’nin tedirgin olması cephe gerisinde yaşanan bir başka realitedir. Aytmatov, *Cemile’*de, *Toprak Ana’*da olduğu gibi *Yüz Yüze’*de de savaşın bu realitesine yer verir.

Mırzakul’un Seyde’yi İsmail için sıkıştırması, onun da çok zora düştüğünde onun sakatlığını hatırlatması bir başka önemli detay. Aytmatov, her iki figürü kendi içinde haklı gösterirken trajik unsurun peşindedir, Bununla birlikte eserin sonunda Mırzakul’un İsmail tarafından öldürülmesi okurda pek acıma hissini uyandırmaz. Çünkü Mırzakul, Aytmatov’un pek iyi insan karakterine uymamaktadır

Aytmatov, Seyde'yi son aşamaya gelinceye kadar fedakâr çizmekte, böylece trajik gelimi yükseltmekte kararlıdır. Açlıktan ve kıtlıktan çok zor anlar yaşayan, üstelik kocasının ölümünden habersiz Totoy'ların ineğinin çalınması bütün köyü ayağa kaldırır. Ahalinin hırsızın peşine düşmesi, Seyde'yi bu sefer İsmail'i bulacakları korkusuyla kaplar. Sulu karın ıslattığı giysileriyle kendini göstermeden çalılıkların arasından bir taraftan İsmail'e ulaşmaya bir taraftan da ineği köylülerden önce bulmaya çalışır. Yazar, burada onun da bir anne olduğunu, yetimler için onun da çırpındığını vurgular. En sonunda İsmail'in açlıktan ve kıtlıktan çok zor anlar yaşayan Totoy'ların tek umudu olan ineklerini kesecek kadar bencilliği ileriye götürmesi, bardağı taşıran son damla olur. Seyde eserin sonunda hem kocasının gerçeği hem de kocasıyla "yüz yüze gelir. Kucağında çocuğu ile onu ihbar eder. Bununla birlikte Seyde'nin aşağıya alıntıladığımız sözleri, kanaatimizce yama gibi durmuştur:

Köyü, köyünün insanları, bütün dünya bu küçük pencerenin ötesindeydi. Kurman, üç çocuğuyla birlikte Totoy, Mırzakul, İsmail yaşıyordu orada. Evet, İsmail yaşıyordu. "Yok sen başkalarına benzemiyorsun… Kötü gününde ulusunu bırakan insan ister istemez halkın düşmanı olur… Ah, seni bu durumdan kurtaramadım. Zaten kurtaramazmışım da!" (s.113)

Seyde'nin gözünde kocasını farklı kılan, onun yerini ihbar etmeye götüren "kötü gününde ulusunu bırakması", "halk düşmanı" olması değildir. Öyle olsaydı İsmail ilk kaçtığı gün onu ele verirdi. Nitekim İsmail'in kaçışının ilk günlerinde aklından geçenler, kendi kendine söylediği şu sözler oldukça manalıdır:

Ne yapalım varsın asker kaçağı olsun diye avutuyordu kendini hamur açarken. "erkektir, yapılacak şeyi benden daha iyi bilir. "Herkes kendi kaderini kendisi çizer. Bu savaşta kellesini düşünen sağ kalır" demez miydi? Ona ben akıl öğretecek değilim ya! Üstelik onu yanımdan ayırmayı da hiç istemem. Zaten buradan uzaklaştırmaya çalışsam bile aklına koymuş bir kere "Ne olursa olsun bir daha düşman kurşunu altına girmem!" diyor. "Evimde geçireceğim bir gün bile kazançtır benim için. Gidip de ta cehennemin dibinde ne diye savaşacakmışım? Dedem, babam oraları düşlerinde bile görmemişlerdir. Başkalarını bilmem ama benim gideceğim yerler değil o uzak ülkeler… Hem gitsem ne değişir ki? Düşmanı tek başıma ben yenecek değilim ya! Ben olmadan da bir

çaresine bakarlar…" Belki de doğru söylüyor İsmail. Onsuz da yenebilirler düşmanı. Bir kişi eksik olmakla ne çıkar? Varsın başının çaresine baksın, bunun kimseye zararı var mı? Göz göre göre ölüme gidecek değil ya.. (s.75)

Aytmatov'un kurgusunu savaşın şekillendirdiği bu eserinde bir kadını merkeze alarak asıl yapmak istediği bütün sanat hayatının temel kavramları üzerinde durmaktır. Seyde'nin durduğu yerden biz de bakacak olursak İsmail'i kötü biri yapan pek savaştan kaçması değildir. Bu yönü bile, köyün diğer erkekleri karşısında kendini düşünmesi açısından, bencilliği açısından eleştirilir. Yukarıda da ifade ettiğimiz gibi Seyde, bir halk düşmanı, ulusunu kötü günde bırakan biri olarak görseydi onun için o kadar fedakârlığa katlanmaz, onunla ve kayınvalidesiyle Çatkal'a gideceği günlerin hayalini kurmazdı. Bilhassa yukarıya alıntıladığımız paragrafta bazı hassasiyetlerin dile getirilmesi, Aytmatov'un bu savaş karşısındaki eleştirel bakış açısını gösterir. Kırgızlar ve diğer Türk boyları gerçekten dedelerinin, babalarının rüyalarında bile görmedikleri yerler için hayatlarından olmuşlardır. Zaten kendilerine hem medeniyeti getiren hem de sömüren Sovyet rejimiyle içten içe var olma mücadelesi içindedirler. Bütün bunlarla birlikte Aytmatov'u asıl ilgilendiren insanın iç savaşıdır. Bu savaş "iyilikle kötülük" arasındadır. Seyde'nin savaşı, kocası ile vicdanı arasındadır. Sonunda o kadar fedakarlığa katlandığı kocasını, ailesini kaybetmiştir. Ancak kazanan vicdanı olur. Kayınvalidesi bile Seyde'nin tam tersi yönünde bilinmezliğe doğru yol alırken vicdanının peşindedir. Bütün bunlarla birlikte bu ve buna benzer çalışmalarımızda Aytmatov'un eserlerinin orijinal metinlerinden, Rusça ve Kırgız Türkçesi'ndeki neşirlerini de göz önünde bulundurarak, hareket etmemiz daha doğru olacaktır.

TURK VA O`ZBEK EPIK ASARLARIDA IJTIMOIY HAYOT MAVZUSI

Pirnazarova Manzura MATNAZAROVNA[1]

Turk va o`zbek adabiyotlarida yaratilgan juda ko`plab badiiy asarlar yozuvchilarning ijtimoiy qarashlarini ifodalash, xalq ruhiyatiga chuqur kirib borish vositasini vazifasini bajargan. Buni ijodkorlarning roman va boshqa epik turdagi asarlarida yaqqol namoyon qiladilar. Biz tahlilga tortmoqchi bo`lgan asarlarda, haqiqatan, juda murakkab bir davr – insoniyat taqdiri haqida qayg‘urayotgan peshbinlar bani bashar oldidagi yengib bo‘lmas muammolar girdobini seza boshlagan, davr charxpalagi insoniyat izmi bilan aylanmasligini his qilib, hayratdan tang holda turgan zamonlarda yozilgan.

Gap ijtimoiy tuzum qiyofasini badiiy adabiyotda aks etirilgani haqida borar ekan, Rashod Nuri Guntegin va Abdulla Qahhorlar asarlarida ham ushbu mavzu mahorat bilan ochib berilganini guvohi bo`lamiz. Ba’zi tadqiqotchilar “Sarob” romanini g‘oya va shakl jihatdan Jek Londonning “Martin Iden” asariga qiyoslashadi. Darhaqiqat, bu ikki asar qisman o‘xshab ketadi. Ammo biz Rashod Nuri Guntekinning “Iztirob” romanidagi Murshid afandi obrazini va “Sarob” romanidagi Saidiy obrazini bir-biriga o‘xshash jihatlarini payqadik. Bu ikki obraz taqdiri, qiyinchiliklari va fojiasi ancha o‘xshash. Bunday yaqinlikning sababi sifatida ikkala ijodkor ham o‘z davrining, XX asr boshining tipik vakilini yaratganligida deb hisoblaymiz. Abdulla Qahhor “Sarob” romani 1930-1934-yillar oralig‘ida yozgan. “Bu insonning hayot haqida, uning murakkabliklari-yu ziddiyatlari haqida teran va dadil o‘ylay olishi menga “Sarob” romanidanoq tanish edi.”[2] Romanda barcha davrlar uchun xos bo‘lgan mavzu ko‘tarilgan. Yozuvchi, asosan, XX asr o‘zbek xalqining turmush tarzini ifodalaydi. Asar qahramoni Rahimjon Saidiy oddiy temirchi oilasidan. Shu tomonlama Abdulla Qahhor o‘ziga

[1] Doç. Dr., Filologiya fanlari nomzodi, Urganch davlat universiteti

[2] Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida. To‘plab, nashrga tayyorlovchilar: Kibriyo Qahhorova, Otayor Nahanov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987, 47-b.

taalluqli qaysidir qirralarni Saidiyga ko‘chirgan deya olamiz. Chunki Abdulla Qahhorning otasi ham temirchi bo‘lgan. Rashod Nuri Guntekinning “Iztirob” romaniga to‘xtaladigan bo‘lsak, asosiy obrazlar Zahro va uning otasi Murshid afandi. “Sarob” va “Iztirob” romanlari uslub jihatdan farqlanadi. “Sarob” romanida Abdulla Qahhor voqealarni izchillik bilan bayon qiladi. Rashod Nuri Guntekin “Iztirob” romanida esa, voqealar bir qancha muddat orqaga qaytib, qahramonning kundaligi yordamida bayon qilinadi. Bu uslub qisman “Choliqushi” romaniga ham xosdir. Ammo ikkala ijodkor ham XX asr ijtimoiy hayoti, maorif tuzumining tubdan yemirilgani va bu shaxs fojiasiga yetaklovchi omil ekanligini ko‘rsatib bergan.

“Iztirob” romanida Zahro muallima, Murshid afandi esa ta’lim tizimida ishlagan xodim. Demak, ikkalasi ham maorif bilan bog‘liq. Saidiy ham oldin o‘qituvchilik qilgan, keyin Oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kiradi, hayoti adabiy davralar, gazeta-jurnal bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Saidiy va Murshid afandining taqdiri bir-biriga juda o‘xshaydi. Buni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

“Sarob” romani Saidiy va Munisxonning o‘qishga kirish oldidan uchrashishi bilan boshlanadi. “Iztirob” romani esa Zahroning muallimlik faoliyati bilan gavdalana boshlaydi. Voqealar tizilishib, bizga eng kerakli obraz Murshid afandiga borib bog‘lanadi. Murshid afandi yolg‘iz ona qo‘lida tarbiyalangan. Onasi ming mashaqqatlar ichida o‘g‘lini o‘qitgan, voyaga yetkazgan, biroq o‘g‘lining kamolini ko‘rolmay o‘tgan. Murshid afandi bu qiyinchiliklarni, onasining dard-hasratlarini birgina jumlada ko‘rsatib beradi: “Qachonki, bola-chaqam bilan issiq uyda, dasturxon boshida ovqatlanadigan bo‘lsam, uning oshxonada tik turib, sovuq non yeyayotganini ko‘raman. Luqmalar bo‘g‘zimga tiqiladi.”[3] Endi esa “Sarob” romanidagi Saidiyga diqqatni qaratsak, Saidiyning otasi vafot etgan. “Saidiyning otasi mashina-bosqon, mashina dam bilan ishlaydigan katta bir korxona ochmoqchi bo‘lib, anchagina temirchilarni to‘pladi, bu ishga talay sarmoya ham xarjladi-da, ish boshlanmasdan sinib yer bilan yakson bo‘ldi va o‘zini osdi.”[4] Bundan ko‘rish mumkinki, ish boshlamasdan kasod bo‘lish darajasida odamlarning turmushi og‘ir. Saidiy opasi qaramog‘ida bo‘lgan. Ikkala obraz ham qiyin sharoitdan

[3] Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019, 43-b.
[4] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 8-b.

yetishib chiqqan. Lekin Saidiy Murshid afandidan farqli ravishda chin do‘sti Ehson bilan munosabatlarini saqlab qololmaydi. Bir paytlari Ehson “…, Saidiyning otasini ko‘rib o‘tar, ba’zan kechalari kelib damini ham bosar, muvofiq ish topilsa, bosqonini ham urar edi.”[5] Keyinchalik oralariga sovuqchilik tushadi. Murshid afandi esa, qizi Zahroni maxsus maktabga joylashda eski do‘stidan ko‘mak oladi. “Maktabdagi do‘stlarimdan Javdat ismli bola edi. Bir-birimizni aka-ukalardek yaxshi ko‘rardik.”[6]

Murshid afandi diplom olganida o‘z istiqbolini tasavvur qiladi: “Ko‘p narsani kutganim yo‘q. Tabiatan itoatkorman, asabiy, ochko‘z emasman. Kelajakda orzuim nomusli va g‘ayratli bir ma’mur bo‘lish hamda kichkinagina bir oila qurishdan iborat.”[7] Saidiyning o‘qishga kirishdan maqsadi esa Munixson bilan birga bo‘lish. Lekin Saidiy ham dastlab, qalbi toza, faqat muhabbatiga erishish uchun harakat qiladigan obraz sifatida tasvirlanadi. Ikkala asarda ham bosh obrazlarning orzulari sof va pokiza holatda berilgan. Keyinchalik jamiyat va atrofdagi odamlar ta’siri ularni o‘zgartira boshlaydi.

Murshid obrazi orzu yer bilan yakson bo‘lgan holatda tasvirlana boshlaydi. Dastlab, diplom olib katta rejalarni tuzgan yosh kadr katta to‘siqlarga duch keladi. Ikki oy sarson-sargardon bo‘lib ish qidirgan Murshid afandi XX asr ishsizlik muammosi va korrupsiya avj olgan pallani hayoti misolida ko‘rsatib beradi. Sivasda ish topganiga ham shukr qilib, chekka bir joyga ketadi. Biroq u shu ixcham xonasidan ham, kichik ishidan ham mamnun. Murshid tili bilan aytganda: “Tog‘lardan qaytayotgan aks-sadoda har bir tovushning qanchalik ulushi bo‘lsa, buyuk dardli millat saodatida mening shunday hissam bo‘ladi.”[8] Buni amalga oshirish uchun Murshid o‘ziga dasturulamal ham tuzib oladi.

1.Doim vijdonimga quloq solaman;

2.Hech qachon qonung zid ish ko‘rmayman;

3.Kasbdoshlarim bilan yaxshi munosabatda bo‘laman;

4.Yolg‘on gapirmayman;

[5] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 8-b.
[6] Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019, 124-b.
[7] Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019, 43-b.
[8] Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019, 46-b.

5.Pora olmayman;

6.Faqatgina ish faoliyatimda emas, shaxsiy hayotimda ham nomusli bo‘lib qolaman;

7.Har doim vazifamni huquqimdan ustun qo‘yaman;

8.To‘g‘rilik, sabot va g‘ayratim bilan yuksalsam, quvonaman, ammo mag‘lub bo‘lsam, xafa bo‘lmayman. Hattoki, to‘g‘rilikdan zarar ko‘rsam ham umidsizlikka tushmayman.[9]

Biroq hayot Murshid afandiga kutilmagan zarbalar berdi. Saidiy ham yozuvchilikni orzu qilgandi. Yaxshi yozsam, tez nashr qilinadi, yuqori cho‘qqilarni zabt etaman deb o‘ylagandi. Ammo yozganlari yaroqsizga chiqarilib qaytib kelaverdi. Murshid Istanbul hayotini ochiq-oydin gavdalantiradi. “Istanbul shunday holga tushganki, ko‘cha-ko‘yda o‘lib qolsang, “Ajabo, inson ochlikdan qanday o‘lar ekan, bir tomosha qilaylik!” deb atrofingda to‘planishadi.”[10] Toshkentda yashayotgan boshqalarga qarz beraman deb, pulsiz qoladi. Bu ham yetmaganidek, nochorlikdan qo‘liga ilgudek narsalarini pullab yuboradi. Ammo shunda ham och-nahor qolib ketadi. Sillasi qurib, yotib qolar darajaga yetadi. Yoki yana bir holatga e’tibor qarataylik. Murodxo‘ja domlaning uyidagi To‘pa tinmay xizmat qiladi, ozgina xato qilsa, bekasi tomonidan ayovsiz jazolanadi. Shunday jazolardan biri – och qoldirish. Shunday jazo qo‘llagan kunlarning birida To‘pa ochlikdan va yumushlardan sillasi qurib yiqilib qoladi, Murodxo‘ja domla unga nos iskatib, o‘ziga keltirmoqchi, ammo shu yerda ham o‘z ishlarini bitirib oladi. “Domla tashqariga chiqib, Ostonaquldan nos so‘radi. Unda nos yo‘q ekan, hozir keltirmoqchi bo‘lib ko‘chaga chiqib ketayotganda, domla to‘xtadi va hali saidiyga tasdiqlatgani e’lonlarni uydan olib chiqib, uning qo‘liga berdi-da, shunaqasiga pochtaxona, dorixona, hammom eshigi va boshqa joylarga yopishtirishni buyurdi.” [11] Bu yerda xizmatkorga inson sifatida qaramaslik, xudbinlik, ochko‘zlik va g‘ayriinsoniy munosabatning guvohi bo‘lamiz. Xizmatkor bir ahvolda, og‘ir vaziyatda, o‘lar holatda yotibdi, Murodxo‘ja domla esa, o‘z ishini bitkazish bilan ovora. Bu vaziyat “Iztirob” romanidagi tasvirlangan Istanbul hayotidan deyarli farq qilmaydi.

[9] Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019, 47-b.
[10] Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019, 49-b.
[11] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 253-b.

Saidiy va Murodxo‘janing oilasi tomonidan To‘paga qilgan muomala, aynan, Saidiyning opasiga turmush o‘rtog‘i tomonidan qilinadi: “Choy degan ekan, eshitmabman. Shunga chiqib ikki-uch tepib yubordi. Shu uch go‘dak tufayli shularga ham chidadim. Keyin bir oyog‘im battar bo‘lib yurolmay qolgan edimki, tashladi-qo‘ydi. Ertadan kechgacha och-och o‘tiraman... Uydagi oziq-ovqatni sandiqqa solib qulflab oldi.”[12]

Murshid ish faoliyati davomida bora-bora adolatsizliklarga, xiyonatlarga va aldovlarga duch kela boshlaydi. Ikkala asarda ham uyushtiriladigan ziyofatlar haqida to‘xtalingan. Jumladan, “Iztirob” romanida Murshid bunday ziyofatlarni yoqtirmas, lekin ba’zida borishga majbur qilishardi. “Sarob” romanida ham Salimxon har juma ziyofat uyushtirar, keyinchalik bun ziyofatga Saidiyni ham jalb qilib oladi. Saidiyga bu ziyofatlar yoqib qolgandi.

Murshid atrofidagi vaziyatni to‘g‘ri baholay oladi, “...xalq qanchalik yaxshi bo‘lsa, a’yonlar shu darajada mutakabbur va manfaatparastdirlar.”[13] Murshid xalqqa foydali ishlarni qilaman desa, qonunga xilof chiqardi, “vijdon “qil” desa, qonun “qilma” deydi”[14]. Ko‘z o‘ngida bolalarning o‘limini ko‘radi, sifatsiz ta’lim va yaroqsiz turmush tarzining guvohi bo‘ladi. Hayot va qonun, vazifa va buyruqlar orasida sargardon bo‘la boshlaydi. “Sarob” romanidagi Rahimjon Saidiy esa, o‘zi anglamagan, bilmagan holatda boshqalarning qo‘g‘irchog‘iga aylanib qoladi.

“Ibrohim hammasini aytib bo‘lgandan keyin, rais ruchkani siyohga botirib, anketaning ostiga qo‘l qo‘yishini taklif qildi. U ruchkani olmay ikkala bosh barmog‘iga qaradi va yorilmagan, tekisrog‘ini tutib kuldi:

-Endi, mulla aka, muhr bosib qo‘yaqolay… Ota buvamiz ham muhr bosgan. Birovning eshigida yurgan odammiz. Qo‘l qo‘yish u yoqda tursin, namozlikni ham bilmaymiz…”[15]. “Sarob” romanidagi ushbu parchalar xalq naqadar savodsizligini, hatto imzo qo‘yishni bilmasligi, ahvol shu qadar qiyin ekanligini ko‘rsatadi. “Iztirob” romanida muallimning tilnchilik qilishi turk xalqining og‘ir ma’naviy inqirozidan

[12] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 272-b.
[13] Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019, 66-b.
[14] Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019, 69-b.
[15] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 75-b.

dalolatdir. Yuqori tashkilotlardagi qonunbuzarliklar, axloqsizliklar, xalq dardini tinglamaslik oddiy bir holat edi. Yuqori tabaqa vakillarining quyi tabaqa vakillariga munosabatini quyidagi parchada ham ko‘rishimiz mumkin. “Saidiy bu odamlardan faqat ikki kishini tanidi: biri qaysi kuni “qarolining ismini yodidan chiqarib qo‘ygan” Niyozmat Hoji, ikkinchisi esa kechagi xirildoq imom.” [16] Qo‘lida yillab ishlagan ham qarindoshi bo‘lgan ishchisining ismini bilmas darajadagi Niyozmat Hoji shunday insonlardan biridir.

O‘zbek adabiyotida ahvol shu darajaga yetgan ediki, har qanday asar mafkuraga xizmat qilishi kerak edi. Buni “Sarob” romanida Saidiy yozgan hikoya va uning sun’iylashtirilishi haqidagi parchada isbotini ko‘ramiz. “Saidiy hikoyani bir haftada tamom qilib, Ilhomga ko‘rgani bergan edi, ikki kundan so‘ng uni Abbosxonning qo‘lida tahrir qilingan holda ko‘rdi. Hikoyaning deyarli yarmini tashkil qiladigan oxirgi bobi batamom o‘chirilgan va undan faqat shu jumlalar qolgan: “Bolalar ijtimoiy ta’minot idorasini topishdi va yagona soyabonlari ekanini bilishdi”.”[17] “Iztirob” romanida Murshid afandi ham siyosiy tuzum va bosimlar ostida qoladi, natijada, orzusi yemirilib, o‘zligini yo‘qota boshlaydi. Buni esa quyidagicha tasvirlaydi: “...rangsiz, ruhsiz bir odamga aylandim.”[18] Bu holat esa, bora-bora “Norozilikdan ko‘ra kelajakda rozi bo‘lish umidining yo‘qligi kishini ko‘proq toliqtiradi.”[19]

O‘zbek xalqi hayotida salbiy ta’sirlar mavjud siyosat va mafkura sababli yuzaga kelgan. “Kishilarni sinflarga ayirish osoyishtalikni buzadi.”[20] Turk xalqi hayotida ham olib yuritilayotgan siyosat, yuqori qatlam, hukumatning noto‘g‘ri holatari bir qancha noxushliklarga sabab bo‘ladi. Shu jumladan, ikkala qahramonning fojiasiga ham.

Ikkala asardagi bosh obrazlar, Saidiy va Murshid afandi ko‘ngil qo‘ygan ayollariga nisbatan umuman boshqacha munosabatda bo‘lishadi. Ular ayolni buyuk hilqat deb qabul qilishadi. Jumladan, “Sarob” romanida Saidiy Munisxonni ilk bora oliygohda ko‘radi va u “…butun olamni berib, hech narsa talab qilmaydigan bir holatda edi.”[21] “Iztirob”

[16] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 83-b.
[17] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 103-b.
[18] Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019, 76-b.
[19] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 99-b.
[20] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 98-b.
[21] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 4-b.

romanidagi Murshid esa, ish joyidagi Fadil ismli ombor mudirini betob holida uyiga eltib qo‘yadi va to‘satdan vafot etgan hamkasbini uyiga olib kirar ekan, marhumning qizini ko‘rib qoladi. U ilk bora ko‘rganda kuchli bir hayajonga tushadi. “Mana sevishga arziydigan qiz! Qanchalar mukammal umr yo‘ldoshi bo‘ladi... Bunday ayol bilan yashash qanchalar saodat!!! Faqatgina yashash emas, hattoki o‘lim ham...”[22] Saidiy Munisxonni ko‘rganida mana shu kuchli hayajonni har safar boshidan o‘tkazadi. “Nahot shu qiz ham odam qo‘li bilan bino qilingan biron imoratda tursa!”[23] Saidiy bo‘layotgan jarayonlarni u darajada to‘g‘ri anglolmasa, baholay olmasa ham, Munisxonga bo‘lgan muhabbatini qalbdan his qilar edi. “Saidiy Munisxonni o‘zining ko‘ziday ehtiyot qilar, unga bor-yo‘g‘ini berganida ham hech narsa talab qilmas edi.”[24] Munisxon u uchun butun dunyo edi. Aynan, mana shu Munisxonga erishish istagi uni oliygohga yetakladi, shoir qilib qo‘liga qalam tutishiga sabab bo‘ldi Salimxon majlislariga olib bordi, mol-dunyo to‘plash fikrini uyg‘otdi va albatta, fojiaviy qismatiga yakun yasadi. “Saidiy Muninxonning dargohiga ikkinchi ko‘prikdan – shuhrat, obro‘, pul ko‘prigidan o‘tadi… Bu yangi ko‘prik esa to Saidiy yoki Munisxon o‘lmaguncha buzilmas edi.”[25] Biroq u bu narsalarga erishguncha Munisxonni Muxtorxonga berishdi. Orzu ushalmadi. Saidiy endi ichki ruhiy jihatdan sina boshladi. Bunga misol qilib o‘zini majburlab Soraxonga ilitishi va ichki tug‘yonlari edi. “ – Bu qiz yashnab turgan chog‘, - dedi Saidiy yetar mahalida, - men unga yaqindan tutilgan doka: yopib ham ketmayman, omon ham qolmayman, faqat sarg‘ayaman. Sarg‘aya-sarg‘aya axiri yonmasdan tamom bo‘laman. U meni yomon ko‘radi…”[26] Darhaqiqat, Saidiy Munisxonga yetolmadi, Munisxonning o‘zi uning yoniga kelganida Saidiy avvalgi muhabbatini topolmadi. Oldida o‘zga bir insonni ko‘rdi. Ikki yoshning qalbi o‘likka aylanib bo‘lgandi. Saidiy Munisxonning to‘yi ekanligini so‘ragan holatga kelsak, “ko‘zidan yosh chiqib ketayozdi”[27]. Biroq Saidiy qat’iyatsiz, ichidagi otashni tashqarisiga chiqara olmaydigan obraz. Murshid afandi esa, bu

[22] Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019, 79-b.
[23] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 28-b.
[24] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 32-b.
[25] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 105-b.
[26] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 107-b.
[27] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 157-b.

jihatdan farq qiladi. U Makbule va Fadilning ikkinchi qizi Meveddetning qo‘lini so‘raydi. Unga uylanadi. Biroq mana shu nikoh uning uchun bir dunyo fojia olib keladi. Aslida, Makbule va uning qizi Meveddet hech narsaga to‘ymaydigan, ko‘zi och, ruhan siniq kimsalardir. Mana shuning uchun Murshidni abgor holatga olib kelishadi. Ular asl maqsadini ochiq-oshkora namoyon qilmaydi. Mug‘ombirlik va muloyimlik bilan niyatlariga yetisha boshlaydi. Jumladan, Makbule qaysidir kuni muftiy qiziga olmos ko‘zli uzuk sotib olganini aytib, ilk qadamni qo‘yadi. Kundan kunga ularning ehtiyoji va talabi ortib boraveradi. Murshid ko‘p pul topish dardida o‘zini o‘qqa-cho‘qqa ura boshlaydi. Mana shu qismlarida XX asr insonlarining tanazzuli va jtimoiy hayoti ochib berilgan: “ “Pul” deganda o‘t kechib bo‘lsa ham yuguradigan Yoqubjon – sandalga tushib kuygan bir so‘m uchun xotinini urib kar qilgan kishi o‘zini madaniy yurishning fidokori e’lon qilib, bosmoxona ishchilarini tekinga o‘qitadi. Murodxo‘ja domla – “qishloq xalqi hayvonlashib ketayotir, ko‘rgani toqatim yo‘q”, deb yurgan odam ko‘klamda o‘sha “hayvonlar” orasiga borib, leksiyalar o‘qiy boshlaydi.”[28] Bir so‘m uchun xotini kaltaklab kar qiladigan erlar, insonlarning ortidan gapirib, sha’nini toptab yana shular bilan bir dasturxonda o‘tiradigan “ziyoli”lar ochiq-oshkora ko‘rsatib berilgan.

Saidiy ham Murodxo‘ja domla, uning xotini “Bulbuligo‘yo” va Soraxon talablarini bajarish uchun turli ishlarda ishlay boshlaydi. Ikkala obraz ham ma’naviy qashshoq, ruhan siniq odamlarning tayyor ta’minot manbaiga aylanib qoladi. “Saidiy bu gapni ko‘tarolmasdi, shuning uchun tuni-kuni ishlar, qanday yo‘l bilan pul topish mumkin bo‘lsa, shuni qilar, Soraxon va “Bulbuligo‘yo”ning og‘zini pul bilan qoplashga tirishar edi.”[29] Yoki yana bir parchada Saidiyni ko‘ramiz: “ “Xotin boqolmaslik” ta’nasini eshitmaslik uchun kecha-kunduz ishlash, pul chiqadigan bo‘lsa, har qanday ishdan qochmaslik kerak bo‘ldi... Saidiy gazeta idorasida ishlaydi, kechqurunlari kursma-kurs yurib dars beradi, bundan ortgan vaqtni arizalar va turli lavhalar tarjima qilishga sarf qilar edi. Tarjima ishini ilgari “imorat bitguncha vaqtincha mashg‘ulot” hisoblagan edi, endi bu doimiy, bo‘lmasa och qolish xavfi bo‘lgan mashg‘ulotga aylandi. U shuncha band, shuncha ko‘p ishlar ediki, asar

[28] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 190-b.
[29] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 238-b.

yozish emas, bu hol qachongacha davom etishi, nega bir boshi uchun muncha ko‘p ishlashga majbur ekani to‘g‘risida o‘ylashga ham vaqti bo‘lmas edi.”[30] Murshid afandi pul topish haqida o‘ylar ekan, “Qanchalik ko‘p ishlab, ko‘p pul topsam ham foydasi yo‘q”[31],-deb hisoblaydi.

“Iztirob” romanida Murshid afandining qaynonasi uni qarz olishga majbur qiladi. Abdusamadbeydan qarz so‘rab borgan Murshid afandi achchiq haqiqatga ro‘baro‘ bo‘ladi. “Sen qiziga uylangan oila juda barbod oiladir. Ismini ming tasanno bilan tilga olayotganing qaynonang esa ilon. Bechora qaynotangni ular yo‘q qilishdi.”[32] “Sarob” romanida esa Murodxo‘ja domla Saidiyni qarz olishga undaydi. “O‘zingiz so‘rasangiz, darrov beradi. So‘raganda ham puli bor ekanini bo‘yniga qo‘yib turib so‘raysiz-da. Ammo hovli olmoqchi ekaningizni bildirmaysiz. Bir yarim ming so‘rang, xudo xohlasa, ikki oyda uzasiz.”[33] Ko‘plab qarzlar ostida qolgan Saidiy va Murshid o‘z yo‘lini tamomila yo‘qotishadi.

Rahimjon Saidiy o‘zi istagan holda chirkin o‘yinlarga, qing‘ir ishlarga qo‘l uradi. Murshid esa, istamagan holda, vaziyat taqozosi va oila tazyiqi ostida shu ishlarni qiladi. Ya’ni poraxo‘rlik, mulk o‘zlashtirish va hakozo. Chunki oiladagi Makbule xonim va qizi Meveddetning xohish-istagi cheksiz ravishda oshib borardi. Saidiy o‘zining og‘ir hayotidan chiqish, buyuk kelajakka ega bo‘lish uchun bu davralarga qo‘shilib qoladi. “Kenjaning aytishiga ko‘ra, Saidiy “bir guruh chirik odamlar” muhitiga kirib qolgan edi.”[34] Darhaqiqat, Saidiy chiqib bo‘lmas chuqur chohga tushadi. Bunga Abbosxon, Salimxon va Murodxo‘jalar sabab bo‘ladi. Murshid ham asta-sekinlik bilan tanazzulga yuz tutadi. Bunga ayoli, qaynonasi, Nasuhibey, Tohir kabi kimsalar sabab bo‘ldi. Ular boshlagan yo‘l ruhiy inqirozning boshlanishi edi. “Endi kuni-tuni kitob o‘qish, o‘rganish kerak emas, faqat ulug‘larning ko‘ziga tez-tez ko‘rinib tursa kifoya. Buni esa ko‘proq shisha osonlashtiradi”[35], - deb Saidiyga uqtirishgan bo‘lsa, doimiy ziyofatlarga

[30] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 241-b.
[31] Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019, 102-b.
[32] Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019, 99-b.
[33] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 292-b.
[34] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 113-b.
[35] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 114-b.

qatnashish va boshqalar bilan raki ulashish foyda ekanligini Murshidga uqtirishardi. Saidiy holati Murshid afandinikiga o‘xshab ketadi. “Ko‘nglini bo‘lib turgan fakultetni tashlab, bir tomongagina intilish majburiyati uni o‘z orzusi yo‘lida qancha ilgari siljitgan bo‘lsa, shisha bu siljishga yana shuncha hissa qo‘shdi va xususan, yoz oylarida shisha martabasini shuncha oshirdiki, butun umrida bir lahza ham hushyor bo‘lishga ehtiyoj sezmay qo‘ydi.”[36] Murshid afandi ham dunyo tashvishlarini unutish va bir qancha odamlar davrasidan joy olish uchun ichkilikka beriladi. Raki doimiy hamrohiga aylanadi.

Omon Matjon ijodida ham dostonlar aksar holda shoirning ijtimoiy qarashlarini ifodalash, xalq ruhiyatiga chuqur kirib borish vositasi vazifasini bajargan. Buni shoirning “Nega men?!” dostoni, xususan, undan o‘rin olgan “Turg‘unlik yillari” manzumasi ham yaqqol namoyon qiladi. Doston, haqiqatan, juda murakkab bir davr – insoniyat taqdiri haqida qayg‘urayotgan peshbinlar bani bashar oldidagi yengib bo‘lmas muammolar girdobini seza boshlagan, davr charxpalagi insoniyat izmi bilan aylanmasligini his qilib, hayratdan tang holda turgan zamonda yozildi:

Dunyoga sinchiklab tikilgan ko‘zlar
Mushkul bir holatni payqashga tushdi.
Qay tomonga boqmang, bari – yo‘lsizlar,
Tolelar ayqashu uyqashga tushdi. (OS, 22)

Dastlab doston uchun tanlangan ohang va bayon uslubi tasodifan tug‘ilmagani haqida so‘z ochish o‘rinli. Birinchidan, uning mumtoz adabiyotdagi radifga muvofiq keladigan “tushdi” fe’li Xorazm dostonlarida ko‘p qo‘llanilib, e’tiborni jalb qilishda o‘ziga xos ta’sirga ega *tushdi*, *tushmish* so‘zlarini eslatadi. Masalan,

Bir fikr ayladim tosh birlan otam,
Yuragim do‘zmayin azmog‘a tushdi…
Qodir ollo badr aylamish jamolin,
Ta’sir o‘lib, jonim malola tushmish.[37].

[36] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 116-b.
[37] Хоразм достонлари. Ошиқнома. 1-китоб. Масъул муҳаррир С.Рўзимбоев. – Урганч: Хоразм, –Б. 40.; 45.

Sobiq tuzum davri jamiyatining g‘ayriinsoniy tutumlaridan biri o‘zidan o‘zgani yomonlash, o‘zidan o‘zgani tan olmaslik nuqsoni edi. Natijada butun boshli tuzum ana shu nomardlarcha ijod qilingan tizimga bo‘ysunadigan bo‘ldi:

Har podsho o‘zicha chiqarib farmon,

Qolganlar bir-birin bulg‘ashga tushdi.

Butun dostonni o‘z o‘qi atrofida birlashtirib, katta hajmli manzumani mehvarida tutib turgan bir misra keyingi bandda keladi:

Ko‘k yutar bundayin ulkan qabrni,

Odamning soyasi quyoshga tushdi.

SHoir haq: Yer inson uchun beshik bo‘lsa, ayni vaqtda qabri hamdir. Inson zoti kamoli ham yerda, zavoli ham yerda. SHuning uchun rivoyatlarda insonning tiynatida u vafot topadigan yerdan bir siqim tuproq qo‘shilishi aytiladi. Bandning dastlabki ikki misrasida qora qor-u za’faron yomg‘ir yog‘ib, daryo o‘rnida armon oqayotgani haqida gapiriladi. Ajabki, tabiiy muvozanat, buyuk bir mezon buzulib, turli hudularda qora[38] va qizil[39] qorlar yog`ib, yomg‘ir tusi o‘zgarib borayotgani haqiqatga aylandi. Global iqlim o‘zgarishlari va geosiyosiy nayranglar daryolar o‘rnida armon oqishini keltirib chiqarmasa edi degan o‘y bosadi odamni. Bir qarashda band misralari tizimsiz: qor, yomg‘ir, suv o‘rnida armon oqayotgan daryo... Birdan har bir podshohning o‘z siyosatini oqil bilib, qolganlarini botil sanashi haqida ketmoqda.

Omon Matjon to‘rtliklaridagi ijtimoiy hayot mavzularini faqat ularni o‘qish va idrok etish orqali inkishof etish mumkin, degan mulohazadamiz. Shu bois ularning ayrimlariga e’tibor qaratdik:

Ko‘kdan yerga bir ne tutash ko‘rinar,

Umr – o‘z burchingni o‘tash ko‘rinar.

“Avlodlar almashar!” – degan ran bekor,

Bu – har kimni bir-bir sinash ko‘rinar.

Bu satrlar shoirning bir qadar hayotiy tajribasi ortgan pallalari mahsuli ekanini dastlabki satrdanoq his qilamiz: *“Ko‘kdan yerga bir ne*

[38] https://sputniknews.uz/20200202/ozoistonda-ora-or-di-aybdorlar-anilanmoda--video--13370678.html

[39] https://qalampir.uz/news/antarktidada-k-izil-k-or-yegdi-foto-14670

tutash ko‘rinar,..” Ilohiy tushunchalarni ko‘k bilan bog‘lash azaldan bor. Demakki, shoir borliqning muazzam bir ilohiy tizim va nizom asosida qurilganini “ko‘kdan yerga bir ne tutash”ligini e’tirof etish ifodalaydi.

Bu g‘urbat dashtidan nechuk o‘tdim men,

Kimlarga ishonib jadal etdim men?!

Izimga qarasam, jilmayib turgan

Ishq bilan Imonni idrok etdim men.

Goh Omon Matjon to‘rtliklarida ba’zan mashrabona qat’iylik, qaytmaslik, isyonkorona ruh ham ko‘zga tashlanib qoladi:

Ey, zot, xanjar bilan sen dam talashma,

Olam uyindasan, olam talashma.

Mening o‘z dardimdir elimning dardi,

O‘z darding bo‘lmasa, qalam talashma.

Omon Matjon *dard* tushunchasiga ijtimoiy ruh beradi: “Mening o‘z dardimdir elimning dardi”. Dard – har qanday holatda dard. U shaxsiymi, hissiymi, ijtimoiymi, qanday turu tarzda bo‘lmasin, uni shu dardni chekkanlar anglay oladi, Mashrab aytganidek, “xonavayronlar bilur aftodalarning holini”. Mashrab qalbidagi o‘ta og‘ir ruhiy hislarning qanchalik og‘ir ekanini anglatishning yagona chorasi sifatida

To kishiga dard tegmay,bo‘lmadi bag‘ri kabob,

Dilda darding bo‘lmasa, dardi sarimni kavlama –

degandek, Omon Matjon xalq dardini o‘z dardi darajasida bilganlargina qalam tutishga haqli hisoblaydi.

Mumtoz adabiyotimizda ijtimoiy lirikaning eng go‘zal namunalari sifatida, albatta, Turdi Farog‘iy she’riyati zikr qilinadi. Aks holda 434 misrali 18 ta she’r bilan adabiyot tarixida o‘chmas iz qoldirish imkonsiz edi. Xususan, “to‘qson ikki bovli o‘zbek” birikmasi aytilishi bilan Turdining

Tor ko‘ngulluk beklar, man-man demang, kenglik qiling,

To‘qson ikkn bori o‘zbak yurtidur, tenglik qiling –

misralari yodga tushadi. Ahmad Zakiy Validiy yozishicha, “qabila tuzilishiga ko‘ra, o‘zbeklarni har yerda to‘qson ikki bov o‘zbek deb ataydilar. Bov – bu qabila demakdir. Boshqurtlar ichida shunday bov

bor: “O‘n ikki bovli boshqurt” deydilar. O‘zbeklarda 92 qabilaviy bir “Nasabnoma” bordir”. Omon Matjon ham o‘z to‘rtliklaridan birida mumtoz adiblarimiz tomonidan ilgari surilgnan birlik g‘oyasini quyidagi satrlarga soladi:

Birlik – ko‘ngil bilan gulning birligi,

Birlik – vijdon bilan tilning birligi.

Birlik – to‘kson ikki bovli o‘zbekning,

Ertadan umidvor elning birligi.

Har qanday holatda og‘zi olalik, noahllik tashqi dushmandan ko‘ra xavfliroq bo‘lgan.

Ikkiga bo‘lindi bir guruh o‘rtoq,

Intilish ozaydi – toraydi so‘qmok,

Bir yalov ostida edilar, endi

CHiti munda qoldi, munida – tayoq.

To‘rtlik o‘ziga xos ta’sir kuchi shundaki, bayroq haqida o‘ylaganimizda, hatto unga tikilib qarab turib ham, qarshimizdagi yalov shunchaki chit va tayoq (dasta)dan iborat ekanini nimagadir xayolimizga kelmaydi. Bayroqning ma’nosi, savlati, davlati, mahobati, quvvati – hamma-hammasining siri mana shunda. Qadimgi turkiy xalqlarda ham bayroq g‘oyat qadrli edi. Masalan, ashin qabilasi bayrog‘ida bo‘ri kallasining oltin tasviri tushirilgan. Bayroqda bo‘ri kallasining tasviri turk-mo‘g‘o‘l xalqlarining hammasiga ko‘chgan[40]. Asrlar davomida bayroq tushunchasi shuurimizga shu qadar chuqur singganki, biz uning oddiy chit va dastadan iborat ekanini haqida o‘ylamaymiz. Zero, “bayroq faqat bir parcha mato emas. Ba’zan uning nimaligini biz hali to‘la anglab yetmagan ham ko‘rinamiz. Axir, shunday odamlar bo‘lgan va borki, dunyodagi eng buyuk boyliklari – jonlarini bayroq uchun tikadi. CHunki har qanday milliy bayroq shu xalqu mamlakat ahli uchun vatan tushunchasi bilan bab-baravar turadi[41]”. Lekin shu qadar ulug‘vorligi, shu qadar sir-sinoatliligi bois biz hali “nimaligini to‘la anglab yetmagan” narsani oddiygina mato va tayoqqa aylantirib yubora oladigan qarshi quvvat, vayronkor kuch borki, bu noahllik, bir-birini ko‘ra olmaslik,

[40] Насимхон Раҳмон. Турк хоқонлиги. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 43-44.

[41] Султонмурод Олим. Байрамларимиз. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 111.

hasad, fisqu fasod va hokazo nomlar bilan atalgan bir illatdir.

To‘rtlikning o‘ziga xos ohangi maxsus tanlangan. SHoir noahillik natijasini ochiq ko‘rsatishdan o‘zini tiymaydi. Aslida ham shunday bo‘lishi kerak. Qattiq shamol payti (har tomonlama tanazzulni shunday tasavvur qilaylik) hamrohingiz jarlikka qulamasligi uchun uni qattiq turtish ayb emas, fazilat. SHoir o‘zi uchun qanchalik og‘ir, qanchalik shafqatsiz bo‘lsa ham, noahllik oqibatini avyosiz ko‘rsatishga ahd qilgan. Birlik masalasi Omon Matjonning boshqa bir to‘rtiligida ham quyidagicha aks etgan:

Birin qo‘lida tig‘, birida temir,

Biri xon der o‘zni, birisi amir.

Ikki to‘p urishar. Qiziq, bormikan

Bularda urushdan keyingi umr?!

“Gaplashadigan vaqtlar” – shaklan she’riy qissa, mohiyatan ijtimoiy-ma’rifiy asar. SHoir nazdida goh maishat-shahvatning quli bo‘lgan, daryodil bo‘lib ilm-ijodga sho‘ng‘igan, takasaltang, yodi-hushi yo‘q holatda kechgan va hokazo odam hayotining qabatlari bor. Lekin...

Lekin shunday vaqt bo‘ladi – odam judayam

Kim bilan bir gaplashgisi kelar, tashna, zor...

Gaplashgisi, gaplashgisi...

Bu – shunday vaqtlar... (GV, 74)

Haqiqatan, vaqt – ma’rifiy-falsafiy tushuncha. SHuning uchun eng qadimgi davrlarda vaqtga bo‘lgan munosabatlar emotsiyalarga boy bo‘lgan[42]. Insonda o‘z mavjudligi vaqtinchalik ekanini anglab yetgan sari vaqtdan qo‘rqish hissi oshib boradi.

Qadimgi grek mifologiyasida Vaqt xudosi Xronos rahmsiz va ayovsiz bir shaklu siyratda tasavur qilingani ham bejiz mas. U har safar yangi tug‘ilgan bolalarini yeb qo‘yadi. Xronosga yangi tug‘ilgan o‘g‘li Zevsning o‘rniga toshni yo‘rgaklab beradilar va vaqt xudosi toshga tikilib qoladi. Zevs omon qoladi va ulg‘aygach, otasini ep qa’riga zindonband qiladi. Bu rivoyatda antik davr kishilarining vaqtni yengishga intilishlari, abadiy yashash istaklari namoyon bo‘ladi.

[42] Караваев Э. Ф. Время и логическая форма в античной и средневековой философии // Филос. науки, 1973, -N°6, – С. 102.

Qadimgi rimliklarda Vaqt xudosi Saturn bo‘lib, uning yonida Ibtido va Intiho xudosi Yanus turgan. Yanusning yuzi ikki xil, ya’ni yoshlik va qarilik, baxtiyorlik va qayg‘u alomatlari bilan ifodalangan. Yanusning ikki yuzi o‘tmish va kelajak timsolidir[43].

Demak, vaqt tushunchasi talqini insoniyat tafakkurini asrlar davomida asir qilib kelgan „hikmat bilan yechilmaydigan og‘ir muammo“ (Hofiz SHeroziy)dir.

Omon Matjonning “Gaplashadigan vaqtlar” qisssi “Muddao“ deb nomlangan kirish va “Umid” sarlavhali xotima va 18 ta raqamlangan hikoya (shartli ravishda shunday nomladik)dan iborat. Boshqacha aytganda, shoir uchun gaplashadigan vaqt *muddao* va *umid* orasidir.

Omon Matjonning mahorati shundaki, u qissada bolalikning ardoqli xotiralari fonida “adolatsiz tuzum” (GV, 74)ning haqqoniy qiyofasini chizib beradi.

Ijtimoiy mavzuning epik asarlardagi badiiy talqinini yana Abdulla Qahhor va Rashod Nuri Gunteginlar ijodidagi tasviriga qaytadigan bo`lsak, “Iztirob” romanida odamlarni qiynayotgan davr muammolari Murshid afandi obrazida berilganligiga amin bo`lamiz. “Yana ish qidirish uchun u yerdan bu yerga chopish, qo‘l-etak o‘pish, eng og‘ir haqoratlarni eshitish, bo‘yin egishga to‘g‘ri keladi.”[44] Ishga kirish jarayoni shu qadar ayanchli va haqoratli ekanligini yozuvchi ko‘rsatib bermoqda. “Sarob” romanida esa, Abdulla Qahhor Qizil imperiya qulashiga ishoralar qiladi: “Salohiddin domla muallimlik qilgan maktab devoriy gazetasida millatchilik ruhida yozilgan bir necha she’rlar bosilgan. Bir bola davlat arboblaridan birining haykalini urib sindiribdi. Bir bola o‘zining xotira daftariga “Katta bo‘lganimdan keyin inqilobchi bo‘lib ...ni yiqitaman”, deb yozib qo‘yibdi va bu uch nuqta nima deb so‘ralganda “sho‘rolar hukumati”, debdi. Bularning hammasi rost, Salimxon zarracha ham mubolag‘a qilgani yo‘q.”[45] Mafkuraga darz ketayotganligi, uning mantiqsizligi Saidiy va u qatnashadigan guruhlar tomonidan mohirona aytib o‘tilgan. Shunday majlislardan birida, Zokirxon degan arzchi orqali mafkuraga darz ketganini ko‘rishimiz

[43] Ҳакимов М. Ўзбек тилида “вақт” маъноли луғавий бирликлар тадқиқи. — Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б. 4.
[44] Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019, 102-b.
[45] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 206-b.

mumkin. Chunki “U ham olamdan norozi, shuncha noroziki, hatto birinchi gap majlisidayoq Saidiyga yoqaqoldi.”[46] Zokirxon nutqida ham buni ko‘rish mumkin: “-Ha, bo‘lmasa shu yerda ham mafkura surishtiring!.. Ziyolilar qurultoyi emas bu yer!..”[47]

Saidiyning chin ma’nodagi maqsadi va bir paytlari orzu qilgani asar so‘ngida ochib beriladi: “Ammo bu gulxan Munisxon, olamshumul adiblik, vodiyga solinadigan qasr va qasrning ustida hilpirab turgan ko‘k bayroq singari uzoqda bir sarob bo‘lib qoldi.”[48] Murshid afandi: “Men uchun yaxshi ko‘rish, sevish bir insonning tanasi, ruhining bir parchasiga daxl qilish, u bilan birga kulish, birga yig‘lash, iztiroblarini bo‘lishish deganidir.”[49],-deya o‘z ichki niyatlarini bildiradi. Avval aytib o‘tgainimizdek mo‘jaz uy, baxtli oila yagona orzusi edi.

Murshid afandi va Saidiyning yakuniy taqdiri ham bir-biriga o‘xshashdir. Ikkalasi ham asar oxirida sarobga intilganligini, hayoti sarob ekanligini, kunlari iztirob ichida o‘tganligini anglab yetadi. Ikkala obrazda ham endi orqaga yo‘l yo‘q. Yashashdan ma’no-maqsad, umid yo‘q bo‘lib qoladi. Shu sababli, Murshid afandi begonalar qo‘lida jon beradi, Saidiy o‘zining masrur kunlari o‘tgan anhor bo‘yiga yetib borolmay qoladi. Bu obrazlar atrofda bo‘layotgan o‘zgarishlar, ta’sirlar, qing‘irliklarni bilvosita kuzatib turmaydi, balki bevosita bu jarayonda o‘zi ham qatnashadi. Boshqa bir tarafdan ichki kolliziya ikkalasida ham mohirona tasvirlangan. Sof orzulardan chirkin hayot botqog‘iga botish holati hayotiy kechmishlarga bog‘lanadi. Atoqli ijodkor Omon Matjon ta’biri bilan aytganda bu obrazlar taqdiri: “Ne og‘ochlar bog‘ aro so‘lmish ochiq ildiz bilan...”[50] Omon Matjonning mahorati shundaki, u qissada bolalikning ardoqli xotiralari fonida “odil tuzum” (GV, 74)ning haqqoniy qiyofasini chizib beradi. Qissani o‘qiganimiz sari o‘sha vaqtlarning baxtiyor tuyulishi ijtimoiy-siyosiy tuzumning odilligi-yu rahbarlarining oqilligida emas, har bir inson uchun umrining har pallasi, ayniqsa, bolalik qanchalik qadrli ekani sababli ekanligini anglab boramiz.

---

[46] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 168-b.
[47] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 168-b.
[48] Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021, 317-b.
[49] Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019, 79-b.
[50] Omon Matjon. Gaplashadigan vaqtlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986, 8-b.

Qissadagi har hikoya – lavhada biror ijtimoiy masala ko‘tariladi.

O‘quvchi “Iztirob” romanini dastlabki qismlarini o‘qiy boshlaganida Murshid afandiga nisbatan salbiy hislarni tuyadi. Biroq asar yakuniga yetib, Murshid afandi obraziga achinish, xayrixohlik singari boshqa bir tuyg‘ularni boshdan kechiradi. Kitobxon “Sarob” romanida esa, avvalo, Saidiyning muhabbatiga qoyil qolib, iliqlikni his qiladi. Asar voqealari jadallashgan sari Saidiyni yaxshiroq anglay boshlagan kitobxon uning noto‘g‘ri yo‘ldaligini, qat’iyatsiz, aniq fikri yo‘q shaxs ekanligini bilib, unga salbiy munosabatini bildiradi. Biroq bu ikki obrazning bu darajada o‘zgarishiga faqatgina o‘zlari sabab emas, balki ijtimoiy muhit, atrofidagi odamlar ham muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida. To‘plab, nashrga tayyorlovchilar: Kibriyo Qahhorova, Otayor Nahanov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.

2.Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “GLOBAL BOOKS”, 2021.

3.Omon Matjon. Gaplashadigan vaqtlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986, 8-b.

4.Rashod Nuri Guntekin. Iztirob. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2019.

CELİL MEMMEDKULUZÂDE'NİN NESİRLERİNDE "KADIN"

Ülkü POLAT*

Her haneye bir kadın nasıl lâzımdır,
Her kadına ilim şöylece lâzımdır[1]

Azerbaycan'da 20. yüzyıl başlarında üzerinde ısrarla durulan sorunların başında kadınlara yönelik hukuksuzluk gelir. Celil Memmedkuluzâde, Mirza Elekber Sabir, Ali Nazmi, Abdürrahim Bey Hakverdiyev, Üzeyir Hacıbeyli, Süleyman Sani Ahundov gibi edebiyatçılar kadın hukuksuzluğu eserlerinde işlemişlerdir. Kadının ikinci sınıf insan olarak kabul edilmesi, toplumda hak ettiği değeri görememesi şair ve yazarlar tarafından eleştiri hedefine konmuştur. Ayrıca kız çocuklarının okutulmaması, çocuk yaştaki kızların yaşlı erkeklerle zorla evlendirilmesi, erkeklerin çok eşliliği, kısa süreli geçici nikah olarak da bilinen "muta nikahı" gibi sorunlar ısrarla ele alınır. Kadın hukuksuzluğunu ilk dile getiren aydınlar arasında Mirza Fethali Ahundzade (1812- 1878) vardır. Ahundzade'den sonra kadın hakları konusunda Hasan Bey Melikzade Zerdabiyi (1838-1907) anmak gerekir, Ekinci gazetesinde bu anlamda önemli görev üstlenmiştir. Daha sonra İsmail Gaspıralı'nın (1851-1914) Tercüman gazetesindeki yazılarıyla kadın haklarını güçlü bir söylemle dile getirdiği anlaşılmaktadır. (Morkoç, 2017: 1628-1629). Gaspıralı İsmail Bey 1903 yılında Tercüman Gazetesinde yayımladığı *Kadınlar* başlıklı yazıda kadınlarla ilgili düşüncelerini şu şekilde dile getirir:

"Dünyada ne kadar er kişi varsa o kadar da kadın-kız vardır. Bazı vilayetlerde erkek bazı vilayetlerde dişi insan biri birinden bir azacık ziyade veya az olduğu malum ise de umumiyet itibariyle dünyada mevcut

* Dr. Öğr. Üyesi Ülkü POLAT, Gaziantep Üniversitesi, Fen-Edebiyat Fakültesi, Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü, Eski Türk Dili A. B. D., Gaziantep/TÜRKİYE. E-Posta: ulkupolat@gantep.edu.tr, ORCİD No: 0000-0002-3304-1939.

[1] Yavuz Akpınar, İsmail Gaspıralı, Seçilmiş Eserleri II, Fikrî Eserleri, "Kadınlar", İstanbul, Ötüken Yayınları, 2005.

bütün insanların bir yarısı er ve diğer yarısı kadın olduğu yazılı kayıtlar ile ispat edilmiştir. Bundan böyle insanlığın yarısı kadınlar olduğu halde maişet, rahat, saadet ve insan mutluluğu açısından kadınların ne kadar ehemmiyetli oldukları anlaşılıyor. Eğer kadınların fena olduğuna hükmedilirse, yarım dünya fena olduğuna hükmedilmiş olur. Eğer kadınların iyi olduklarına hükmedilirse yarım dünyanın yahşılığına hükmedilmiş olur. Gerçekten de bir şehrin, vilayetin, cemaatin veyahut milletin kadınları cahile ise toplumun ve ümmetin yarısı cahil olması lazım geliyor…Dünyanın ve benî ademin tam yarısı olmanın dışında bazı konularda er kişilerden daha büyük derecede bulunuyorsunuz. İnsanları doğuran, doğurduktan sonra büyüten, dil öğreten, terbiye veren, dinden, ilimden olgunluktan haber veren sizlersiniz. Bütün insanlık kadınların kucağında büyüyüp, rızklarını bunların göğsünde bulup, ilim ve kemalâtı bunların ağzından, edep ve namusu bunların hâl ve hareketinden aldıkları herkesin gözü önündedir. Malumdur ki bir milletin kadınları sağlam vücutlu, namuslu, çalışkan, bilgili olursa bütün millî yapı dahi sağlam vücutlu, namuslu, gayretli ve âlim olur…Dünya bir binaya veya imarete benzetilirse kadınlar bu binanın yarısı olmaktan başka esası ve temelidir."

Daha sonra Gaspıralı, kadınların görevleri, tarihteki büyük kadınlar (Kleopatra, Kraliçe Elizabeth, İmparatoriçe Ekaterina vb.), şark ve garp kadınları ve kadınların şer'î ve nizamî hukukları gibi meseleler üzerinde durur (Akpınar 2005: 287-305).

Celil Memmedkuluzâde de döneminin kadın meseleleri üzerinde duran ve meseleyi çok yönlü ele alan aydınlardan birisidir. Çıkardığı Molla Nasreddin adlı dergide hem kendisi konuyla ilgili pek çok yazı kaleme almış hem de dergideki diğer yazarlar bu konu üzerinde ısrarla durmuştur. 1924 yılında *Şark Kadını* dergisinin yıldönümü münasebetiyle yazdığı *Eski Derdim* adlı makalesinde 'Bütün ömrümde oynattığım kalemin büyük kısmı Şark kadını meselesi üzerine olup, Şark kadınının derdine ben herkesten fazla aşinayım. Çünkü bu benim eski derdimdir: Şark kadınını azâd etmek', demektedir (Askerova, 2006: 136). Sadece Molla Nasreddin adlı dergideki yazılarda değil, *Danabaş Kəndinin Əhvalatları, İki Er, Ölüler* gibi pek çok eserinde kadınlarla ilgili konulara dikkat çekmiştir. Örneğin *Ölüler* adlı eserinde geri kalmış din adamlarının ve sahte şeyhlerin karşısına Batılı tarzda eğitim almış İskender'i koyar, sürekli içtiği için toplum tarafından dışlanan İskender

eserde doğruları söyleyen tek kişidir. Ölüleri dirilteceği yalanıyla ortaya çıkan Şeyh Nəsrullah çok eşliliği ile ön plana çıkan (eşleri 9-13 yaş aralığındadır) ve muta nikahıyla sürekli küçük yaşta kız çocuklarıyla birlikte olan sahte bir din adamıdır. İskender, kadınlar yüzleri açık gezebilir dediği için eski eniştesi tarafından şeyhe şikâyet edilir veya kız kardeşine gel birlikte gezelim dediği için annesi tarafından "Nazlıya gel elinden tutayım gidip gezelim demişsin, artık kız çocukları da erkekler gibi çıkıp kapı kapı geziyorlar mı?" şeklinde eleştirilir. Eserde Şeyh Nəsrullah'ın *Cehennem ahalisinin çoğu muta nikahından mahrum olan kişiler ve kızlardan ibarettir* cümlesi ve İskender'in babası Hacı Hesen'in kendi kızı olan dokuz yaşındaki Nazlı'yı da Şeyh Nəsrullah'ın isteği üzerine onunla evlendirmek istemesi ve kızın istememesi üzerine kurduğu *Kız tayfası ahmak bir şeydir, hayrı ve şerri ne anlar* cümlesi din adamlarının kadınlar konusundaki düşüncelerine dikkat çeken çarpıcı cümlelerdir. Eserde ölüleri dirilteceğine inanılan Şeyh Nəsrullah kimlerin diriltilmesini istiyorsunuz diye sorduğunda genelde ölen eşlerin diriltilmesinin istenmemesi üzerine eserin sonunda Şeyh Nəsrullah'ın sahtekarlığı ortaya çıktığında yine İskender'in çok çarpıcı tespitleri vardır: "*Şeyh Nəsrullah ölülerin dirilmek ihtiyarını koydu sizin kabağınıza siz deriçeden melake ahtaranlar, ölen kardaşlarınızın, bacılarınızın ve övret-uşaklarınızın dirilmeyine razı olmadınız? Ondan ötürü ki arvadlarınızın hamısını yumruk altında öldürmüşsünüz, ölen kardaşlarınızın arvadını almışsınız, ölen dostlarınızın malını yemişsiniz. Razı olmadınız ki gelsinler ve sizin emellerinizi görüp desinler: Tuf sizin yüzünüze*." (Memmedkuluzâde 2017, 341-388).

İki Er "İki Koca" adlı eserinde de evlilik ve boşanma meselesine değinen yazar şeriat kanunlarında yeri olan bir kişinin eşini üç kez boşayıp üçüncü kez evlenmek istediğinde kadının ancak bir başkasıyla evlenip boşanırsa üçüncü kez aynı kişi ile evlenebileceği gibi meselelerin artık gelinen yüzyılda, ekim ihtilalinin onuncu yılında söz konusu olmaması gerektiğini Hacı Ramazan ve eşi Şərəbanı hikayesi ile anlatır. Hikâyede Hacı Ramazan eşini üç kez boşayıp yeniden evlenmek istemiş, fakat üçüncü de şeriat kanunlarına takılmış ve eşini kendi eliyle bir başkasıyla evlendirmek durumunda kalmıştır (Memmedkuluzâde 2017, 270-275).

Yazar *Danabaş Kəndinin Əhvalatları* (Danabaş Köyü'nün Öyküsü) adlı eserinde kadınların sosyal, siyasî ve manevî eşitsizliği konusuna

değinir. Burada kadınlar değil, onları köle haline düşüren hükûmet, kanunlar keskin şekilde itham edilir. Hikâyede üç bedbaht kadının facialı hayatı tasvir edilir. Birincisi, eşi ölen kadın Zeynep, ikincisi Hudayar Bey'in ilk eşi Şeref ve üçüncüsü de Muhammet Hasan amcanın eşi İzzet. Hikâyede kadın haklarındaki eşitsizlik önemli yer tutar. Celil Memmedkuluzâde'ye göre Zeynep, o devirdeki Azerbaycan kadınlarını temsil etmektedir. Erkek birden fazla kadınla evlenebilmektedir. İmam nikâhıyla evli olan kadın, hukuki olarak hiçbir hak sahibi olmadığı için erkeğin de kadına karşı hiçbir sorumluluğu yoktur. Bu durum toplumsal olarak birçok mağduriyetin temel nedenidir. Herkes güçlünün tarafındadır. Hükûmet de, polis amiri de, yönetici de, kadı da Zeynep ile zorla evlenmek isteyen Hudayar Bey'e arka olurlar. Zeynep ne kadar iradeli, eğilmez olsa da bu güçlü kuvvetlerin etkisine dayanamaz. Celil Memmedkuluzâde, kadının her açıdan erkeğe bağlı olduğunu Hudayar Bey'in eşi Şeref'ten bahsederken gösterir. Bu kadın iradeli, cesaretli, gerektiğinde Hudayar Bey ile savaşan bir kadındır. Şeref'in evdeki durumu hizmetçiden de ağırdır. Hiç değilse hizmetçi dövüldüğü zaman kendine bir yol bulur, başka yerde çalışabilir, Şeref'in ise hiçbir kurtuluşu yoktur (Gahramanlı, 2015: 60).

Çocuk yaşta evlilik, kadınların evlilikte bir söz hakkı olmaması, erkeklerin birden fazla kadınla evlenebilmeleri, istedikleri zaman eşlerini kolayca boşayabilmeleri, kadınların ise boşanma gibi bir haklarının söz konusu bile olmadığı ancak ölürlerse eşlerinden kurtulabilecekleri gibi konuları ele aldığı bir diğer yazı da 1917 tarihli *Zənciri-Müqəddəs* başlıklı yazıdır. Yazar bu yazıda dokuz yaşında zorla evlendirilen ve izdivaç adı altında çürüyen müslüman kadınlarının sesi olur ve onların ağzından şu soruyu sorar: *Ey Müslüman yoldaşlar? Siz ne istiyorsunuz? Siz kim özgürlük kim? Siz kim eşitlik kim?* Celilmemmedkuluzâde bu tarz meselelerin çözüme kavuşturulmadığı sürece müslüman toplumların asla eşitlik, özgürlük gibi kavramlardan bahsetmemesi gerektiğini vurgular.

"...Ərzim orasındadır ki, aprel qurultayının gurultulu alqışlarını eşidəndə mənim qulağıma bir özge səs də gəlirdi.

Ağlaram ağlar kimi,

Dərdim var dağlar kimi.

Kimdir o ağlayan?

Fatmanisə xalalar, Nurcahan xalalar, Sona bacılardı.

Niyə ağlayırlar?

Ondan ötrü ağlayırlar ki, ərləri çoxdan bunları boşlayıb bir ayrı övrət alıblar. Bunları da boşamaq istəmirlər. Bəs, bunun çarəsi nədir? Heç çerəsi yoxdur, məgər ölməkdən savayı; çünki müsəlman telaqını bizim şəriətmədarların dövlətindən tək bir ölüm qurtara bilər. Müsəlman arvadı ölməsə ərindən xilas ola bilməz. Amma əri nə vaxt istəsə, övrətin təlaqını verə bilər; yəni açığı budur ki, ixtiyar tək bircə kişidədir. Və çünki mən knyaz, xan deyiləm, çünki mən özüm həmi kəndli ve həmi də rəiyyətəm, mən kəbin altında qalan ömürleri müqeddəs zəncir altında çürüyən müsəlman övrətlerinin gözyaşlarını çox görmüşem.

Ağlaram ağlar kimi

Dərdim var dağlar kimi.

Bəs, doqquz yaşında zornan ərə verdiyimiz balacalarımıza nə dəyirsən? Mən səndən soruşuram, ay canilərimizi gurultulu alqışlayan qurultay üzvləri?...

Qorq, qorq! Ehtiyat elə ki, birdən solist yoldaşlarımız kəbin altında çürüyən və doqquz yaşında ərə verilən övrətlərimizin ve qızlarımızın ağlar sədasını nagafil görüb və eşidip bizi utandıra bilərlər.

Bəlkə bizdən sual elədilər ki, ey müsəlman yoldaşlar, siz hələ nə istəyirsiniz? Siz hara, azadlıq hara? Siz hara, müsavat hara?

Qorxuram onda xəcalət çəkək.

Ço qorhuram."

(Molla Nəsrəddin, 5 May 1917, No 11)

Celil Memmedkuluzâde, 1921 tarihli *Qız Tərbiyəsi* adlı yazısında da kadınların eğitiminin önemi üzerinde durur. Batılı tarzda eğitim alan erkeklerin okumamış, eğitimsiz kızlarla evlenmek istemeyip ecnebi milletlerin eğitimli kızları ile evlenmek istediklerine dikkat çekerek bu durumun milli aile yapısının bozulmasına sebebiyet verdiğini belirtir. Eğitimli erkeklere hak verir, kızların eğitimi meselesinin ciddi bir mesele olduğuna dikkat çeker. Hatta 1923 tarihli *Uşaqlarımız* adlı yazısında da kadınların erkeklerden gizlenmesi toplum içine girmemesinden bahsederek biz kadınları erkek meclislerinden kovarken çocukları da onlarla birlikte kovduk ve sair milletlerin çocukları olması gereken vakitte ders ve terbiyeyi tamamladıkları halde bizim çocuklarımız onların

on yıl gerisinden geliyor diye eleştiride bulunur.

"Metleb budur ki, biz görürük bu axır vaxtlar oğlanlarımız medreselere gedip tehsil tapırlar ve yekəlib evlənmek fikrine düşəndə axtarırlar ki, özlerine elə bir ömür yoldaşı tapsınlar ki, onların səliqesine ve zövqünə müvafiq gəlsin. Amma çünki özləri az çox elm və tərbiyə ve elm görməmiş qızlarımıza mail olmurlar ve çoxları gedip əcnebi milletlerin oxumuş qızlarından bəyənib, alıb özlərine övrət qərar verirlər. Əgər bu iş bir qədər vaxt belə getsə, axırda bir yandan ailələrimiz milliliyini itirib millətimizden yadırğayacaqlar; bir tərəfdən de qızlarımız yekəlib, illərlə evdə qalıb, nişanlı intizarında olacaqlar.alim cavanlarımızı qınamaq mümkün deyil; səbəb budur ki, əgər onlar gedib terbiyesiz qız alıb evə gətirsələr, yola getməyecekler ve nəce de yola getsinler ki, kişi kitabdan ve elmdən danışanda övrət saatda bir asqırıb deyəcək: "Kişi tək səbir gəldi, qoy kitabı yerə…

Bəs, bunun çarəsi?

Biri budur ki qızlara da tərbiyə verək ki, kişilərlə hər bir işdə tuş getsinlər. Amma bu məsləhət deyil, çünki xudanəkərdə qız dərs oxusa və yazmaq bilsə, bəlkə şayəd ola bilər ki, məsələn, indi bir sözdü danışırıq, kefi istədi, götürdü bir yad kişiyə bir kağız yazdı.

Amma məne qalsa ən salamat çarəsi budur ki, biz heç əslinden oğlan uşaqlarını da dərsə qoymayaq. Əgər belə olsa, ne şiş yanar, nə kabab."

(Qız Tərbiyəsi, (20 Mart 1921), No 3, Molla Nesreddin (Deli))

Yazarın 1926 tarihli *Arvad Öldürənlər yaxud "qeyret"* adlı yazısı da kadına şiddet ve kadın cinayetleri konusunda yazılmış etkili bir yazıdır. "qeyret" "namus" yazara göre de "arvad öldürmek" anlamına gelen kelimenin ne Rus dilinde ne Ermeni ne de Avrupa dillerinde karşılığı yoktur, çünkü bu Bakü'ye ve Kafkasya'nın bazı bölgelerine has bir durumdur. Erkekler eşlerinin veya kız kardeşlerinin davranışlarını beğenmediklerinde, toplum tarafından bu kadınlar hakkında kötü konuşmalar yapıldığında sinirlenerek eşlerini veya kız kardeşlerini bıçaklayarak öldürürler. Memmedkuluzâde yazıyı şu cümlelerle bitirir: "Qeyrət, qeyrət – buna deyirlər; yəni hirs vurur təpəmə və pıçağı götütüb arvadımın, yainki bacımın başını kəsirəm. "Qəyrət" buna deyirlər!...Heyif, yenə heyif olsun qoçubazlığımıza, arvad öldürmək kimi igidliyimizə!"

"*qeyret dedikte bir istilahdır ki, ancaq bizlərə məxsusdur: belə ki, bu söz nə rus dilində var, nə erməni, gürcü ve nə də Avropa dillerinde var.*

Daha doğrusu, "qeyret" əslən Bakı istilahıdır və buradan da bu istilah Qafqazın bəzi yerlərinə, xüsusən şimal tərəfinə, qeyrətli islam arasına yayılıbdır.

"Qeyrət"in əsli mənası- arvad öldürməkdir. Ve çünki Bakıdan və bizim qeyri şəhərlərimizdən savayı Rusiyada ve Avropada arvad öldürmek yoxdur, onunçün də o məmlekətlərdə "qeyrət" ləfzi de işlənmir. Və çünki o tayfaların "qeyrət"i, yaxud "qeyrət" istilahı yoxdur, onunçün də heç kəs indiyə kimi eşitməyib ki, bir nəfər rus, erməni, ya almaniyalı, ya amerikalı "qeyrət" üstə arvad öldürsün.

"Qeyret"in mənası budur ki, indi bir saatlığa tutaq ki, mən məsələn, Bakı qoçusuyam və baxıb görürəm ki, arvadımın, ya bacımın rəftarı mənə xoş gəlmir ve bunların rəftarına baxıb qorxuram ki, camaat içinde mənim bacım barəsində, ya arvadım barəsində pis danışalar.

Qeyrət, qeyrət – buna deyirlər; yəni hirs vurur təpəmə və pıçağı götütüb arvadımın, yainki bacımın başını kəsirəm. "Qəyrət" buna deyirlər!...Heyif, yenə heyif olsun qoçubazlığımıza, arvad öldürmək kimi igidliyimizə!"

(Arvad Öldürənlər yaxud "qeyret" (Molla Nəsrəddin, 27 noyabr 1926)

Yine yazarın 1927 tarihli "Arvada Güçleri Çatır" adlı yazısı da kadına şiddet konusunda yazılmış önemli bir yazıdır. Bu yazıda da yazar gelinen asırda artık şeriat ve namus yüzünden kadın öldürmekten bahsedilmemesi gerektiğini vurgular. Müslüman kadınların yüzleri açık bir şekilde erkeklerle konuşma hakkına sahip olmadığını ama yeni nesil kadınların artık bu köhne kaideyi bozmak istediğini yabancı kişiler ile konuşup gülüştüklerini hatta tiyatrolarda birlikte rol aldıklarını belirtir ve bu durumun "qeyretli" yani "namuslu" kişilere hoş gelmediğini ve bunun üzerine bu "qeyretli" kişilerin bıçağı çekip kadınların kalbine sapladıklarını belirtir. Ama artık kadınlar sessiz kalmamaktadır:

"Bizim qeyrətli cavanlarımız başlarını salıblar aşağı elə köhnə qayda ilə gədirlər: köhnə qayda budur ki, heç bir müsəlman arvadının ixtiyarı yoxdur kişiler ile üzü açıq danışsın.

Amma indi yeniyetmə qadınlarımız bu köhnə qaydanı pozmaq isteyirlər ve nəinki yad kişilər ile danışıb gülüşürlər, hələ bəlkə teatrlarda onlar ilə bir yerdə oynayırlar da.

Bu da "qeyretli" kişilərimizə xoş gəlmir və xoş gəlməyəndə də həmin "qeyrətli"lerimiz bıçağı çəkib soxurlar qadınların ürəyinə.

"Bakıda əzməhəmməd Dilavər oğlu övrəti Şirinbanunu bıçaqlayıb öldürür. Şuşada Şahmar Zeynal oğlu maması qızı Leylanı bıçaklayıb öldürmək isteyir. Qeyri yerlərdə də habelə…

Demək olar ki, bu adət bize atadan, babadan irs qalıbdır: bir vaxt var idi ki, şəriət yolundan çıxan qadınları siyasət etmək hər bir həqiqi müsəlman üçün bir vəzife, bəlkə bir igidlik hesab olunurdu.

